

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 59
Часть-6_Декабрь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Декабрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 6



Google
Scholar

IC²I JOURNALS
MASTER LIST

МАҲАЛЛА ФУҚАРОЛАР ЙИҒИНЛАРИНИНГ МАҚОМИ, МАҚСАДИ ВА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ

Ганиев Ботир Мухитдинович

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги

Малака ошириш институти

Махсус-фанлар кафедраси катта ўқитувчиси, подполковник

"Маҳалла» атамаси арабча бўлиб, «ўрин-жой», қавм ёки жамоат иттифоқликда, ўзаро бир-бирларини қўллаб – қувватлаб яшайдиган жойни англатади. Адабиётларда Маҳаллаларнинг кўп минг йиллик тарихга эга эканлиги ҳақида маълумотлар учрайди. Алишер Навоий ўзининг «Ҳайратул аброр» асарида Маҳаллани «маҳалла шаҳар ичидаги шаҳарча»дир деб таърифлайди.

Маҳалла кичик маъмурий ҳудуд бўлиши билан бирга, турмуш тарзи, кадриятлар, анъаналар, урф-одатлар умумийлиги билан боғланган кишилар жамоаси бирлигидир. Тарихнинг турли босқичларида даврлар, тузумлар ўзгаришига қараб Маҳалланинг вазифалари ҳам ўзгариб турган.

Маҳалла ўзи бу нима? Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариши— фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 72-моддасида ва қонунлари билан кафолатланадиган, уларнинг ўз манфаатларидан, ривожланишнинг тарихий хусусиятларидан, шунингдек миллий ва маънавий кадриятлардан, маҳаллий урф-одатлар ва анъаналардан келиб чиққан ҳолда маҳаллий аҳамиятга молик масалаларни ҳал қилиш борасидаги мустақил фаолиятидир. Фуқаролар шаҳарчалар, қишлоқлар, овуллар ва маҳаллаларда ўзини ўзи бошқаришга доир ўз конституциявий ҳуқуқини фуқароларнинг сайлов ҳуқуқлари кафолатларига мувофиқ фуқаролар йиғинлари (вакиллар йиғилиши) орқали амалга оширадilar.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлигининг 2023 йил 30 мартдаги 10/3/05-сонли “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойили асосида республика маҳалларида хавфсиз муҳитни яратиш механизмларини белгилаш тўғрисида”ги Қўшма қарор (ИИВ, КҚваБВ, ЁСваСВ)га асосан “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойили асосида республика маҳалларида хавфсиз муҳитни яратиш юзасидан чора-тадбирларни амалга ошириш тартиби бўйича Йўриқнома тасдиқланган.

Фуқаролар йиғини аҳоли манфаатларини ифодалайди ва унинг номидан тегишли ҳудуд доирасида амал қиладиган қарорлар қабул қилади.

Фуқаролар йиғинида ўн саккиз ёшга тўлган ва тегишли ҳудудда доимий яшаётган шахслар қатнашади.

Фуқаролар йиғинлари фаолиятини ташкил этишнинг самарали механизмларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш мақсадида барча фуқаролар йиғинлари географик жойлашуви ва аҳоли сони бўйича тоифаларга ажратилади.

Фуқаролар йиғинлари географик жойлашуви бўйича қуйидаги тоифаларга бўлинади:

- ❖ шаҳарда;
- ❖ туман марказида;
- ❖ туман марказигача 30 км бўлган масофада;
- ❖ туман марказидан 30 км ва ундан олис масофада, тоғли ва чўл худудида;
- ❖ чегара (ёки анклав) худудда жойлашган фуқаролар йиғинлари.

Фуқаролар йиғинлари аҳоли сони бўйича қуйидаги тоифаларга бўлинади:

- ❖ 1000 нафаргача аҳолиси бўлган;
- ❖ 1001 — 2000 нафаргача аҳолиси бўлган;
- ❖ 2001 — 4000 нафаргача аҳолиси бўлган;
- ❖ 4001 — 6000 нафаргача аҳолиси бўлган;
- ❖ 6001 — 8000 нафаргача аҳолиси бўлган;
- ❖ 8000 нафардан зиёд аҳолиси бўлган фуқаролар йиғинлари.

Фуқаролар жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, ижтимоий мавқеидан қатъи назар, бевосита ёки ўзларининг сайланадиган вакиллари орқали ўзини ўзи бошқаришда тенг ҳуқуқларга эга.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқаришга доир ҳуқуқларини чеклаш тақиқланади. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятига давлат органлари ва ташкилотлари ҳамда уларнинг мансабдор шахслари аралашишига йўл қўйилмайди.

Фуқаролар йиғинлари фаолиятининг асосий принциплари қонунийлик, инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг устуворлиги, демократия, ошкоралик, ижтимоий адолат, маҳаллий аҳамиятга молик масалаларни ҳал этишда мустақиллик, жамоавийлик, аҳоли олдида ҳисобдорлик, жамоатчилик асосидаги ўзаро ёрдам, ижтимоий шериклик, маҳаллий урф-одатлар ва анъаналарни ҳисобга олишдан иборат.

Фуқаролар йиғини давлат ҳокимияти органлари тизимида кирмайди ва қонунчилик ҳужжатлари билан берилган ўз ваколатларини тегишли ҳудуд доирасида амалга оширади, қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда давлат хизматлари марказларида ҳисобга қўйилган кундан эътиборан юридик шахс мақомига ҳамда ўз номи кўрсатилган муҳрга ва банкда ўз ҳисобварағига эга бўлади.

Фуқаролар йиғини Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари билан кафолатланган ҳуқуқ ва эркинликлардан фойдаланишда, фуқароларнинг манфаатларидан, ривожланишнинг тарихий ўзига хос хусусиятларидан, шунингдек, миллий қадриятлардан, маҳаллий урф-одатлар ва анъаналардан келиб чиққан ҳолда маҳаллий аҳамиятга молик масалаларни ҳал қилишда мустақил бўлиб, аҳоли манфаатларини ифодалайди ва унинг номидан тегишли ҳудуд доирасида амал қиладиган қарорлар қабул қилади.

Фуқаролар йиғини кенгаши, фуқаролар йиғини фаолиятининг асосий йўналишлари бўйича комиссиялар ва тафтиш комиссияси фуқаролар йиғини органлари ҳисобланади.

Фуқаролар йиғинининг органлари фуқаролар йиғини раиси сайлови натижалари бўйича фуқаролар йиғини мажлиси (фуқаролар вакилларининг йиғилиши) томонидан бир ой мобайнида шакллантирилади.

Фуқаролар йиғинининг мақсади ва ваколатлари

Фуқаролар йиғини фаолиятининг асосий мақсади маҳаллий аҳамиятга молик масалаларни ҳудудидаги фуқароларнинг манфаатларидан, ривожланишнинг тарихий ўзига хос хусусиятларидан, шунингдек, миллий кадриятлардан, маҳаллий урф-одатлар ва анъаналардан келиб чиққан ҳолда ҳал қилиш, уларнинг ҳуқуқий маданияти ва ижтимоий фаоллигини ошириш, «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлашдан иборат.

Фуқаролар йиғини қуйидаги ваколатларни амалга оширади:

Ўз фаолиятини ташкил этиш соҳасида:

□ фуқаролар йиғини раисини рағбатлантириш ёки уни лавозимидан озод қилиш тўғрисида қарор қабул қилади;

□ фуқаролар йиғини раисининг жамоатчилик асосида фаолият кўрсатувчи маслаҳатчиларини ва фуқаролар йиғини фаолиятининг асосий йўналишлари бўйича комиссиялар аъзоларини, тафтиш комиссиясининг раиси ҳамда аъзоларини сайлайди ва лавозимидан озод этади;

□ фуқаролар йиғини кенгашини шакллантиради ва фуқаролар йиғини фаолиятининг асосий йўналишлари бўйича комиссиялар ишини ташкил этади;

□ фуқаролар йиғинининг низомини ҳамда фуқаролар йиғини ходимларининг одоб қоидаларини тасдиқлайди;

□ фуқаролар йиғини раисига ишончсизлик билдириш тўғрисида қарор қабул қилади;

□ фуқаролар йиғинининг фаолият дастурини, харажатлар сметасини тасдиқлайди;

□ ҳар чоракда камида бир марта фуқаролар йиғини раисининг ва маслаҳатчиларининг, маҳалла хотин-қизлар фаолининг ҳамда бир йилда камида бир марта тафтиш комиссияси раисининг ҳисоботларини эшитади ва тегишли қарорлар қабул қилади;

□ ўз маблағларини шакллантиради, фуқаролар йиғини мол-мулкига эгалик қилади, ундан фойдаланади ва уни тасарруф этади, молиявий маблағларнинг сарфланиши устидан назоратни ташкил этади;

□ маъмурий-ҳудудий бирликлар, маҳалла фуқаролар йиғинларининг чегараларини ўзгартириш, маҳалла фуқаролар йиғинлари, кўчалар, майдонлар ва бошқа объектларга ном бериш ва уларнинг номини ўзгартириш ҳақида ваколатли давлат органларига ва халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашларига илтимосномалар киритади;

□ ўз ваколатига кирувчи масалалар бўйича манзилли дастурлар ва «йўл хариталари»га давлат органлари ва ташкилотлари томонидан кўриб чиқилиши мажбурий бўлган асосланган таклифлар киритади;

□ рейтинг баҳолаш натижаларига кўра фаолияти «намунали» деб топилган фуқаролар йиғинининг малакали ва ташаббускор ходимлари, маҳалла хотин-қизлар фаолини давлат ҳокимияти органларининг кадрлар захирасига киритиш бўйича тавсиялар беради;

б) ижтимоий-маънавий муҳитни мустаҳкамлаш ҳамда оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш соҳасида:

□ оилаларни мустаҳкамлаш ҳамда хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича чора-тадбирларни амалга оширади;

□ хотин-қизларни оила, маҳалла ва меҳнат жамоаларида ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, маънавиятини юксалтириш, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, замонавий намунали оилани шакллантириш, унинг маънавий-ахлоқий муҳитини ва анъанавий оилавий кадриятларни мустаҳкамлаш бўйича мақсадли чора-тадбирларни амалга оширади;

□ ижтимоий ҳимояга муҳтож хотин-қизларни тадбиркорликка ўқитиш, бизнесга оид намунавий режаларни ишлаб чиқиш ва кредит олиш ишларида уларга кўмаклашади, «Аёллар дафтари»га киритилган хотин-қизлар билан манзилли ишларни амалга оширади;

□ хотин-қизларнинг муаммоларини ўз вақтида аниқлаш, оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизлар, шу жумладан, ногиронлиги бўлган аёллар билан яқка тартибда ҳамда аниқ мақсадга йўналтирилган ишларни олиб боради, уларга ижтимоий-ҳуқуқий, психологик ва моддий ёрдам кўрсатиш ишларини ташкил этади;

□ аҳолини, шу жумладан, ёшларни миллий ва маънавий кадриятлар, маҳаллий урф-одат ва анъаналар билан таништиради ва уларни тарғиб қилади;

□ тўйлар ва бошқа маросимларни ўтказиш юзасидан тавсиялар беради;

□ ёшлар таълим-тарбиясида ва оилаларни мустаҳкамлашда кекса авлод вакиллариининг ролини оширишга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширади;

□ давлат ҳокимияти органларига миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни сақлашга кўмаклашади;

□ маҳалладаги уюшмаган ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлашга қаратилган зарур чора-тадбирларни ишлаб чиқади ва амалга оширади;

в) ҳуқуқ-тартибот соҳасида:

д) ижтимоий - иқтисодий соҳада ,Фуқаролар йиғинлари мурожаатлари кўриб чиқилишида юзага келган қонунбузилиш ҳолатлари бўйича судга мурожаат қилиши мумкин.



Маҳаллалар ўз зиммасидаги вазифаларни самарали бажариши учун ҳуқуқий асослар билан бирга, етарли шарт-шароитларга ҳам эга бўлмоғи лозим, деди Мирзиёев¹. Муҳтарам Президентимиз Чилонзор туманидаги саноат корхоналари, ижтимоий объектларга ташрифларида профилактика инспектори ўзи ишлайдиган маҳалла ҳудудида яшаши лозим. Бу профилактика инспектори маҳалладаги ҳар бир хонадон билан яқин мулоқот ўрнатиши, кўчалар ва жамоат жойларини қатъий назоратга олишида муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидладилар.

Мирзиёев: маҳалла раиси ким нима билан машғул - ҳаммасини билиши лозим

Маҳалла марказларида чойхона, новвойхона, "Гўзаллик салонлари", дўконлар, спорт ва болалар майдончалари бўлиши одамларнинг зарур эҳтиёжларини қондириш билан бирга, ҳудуддаги маънавий муҳит барқарорлигини таъминлашга ҳам хизмат қилади.

"Маҳалла халқ билан давлат ўртасидаги кўприк бўлиши керак. Одамларнинг қувончу ташвишидан доимо хабардор бўлиш маҳалланинг асосий вазифасидир", — деб қайд этган Мирзиёев.

¹ тошкент, 13 апр — sputnik. Ўзбекистон Президенти шавкат Мирзиёев чилонзор туманидаги "катта хирмонтепа" ва "яккатут" маҳалла фуқаролар йиғинларида бўлди, деб хабар берди ўзбекистон иив матбуот-хизмати. 12 Апрель 2017, 16:34

TARBIYA FANINI O'QITISHDA QO'LLANADIGAN INTERFAOL METODLAR ULARNI TATBIQ ETISH YO'LLARI

Rejabboyeva Mashrabxon Islombek qizi

ADPI Milliy go'ya va ma'naviyat asoslari huquq ta'lim yo'nalishi
3 – bosqich talabasi

Qodiraliyeva Zamiraxon Hamzadbek qizi

ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari huquq ta'lim yo'nalishi
3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya fani dars jarayonida o'quvchilarning tarbiyasini shakllantirishda innovatsion ta'lim va qiziqarli metodli texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье раскрываются важные аспекты эффективного использования инновационных образовательных и интересных методических технологий воспитания в формировании воспитания учащихся в процессе обучения.

Annotation: this article reveals important aspects of the effective use of innovative educational and interesting methodological technologies in the formation of the upbringing of students in the course of teaching.

Kalit so'zlar: Metodikalar, innovasion texnologiya, ta'lim-tarbiya, ta'lim samaradorligi.

Ключевые слова: методики, инновационные технологии, обучение и воспитание, эффективность обучения.

Keywords: methodologies, innovation technology, education and training, educational effectiveness.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib kelinmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardandir. Shuningdek, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin bo'ladi. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib,

ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi¹. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi :

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi boradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanib kelinmoqda. O'qitish jarayonida interfaol metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning ta'limiy, didaktik, tarbiyaviy, jihatidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan, ularning qiziqishlarini orttiradigan turli tuman, zamonaviy metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bolalar bizning, Vatanimizning kelajagidir. Vatanimizning gullab yashnashi ularning qo'lidadir.² Har tomonlama yetuk, bilimdon, komil insonni tarbiyalash bizning vazifamizdir. "Interfaol" so'zi ingliz tilida "interact" so'zidan olingan bo'lib, "inter"—o'zaro ikki taraflama, "act"— harakat qilmoq degan ma'nolarni anglatadi. Interfaol metodlari o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlashga, mustaqil fikrlashiga, dunyoqarashini kengaytirishiga ko'maklashadi. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

¹ O'zbekiston Pedagoglari axborotnomasi www.in.academy.uz 1-Jild, 6-son .

² www.worldlyjournals.com.1-son,aprel,2024.Worldlyknowledge nashriyoti.

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b. Interfaol ta’lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aqliy hujum» metodi biror muammo bo’yicha ta’lim o’quvchilar tomonidan bildirilganerkinfikr va mulohazalarni to’plab, ular orqali ma’lum bir xulosaga keluvchi metod hisoblanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma va og’zaki shakllari bor. Og’zaki shaklida o’qituvchi tomonidan berilgan savolga o’quvchilarning har biri o’z fikri og’zaki, takliflari og’zaki bayon etishadi. O’quvchilar o’z javoblarini aniq, qisqa va lo’nda tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga o’quvchilar o’z javoblarini qog’oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko’rinarli tarzda yozadilar. Keyingi metodimiz «Beshtasini top» deb nomlanadi; bu oddiy lug’atni ko’rib chiqish o’yini bo’lib unda siz o’zingizning qoidalarigizni ishlab chiqishingiz mumkin. Sinfda o’quvchilaringizni guruhlariga bo’ling va har bir guruhga toifani bering misol uchun: pizza to’plami ular 20 soniya ichida ushbu toifaga tegishli beshta narsasini topishlari kerak bo’ladi ya’niy pitsa qo’shimchalari; pishloq, qo’ziqorin, jambon, bekon, makkajo’xori doskada o’ylab topishlari kerak bo’ladi. Ularning eng tezkori g’olibdir!

Keyingi metodimiz «Ko’rsatish va Tell» talabalarigiz o’z yozuvlarida nozik so’zlarni kiritishlari juda yaxshi, lekin ular gapirganda ham shunday qila oladimi? *ko’rsating va ayting*, siz talabalarga ishlash uchun mavzu berasiz, masalan, sevimli gazak. Har bir kishi mavzuga mos keladigan narsani olib kelishi va shu ob’ekt bilan bog’liq voqea yoki xotirani aytib berishi kerak. O’yinga ko’proq ziravorlar qo’shish uchun siz talabalarga ovoz berishlari va eng yaxshi hikoyachi, eng yaxshi hikoya syujeti, eng quvnoq hikoya va h.k. kabi turli sovrinlar uchun kurashishlariga ruxsat berishingiz mumkin. Manashu metodimiz orqali ham darslarimizni qiziqarli tarzda olib borishimiz mumkin bo’ladi. **«So’z zanjiri» metodi** talabalarigizning so’z bankini ushbu soddalashtirilgan, tayyorlovsiz o’yin bilan sinab ko’ring. Birinchidan, “ari” kabi so’zni o’ylab toping, so’ngra to’pni talabaga tashlang; ular “zumrad” kabi oxirgi “e” harfi bilan boshlangan boshqa so’z haqida o’ylashadi. Kimdir keyingi so’zni yetarlicha tez baqira olmaguncha ular sinf bo’ylab so’z zanjirini davom ettiradilar va keyin o’sha o’yinchisiz qaytadan boshlanib davom etib ketadi.

«Yashirin so’z»ni toping metodikasi talabalarga yangi so’zlarni eslab qolishlariga qanday yordam bera olasiz? Birinchidan, so’zni o’ylab ko’ring, so’ngra talabalarga shu bilan bog’liq bo’lgan so’zlarni ayting. Siz o’ylayotgan so’zni taxmin qilish uchun ular o’zlarining mavjud lug’atlaridan foydalanishlari kerak. Misol uchun,

agar maxfiy so'z "shaftoli" bo'lsa, siz "pushti" deb aytishingiz mumkin. Keyin ular "flamingo" kabi narsani taxmin qilishlari mumkin va siz ularga bu aloqador emasligini ayta olasiz. Ammo ular "guava" kabi so'zlarni aytganda, bu maxfiy so'z bilan bog'liqligini aytishingiz mumkin. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanishi mumkin. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezonni ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida turli xil interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini, o'quvchilarning bilim salohiyatini, ularning qiziqishlarini, savodxonligini oshirishga, olingan bilimlarni takrorlash hamda mustahkamlashga yordam beradi. Buning uchun o'qituvchilar dars jarayonida samarali metodlardan foydalanish kerak. Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyal mavjud bo'lib, o'qitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi o'qituvchiga bog'liqligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan, o'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni e'tiborga olgan xolda tanlash ta'lim sifatini yanada oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avalayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.P. Ta'lim metodlari o'quv –uslubiy qo'llanma, Navro'z nashriyoti, Toshkent – 2017.
2. www.worldlyjournals.com. 1-son, aprel, 2024. Worldlyknowledge nashriyoti.
3. Yangi O'zbekiston Pedagoglari axborotnomasi www.in-academy.uz 1-jild, 6-son (YO'PA).

VOYAGA ETMAGANLAR JINOIY JAVOBGARLIGINING UMUMIY XUSUSIYATLARI TO'G'RISIDA

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Rejabboyeva Mashrabxon Islombek qizi

*ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari
huquq talimi yo'nalishi 301 – guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarliklarining xususiyatlari va ularga berilgan jazolar ya'ni jarima, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan cheklash, umrbod qamoq jazosi haqida bilib olishimiz mumkin.

Аннотация: В этой статье мы можем узнать об особенностях уголовной ответственности несовершеннолетних и назначенных им наказаниях, а именно штрафах, исправительных работах, ограничении свободы, пожизненном заключении.

Annotation: in this article, we can learn about the features of the criminal liability of minors and the penalties imposed on them-about a criminal fine, correctional work-restrictions on freedom, life imprisonment.

Kalit so'zlar: Jinoiy javobgarlik , bola huquqlari, jarima , mahkumning erkinligini cheklash va muddatlar.

Ключевые слова: уголовная ответственность , права ребенка, штраф , ограничение свободы осужденного и сроки.

Keywords: criminal liability , child rights, fines , restrictions on the freedom of the convicted person and deadlines.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq respublikamizda barcha sohalar, shu jumladan huquqiy sohada ham keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlar orasida jazo tizimini liberallashtirish, xususan jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazolarni qayta ko'rib chiqish alohida o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasida: «Biz voyaga yetmaganlar, ayollar hamda keksalarga nisbatan qo'llanadigan jazo tizimini qayta ko'rib chiqmog'imiz zarur. Bizning jinoyat qonunchiligimiz insonparvarlik qoidalariga asoslangan holda, jinoyat sodir qilgan ayollar va voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda bir qator yengilliklarni nazarda tutadi», deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, voyaga yetmaganlarning huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yaratilganligi va takomillashib borayotganligi mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning aqlan va jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, iste'dodli va qobiliyatli bo'lib tarbiyalanishining muhim kafolati hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar ham barcha holatlarda zarur hulq-atvorni ongli ravishda tanlay olish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ya'ni muayyan holatda umuminsoniy qoidalar va huquq normalari talablari asosida harakat qiladilar. Mazkur holatlar birinchi navbatda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoiy javobgarlikni aynan alohida jinoyatlar uchun o'n to'rt yoshdan (qonunda faqat og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun o'n uch yoshdan jinoiy javobgarlik o'rnatilgan), boshqa jinoyatlar uchun esa qoidaga ko'ra o'n olti yoshdan belgilash lozimligini inobatga olingan. O'n to'rt va o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmaganlarda jinoyatdeb baholanuvchi qilmishlarni sodir etishda o'z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini yetarli darajada anglash va tushunib yetish imkoniyatlari shakllangan bo'ladi. Shunga qaramasdan, ularda boshqa ijobiy hulq-atvorni tanlash imkoniyati mavjud bo'lsa-da, ular tomonidan muayyan turdagi jinoyatlar sodir etiladi. Mazkur holatlarning o'zi ularga nisbatan ham jinoiy javobgarlik choralari belgilash lozimligini nazarda tutadi, faqat unda yuqorida qayd etilgan xususiyatlar inobatga olinishi lozim. Jazoning maqsadidan kelib chiqqan holda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar uchun qonun jazo turlarini qo'llashning muayyan turlarini nazarda tutgan. Jinoyat kodeksining 81- moddasiga muvofiq, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga tayinlanadigan jazolar tizimi umumiy tizimga nisbatan jazolarning cheklangan ro'yxatiga ega. Voyaga yetmaganlar uchun belgilanadigan jazolar tizimiga faqat asosiy jazolar, ya'ni mustaqil ravishda tayinlanadigan, davlat tomonidan qabul qilinadigan majburlov asoslarini tashkil qiladigan, faoliyatning va jinoyat sodir etgan shaxsning salbiy baholanish darajasini ifodalaydigan hamda axloq tuzatish-tarbiya ta'sirining boshqa choralari bilan bir qatorda, jazolash maqsadlariga ham erishish imkonini beradigan jazolar kiritilgan. Jinoyat kodeksining 81-moddasi 1-qismiga muvofiq, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga quyidagi asosiy jazolar qo'llanilishi mumkin:

- 1) jarima;
- 2) axloq tuzatish ishlari;
- 3) qamoq;
- 4) ozodlikdan mahrum qilish.

O'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin. Voyaga yetmaganlar uchun jazo tizimi faqat asosiy jazolarni, ya'ni davlat tomonidan belgilangan majburlovning asosini tashkil etib, qilmish va jinoyat sodir etgan shaxsning salbiy baholanish darajasini ifodalaydi. Ular davlatning boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralari bilan birga jazo maqsadiga

erishish uchun yordam berishi lozim. Asosiy jazo choralarini jazoning boshqa turlariga qo'shimcha ravishda qo'llash mumkin emas. Voyaga yetmagan mahkumga nisbatan muayyan huquqlar va ozodlikdan mahrum etishni qo'llash xususiyatiga ko'ra ko'rsatilgan tizimga kiradigan jazo turlari ikki guruhga bo'linadi.

❖ moddiy tarzda manfaatlardan mahrum qilishdan iborat elementlarga ega asosiy jazo turlari: jarima, axloq tuzatish ishlari.

❖ mahkumning erkinligini cheklashdan iborat bo'lgan asosiy jazo turlari: qamoq, ozodlikdan mahrum etish.

Jinoyat kodeksining 81-moddasida nazarda tutilgan jazo turlari o'z nomi va mohiyati bilan voyaga yetganlarga qo'llaniladigan jazolarga o'xshab ketsa-da, biroq o'z mazmuniga va huquqiy oqibatlariga ko'ra, ulardan farq qiladi. Jinoyat kodeksining sakson birinchi moddasida nazarda tutilgan jazo turlari, garchi kattalarga nisbatan qo'llaniladigan jazolar tizimidagi shu kabi jazolarga nomi va mohiyati bo'yicha o'xshab ketsa ham, ammo mazmuni, huquqiy oqibatlari bo'yicha farq qiladi. Jinoyat kodeksining sakson ikkinchi moddasida nazarda tutilgan va voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan jarima jazo chorasida qonunda belgilangan miqdordagi eng kam ish haqiga mos keladigan qiymatdagi pulni davlat hisobiga olib qo'yishdan iboratdir. Jarima Jinoyat kodeksi Umumiy qismining muayyan moddalari sanksiyalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun tayinlanadi. Voyaga yetmaganlar uchun jarima eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi. Demak, voyaga yetmaganlarga faqat shu doiradagina jarima tayinlanishi mumkin. Ayni paytda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining sanksiyalarida ushbu doira o'zining bevosita ifodasini topmadi. Bu shu bilan bog'liqki, sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlayotganida jazotayinlashning umumiy asoslariga va Jinoyat kodeksining sakson oltinchi moddasida belgilangan qoidalariga tayanib, Umumiy qism qoidalariga muvofiq ravishda aniq jinoyat uchun jazo tayinlashi shart. Shu bois, sud voyaga yetmaganlarga jarima tarzidagi jazo tayinlashda Umumiy qismning sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarida belgilangan jarima miqdorining doirasiga emas, balki Jinoyat kodeksining sakson ikkinchi moddasida nazarda tutilgan jarima miqdorlariga asoslanishi lozim. Mahkum jarima to'lashdan olti oy muddat mobaynida bo'yin tovlasa, sud to'lanmagan jarima miqdorini axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtiradi. Bunda eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdoridagijarima axloq tuzatish ishlarining bir oyiga tenglashtirib hisoblanadi. Jarimani axloq tuzatish ishlariga almashtirishda bunday ishlarning eng ko'p muddati bir yildan ortmasligi kerak. Qonunga muvofiq, voyaga yetmagan mahkumga jazo tariqasida tayinlangan jarimani mahkum hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab olti oy mobaynida ixtiyoriy ravishda to'lashi lozim.

Axloq tuzatish ishlari: axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o'z ish joyida o'tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Axloq tuzatish ishlari, shuningdek, Jinoyat kodeksi sakson ikkinchi moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda ilgari tayinlangan jarima jazosini almashtirish tartibida ham qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi 2008-yil 7-yanvar qonunining 20-moddasiga ko'ra, «har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega. Qamoq jazosi; qamoq jazosi mahkumni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatish imkoniyati bo'lmagan hollarda tayinlanishi mumkin. Qamoq Jinoyat kodeksi sakson ikkinchi moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda ilgari axloq tuzatish ishlari yuzasidan tayinlangan jazoni almashtirish tartibida ham tayinlanishi mumkin. Bunda qamoqning minimal muddati bir oydan kam bo'lishi mumkin, biroq uch oydan oshmasligi kerak. Ozodlikdan mahrum qilish; ozodlikdan mahrum qilish jinoyat kodeksining sakson beshinchi moddalarini o'z ichiga oladi. Ozodlikdan mahrum qilish jazo tariqasida, odatda, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan, agar bunday shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatishning imkoni bo'lmasa, qo'llaniladi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o'n yilgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi Jinoyat kodeksining sakson oltinchi moddasida nazarda tutilgan holatlarda o'n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin. Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi. Hukm chiqarish paytida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarida o'tash tayinlanadi.

Xulosa qilib aytganimizda agar shaxsga jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilganidan so'ng, u yana qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud Jinoyat kodeksining oltimishinchi moddasida ko'rsatilgan umumiy qoidalarga muvofiq, Jinoyat kodeksining sakson oltinchi moddasi ko'rsatmalarini inobatga olgan holda bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-y

3. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya
4. O.A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova " Inson huquqlari" o'quv qo'llanmasi
5. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism. – T., 2010.
6. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
7. Икромов, Х. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБИЙВАТАНПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОИЙФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(9), 102-107.
8. Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych , 91 (1), 2022-2026.
9. Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi , (9-10-1), 259-260.
10. Yusupova, S. va Norinova, D. (2023). YOSH AVLOD TARBIYASIDA "TA'LIM" FANINI O'QITISH VA O'QITISH TUSHUNCHASINING O'RNI. Fan va innovatsiyalar , 2 (B6), 98-101.
11. Nizomtdinovna, Y. S. (2022). Farg'ona vodiysidagi tarixiy demografik jarayonlar. Miasto Przyszłości , 24 , 546-548.
12. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNI. Talqin va katta , 1 (24).
13. Poziljonov, J. (2024). TURKISTON JADIDLARI IJTIMOIFYALSAFIY TA'LIMOTINING KELIB CHIQISH OMILLARI. Sharh va tadqiqotlar , 2 (1 (23)).
14. Qosimbek o'g'li, PJ (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO 'NALTIRILGAN TARG 'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATIONNYE IDEI V MIRE , 20 (7), 39-42.
15. Poziljonov, J. (2023). Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyani isloh qilishdagi o'rni. TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY-USLUBIY JURNALI .
16. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va katta , 1 (1).

JINOYATDA ISHTIROKCHILIK TUSHUNCHASI, TURLARI VA SHAKLLARI

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Rejabboyeva Mashrabxon Islombek qizi

*ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari huquq
ta'lim yo'nalishi 3 – bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz jinoyat ishtirokchilarini va turlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Jinoyatning shakllari: oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushmadagi ishtirokchilarning jinoiy javobgarliklari berilgan.

Аннотация: В этой статье мы можем получить информацию об участниках и видах преступлений. Даны формы преступления: простое соучастие, сложное соучастие, организованная группа, уголовная ответственность участников преступного объединения.

Annotation: in this article, we will be able to get information about the participants and types of crimes. Forms of crime: simple participation, complex participation, organized group, criminal responsibilities of participants in a criminal association are given.

Kalit so'zlar: jinoyat ishtirokchilari, subyekt, qasd, ishtirokchilik shakllari, dalolatchi, yordamchi, tashkilotchi, bajaruvchi doirasida jazo tayinlash.

Ключевые слова: участники преступления, субъект, умышленность, формы соучастия, назначение наказания в рамках дознавателя, помощника, организатора, исполнителя.

Keywords: criminal participants, subject, intent, forms of participation, signifier, assistant, organizer, appointment of punishment within the framework of the acting.

Borliqda jinoyatlar ko'pincha bir nechta shaxs tomonidan sodir etilib, ular jinoyat sodir etish yoxud jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun o'z kuchlarini birlashtiradilar. Jinoyat kodeksining Umumiy qismida jinoiy faoliyatning alohida shakli sifatida ishtirokchilikning yuridik tabiati nazarda tutilgan bo'lib, ishtirokchilikda jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarlik doirasi va asoslari aniqlab berilgan. Jinoyat kodeksining 27-moddasiga binoan, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Ushbu tushunchadan kelib chiqqan holda, ishtirokchilik jinoiy faoliyatning alohida shakli bo'lib, u quyidagi majburiy subyektiv va obyektiv belgilar majmuiga ega deyish

mumkin. Obyektiv tomondan ishtirokchilikka quyidagi belgilar xos: ikki va undan ortiq shaxslarning mavjudligi; jinoiy qilmishda birgalikda ishtirok etish. Bir jinoyatni sodir etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishda ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi ishtirokchilikning miqdoriy ko'rsatkichini tashkil etadi. Biroq, mazkur dalilning o'zi ishtirokchilikni tavsiflash uchun yetarli emas. Zero, bir nechta shaxs bir makon va zamonda tasodifiy birlashib qolishi, biroq har biri boshqalaridan mustaqil ravishda, ya'ni alohida jinoyat sodir etishi mumkindir. Shuning uchun ishtirokchilik miqdoriy belgisidan tashqari, obyektiv tomondan bir nechta shaxs birgalikda harakat qilayotganliklarini anglab uyushganliklarini taqozo etadi. Jinoyatda birgalikda ishtirok etish jinoyat va jinoiy faoliyatning birgalashib, umumiy maqsadlarni ko'zlagan holda amalga oshirilishini anglatadi va quyidagilarni bildiradi: har bir ishtirokchining qilmishi boshqa ishtirokchilar qilmishini amalga oshirish uchun zaruriy shart hisoblanib, ular bir-birini to'ldiradi; barcha ishtirokchilarning qilmishlari bajaruvchi sodir etayotgan jinoyat bilan sababiy bog'lanishga ega bo'ladi; yuzaga kelgan jinoiy oqibat barcha ishtirokchilar uchun umumiy va yagona hisoblanadi. Subyektiv tomondan ishtirokchilik: qasddan sodir etilgan jinoyatning mavjudligi; o'zaro xabardorlik bilan ta'riflanadi. Birinchi subyektiv alomat – ishtirokchilik faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlarda bo'lishi hamda barcha ishtirokchilarning xatti-harakati qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida talqin etilishidan iborat. Ishtirokchilikda subyektiv tomonning o'ziga xos xususiyati jinoyatda yokijinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun tashkil topgan jinoiy guruhda ishtirok etayotgan har bir shaxsning boshqa ishtirokchilarning jinoiy harakatlaridan xabardorligi bilan tavsiflanadi. Demak, ishtirokchilikda subyektiv tomonning mavjud bo'lishi uchun ishtirokchilarda umumiy qasd mavjud bo'lishi kerak. Ishtirokchilik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarda bo'lmaydi. Shuningdek, shaxs jinoyat sodir etishda qasddan boshqa shaxslarni yo'ldan urish orqali ulardan foydalangan yoki Jinoyat kodeksiga binoan, jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan shaxslardan foydalanib qisman sodir etilgan jinoyatlar ham bundan istisnodir.

Jinoyat qonunida 28 –moddasida to'rt turdagi jinoyat ishtirokchilari farqlanadi: bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi. Subyektiv tomondan bajaruvchining qilmishlari doimo qasddan sodir etilgan hisoblanadi. «Bajaruvchi» tushunchasi faqat ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo'llaniladi. Basharti, jinoyatning obyektiv tomonini bir nechta shaxs birgalikda bajarsa, unda ular hamkor bajaruvchilar hisoblanadilar. Shaxs muayyan turdagi jinoyatni sodir etishda ishtirokchi sifatida, agar u mazkur jinoyat tarkibi uchun zarur bo'lgan subyekt alomatlariga ega bo'lgandagina tan olinadi. Shuningdek, bajaruvchilar qatoriga o'zlari muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini bevosita bajarmagan, ammo boshqa shaxslar yoki boshqa vositalardan foydalangan shaxslar ham kiradi. Jinoyat huquqi nazariyasida mazkur

holat qisman jinoyat sodir etish deb ataladi. Bajaruvchining xatti-harakati u bajargan muayyan jinoyatdagi obyektiv tomonni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi bilan kvalifikasiya qilinadi.

Mazkur yondashuvga sud- tergov amaliyotida ham amal qiladi. Shu bilan birga, jinoyatlarni kvalifikasiya qilishning umumiy nazariyasi talablariga binoan, sodir etilgan jinoyatga huquqiy baho berishda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasi bilan birga 28-moddaning 2-qismini ham qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bajaruvchi va birga bajaruvchining qilmishini bunday kvalifikasiya qilish mazkur shaxslarni ishtirokchilik uchun jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi va ishtirokchilik faktini tasdiqlaydi, bu esa sud statistikasida o'z aksini topishi mumkin. Bu, o'z navbatida, uyushgan guruh va jinoiy uyushma shaklidagi jinoyatchilik haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, profilaktik va boshqa ehtiyot choralarini ko'rish imkonini beradi. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rishga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi. Tashkilotchi sifatida jinoiy qilmishda quyidagi vazifalarni bajargan shaxslar tan olinadi: 1) jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rishda rahbarlik qilgan; 2) jinoyatni sodir etishga rahbarlik qilgan. Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rishda ishtirok etish ishtirokchilarni topish, jinoiy tajovuz obyektini aniqlash, jinoyat sodir etish rejasini ishlab chiqish va shunga o'xshash bevosita jinoyat sodir etishning tayyorlov bosqichini o'z ichiga olgan boshqa xatti-harakatlarda o'z aksini topadi. Jinoyat sodir etishda rahbarlik qilish bajaruvchilar va hamkor bajaruvchilar kuchini bevosita jinoiy qilmishni amalga oshirishga yo'naltirish bo'yicha faoliyatni bildiradi. Shaxsni tashkilotchi deb topish uchun, u yuqorida aytib o'tilgan barcha faoliyat turlarini bajarishi shart emas, aksincha, shaxs tomonidan jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida yoki bevosita jinoyatni sodir etish vaqtida boshqa ishtirokchilar kuchini birlash- tirganligini aniqlashning o'zi kifoya qiladi. Jinoiy faoliyatni tashkil etish shaxs tomonidan bir nechta shaxsni uyushgan jinoiy guruhga, guruhlarni esa jinoiy uyushmaga birlashtirishda o'z aksini topadi. Jinoiy uyushma tashkil etishning ijtimoiy xavflilik darajasi o'ta yuqori bo'lganligi sababli, qonun chiqaruvchi mazkur jinoyat uchun Jinoyat kodeksi Maxsus qismining alohida moddasida javobgarlikni nazarda tutadi. Subyektiv tomondan tashkilotchi har doim to'g'ri qasd bilan harakat qiladi. Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi. Dalolatchilik boshqa shaxsni jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyatda ishtirok etishga undashda o'z aksini topadi. Undash dalolatchining boshqa shaxslarda jinoyat sodir etishda ishtirok etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish ishtiyoqini shakllantirishga qaratilgan faol va tashabbuskor xatti-harakatidan iborat. Undash harakati ko'rinishidan iborat bo'lgan ishontirish va majburlash, uning alohida shakllari sifatida usullar harakatlar majmui bo'lib, dalolatchi ularni qo'llagan holda shaxsni jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etishdan iborat

niyatini amalga oshirishga harakat qiladi yoxud amalga oshiradi. Ishontirish orqali amalga oshiriladigan undash taklif, iltimos, maslahat, pand -nasihat, qiziqtirish, mazax qilish, maqto'v, mukofot va'da qilish yoki pora berish va boshqalar yordamida boshqa shaxsda jinoyatni sodir etishda ishtirok etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishga xohish-istakni yuzaga keltirish maqsadida ruhiy ta'sir o'tkazishdan iborat.

Jinoyat sodir etilishiga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan ko'maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga hamda bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergan shaxs yordamchi deb topiladi. Obyektiv tomondan yordam ko'rsatish intellektual aqliy va jismoniy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Intellektual yordam ko'rsatish quyidagi faol harakatlar bilan ta'riflanadi: maslahatlar, ko'rsatmalar berish, jinoyatchi, jinoyat sodir etish quroli, jinoyat izlari va vositalari yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga yoxud bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da berish va hokazo. Maslahat va ko'rsatma shaklidagi intellektual yordam ko'rsatish ishontirish yordamida amalga oshiriladigan dalolatchilikdan farqlanadi. Chunonchi, bajaruvchida jinoyatni sodir qilish yoki jinoiy faoliyatda ishtirok etishga qat'iy qaror va xohish -istak yuzaga kelgan bo'lib, maslahat va ko'rsatmalar mazkur qarorni mustahkamlash yoxud jinoyatni sodir etish yoki yashirishga yordam beradi. Qonunda sanab o'tilgan qilmishlarni amalga oshirish yoxud jinoiy yo'l bilan buyumlarni olish yoki yashirishga avvaldan va'da berish shaklidagi intellektual yordam ko'rsatish jinoyat sodir etishdan avval yoki uni sodir etish vaqtida amalga oshiriladi. Ishtirokchilikka ma'lum shakl beradigan belgilar, uning obyektiv va subyektiv tomonlarini ta'riflagani sababli ishtirokchilik shakllari asosida obyektiv va subyektiv mezonlar aniqlanadi. Obyektiv mezon harakatlarning umumiylik belgisi bo'lib, ishtirokchilar orasidagi o'zaro aloqadorlikni aks ettiradi. Ishtirokchilikning turlari bilan bir qatorda, uning alohida shakllari ham mavjud. Jinoyatdagi ishtirokchilik shakllari sifatida:

- ❖ oddiy ishtirokchilik;
- ❖ murakkab ishtirokchilik;
- ❖ Uyushgan guruh;
- ❖ jinoiy uyushma tan olinadi.

Oddiy ishtirokchilik ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi bilan ta'riflanadi. Ishtirokchilikning mazkur turini boshqa shakllariga nisbatan ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati pastroq deb hisoblash mumkin. Zero, ishtirokchilar orasidagi subyektiv bog'liqlik kam bo'lib, boshqa shaxsning jinoyat sodir etishda qatnashishi haqida bilishi bilan chegaralanadi. Subyektiv bog'liqlik jinoiy maqsadni amalga oshirish vaqtida yoxud jinoyatni amalga

oshirish jarayonida, ya'ni ishtirokchilarning xatti-harakatlari obyektiv ravishda birgalikda amalga oshirayotgan jinoiy qilmishining tarkibiy qismi bo'lgan vaqtdan boshlab yuzaga keladi. Ishtirokchilikning oddiy shakli jinoyatni ijro etishdagi hamkorlikda namoyon bo'ladi. Bunda vazifalar qat'iy belgilanmagan bo'lib, har bir ishtirokchi muayyan tarkibli jinoyatning obyektiv tomonini to'liq yoki qisman amalga oshiradi. Shu bilan birga, oddiy ishtirokchilikda ham vazifalarni taqsimlash imkoniyati mavjud. Biroq, bu kabi taqsimlash bevosita jinoyat sodir etish jarayonida yuz beradi. Mazkur shakldagi ishtirokchilikning jinoyat huquqiga oid ahamiyati ko'p miqdordagi ijtimoiy xavflilik, muayyan jinoyat sodir etishda bir nechta shaxsning birlashishi hamda shu turdagi jinoyatning bir shaxs tomonidan sodir etilishiga qaraganda ortishi bilan bog'liq. Shu bois qonun chiqaruvchi mazkur shart-sharoitni hisobga olgan holda jinoyatning «bir guruh shaxslar» tomonidan sodir etilishi jinoiy javobgarlikni og'irlash- tiruvchi holat ekanligini nazarda tutadi va bu alohida turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgi sifatida baholanadi. Murakkab ishtirokchilik ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishida namoyon bo'ladi. Ishtirokchilikning mazkur turi oddiy ishtirokchilikdan ishtirok- chilarning birgalikda amalga oshirayotgan faoliyatida jinoyat tarkibidagi obyektiv tomonlarning belgilarini bajarishdan avval o'zaro til biriktirishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, kelishuv jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganida amalga oshiriladi. Uyushgan guruh deb, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishiga aytiladi. Ushbu ta'rif asosida quyidagi belgilarni ajratish kerak bo'lib, ular ishtirokchilikning umumiy belgilari bilan mujassamlashganda jinoiy guruhni uyushgan deb ta'riflash uchun huquqiy asos bo'ladi: 1) oldindan til biriktirish, 2) birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashish; 3) uyushganlikdir. Basharti jinoiy faoliyatni birgalikda amalga oshirish uchun oldindan birlashgan shaxslar guruh tomonidan amalga oshirilayotgan hamma turdagi jinoiy harakatlarda bevosita ishtirokchilar sifatida qatnashsalar, uyushgan guruh o'zaro ishtirokchilik asosida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, bunday guruhlarda ichki tizim, ya'ni guruh a'zolari orasida vazifalar va amallarning taqsimoti mavjud bo'ladi.

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi. Jinoiy uyushmaning asosiy belgisi umumiy jinoiy faoliyatni amalga oshiradigan guruhlar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi bo'lib, u aynan shu belgisiga ko'ra uyushgan jinoiy guruhdan farqlanadi. Ya'ni ushbu guruhda, birinchi navbatda, vazifalar (rollar) uning a'zolari o'rtasida taqsimlanadi. Bunday jinoiy tashkilotlarni, agar ularda bir yoki bir nechta yetakchilar, ya'ni jinoyat olamining «obro'dorlari» yagona tashkilotchilikda faoliyat ko'rsatsa,

jinoiy uyushma deb tan olish mumkin. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki sodir etilganligi haqidagi ma'lumot to'liq va o'z vaqtida tegishli joylarga xabar berilishi zarur. Ma'lumotning to'liqligi shuni bildiradiki, shaxs jinoyat haqida o'ziga ma'lum bo'lgan barcha dalillar to'g'risida vakolatli organlarga xabar berishi shart. Agar shaxs o'z harakatsizligi bilan boshqa shaxslar sodir etayotgan jinoyatning oldini olmasligi jamiyat uchun xavfli ekanligini anglasa va buni istasa, subyektiv tomondan jinoyatga bunday yo'l qo'yish aybning qasd shakli bilan ta'riflanadi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, jinoyat sodir etgan shaxslarning ishtirokchiligi Jinoyat Kodeksining umumiy qismida ko'rsatib o'tilgan normalar asosida javobgarlikka tortiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyat huquqi . Umumiy qism . Oliy o'quv yurtlari uchun darslik «Yangi asr avlodi», 2010 , 277- bet.
2. <https://lex.uz/acts-111453> Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodesiga sharhalar. Umumiy qism /M Rustambayev . Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021.784 b.
4. O.A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova " Inson huquqlari" o'quv qo'llanmasi
5. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism. – T., 2010.
6. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
7. Икромов, Х. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБИЙВАТАНПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОЙЎФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(9), 102-107.
8. Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych , 91 (1), 2022-2026.
9. Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi , (9-10-1), 259-260.
Айни вақтда, Ўзбекистон Республикасида педагогик йўналишда олиб борилаётган илмий изланишлар диалектик ёндашувга асосланади. Педагогик ҳодиса, воқелик ва уларнинг қонуниятларини аниқлашга, бундай ёндашувли педагогик ҳодиса ва жараёнларнинг умумий алоқаси, уларнинг изчил, узлуксиз ривожланиши, ўқувчининг ёши, унинг физиологик ривожланиши унинг психологик, интеллектуал жиҳатдан такомиллаштириб боришини таъминлаши, қарама-қаршиликларнинг шахс камолотини таъминлашдаги ўрни ва роли, шунингдек, диалектика категорияларининг аҳамиятини эътироф этади.

Шу ўринда мисол тариқасида педагогик илмий тадқиқотларни амалга ошириш жараёни ҳақида айрим мулоҳазаларимизни баён қиламиз. Педагогик илмий тадқиқотларни мураккаб, муайян муддатни тақозо этувчи, изчиллик, узлуксизлик, тизимлилик ҳамда аниқ мақсад каби хусусиятларга эга бўлган жараён бўлиб, унинг самарали бўлиши учун бир қатор шартларга риоя этиш зарур. Улар қуйидагилардир:

- муаммонинг долзарблиги ва мавзунинг аниқ белгиланганлиги;
- илмий фаразларнинг тўғри шакллантирилганлиги;
- вазифаларнинг тадқиқот мақсади асосида тўғри белгиланганлиги;
- тадқиқот методлар тизимига нисбатан объектив ёндашув;
- тажриба-синов ишлари жараёнига жалб этилувчи респондентларнинг ёш, психологик ва шахсий хусусиятлари, шунингдек, шахс ривожланиши қонуниятларининг тўғри ҳисобга олинганлиги;
- тадқиқот натижаларини олдиндан ташхислаш ва унинг натижаларини тадбиқ қилиш;
- тадқиқот натижаларининг кафолатланганлиги ва жорийланганлиги.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель, ПҚ-2909-сон.
2. 2017 йил 30 сентябрь; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-3304-сонли қарори, 2017 йил 30 сентябрь.
3. Рахимов О.Д. “Таълим сифати – ҳаёт сифати” // Ўқув-услугий қўлланма. Қарши. 2015. - Б. 10.

4. Селезнева Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования. Изд. 4-е, стереотипное. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 95 с.
5. Сластенин, В.А., Исаев, И.Ф., Мищенко, А.И, Шиянов, Е.Н. Педагогика: Учеб. пособие для студ. пед. учебных заведений / Под ред. В.А. Сластенина. М.: Школа-Пресс, 1997. - 512 с.
6. Тилакова М.А. VIII-IX синф ўқувчиларида синфдан ташқари машғулотларда креатив қобилиятларни ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори дисс.. Чирчиқ. 2019. –Б. 190.
7. Тоштемирова С.А. Умумтаълим муассасаларида таълим кластерини жорий қилишнинг назарий асослари ва амалий жиҳатлари // Услубий қўлланма. –Т.: 2020. - 75 б.

SIFATLI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

*Dilfuza Islamova - p.f.n.dots.v.b.
Toshkent amaliy fanlar universiteti*

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi doirasida, davlat ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, ta'limdagi muammolarga innovatsion yechimlar taklif etish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarish bo'yicha sezilarli ishlar bajarildi. Endilikda ushbu dasturilamalning mantiqiy, izchil davomi hisoblangan Taraqqiyot strategiyasida jamiyat va davlat hayotida muhim bo'lgan qator masalalar kabi ta'lim, fan va innovatsiyalarga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Аннотация: В рамках Стратегии действий в Республике Узбекистан за последние годы проделана значительная работа по регулярному совершенствованию государственной системы образования, предложению инновационных решений образовательных проблем, обеспечению качественного образования и обучения, подготовке зрелых персонал. Сейчас в Стратегии развития, которая считается логичным и последовательным продолжением этой программы, большое внимание уделяется образованию, науке и инновациям, а также ряду вопросов, важных в жизни общества и государства.

Ключевые слова: Инновации, оценка, образование, наука, культура, стратегия, развитие, перспектива, молодежь, реформы.

Abstract: Within the framework of the Action Strategy in the Republic of Uzbekistan, significant work has been done in recent years to regularly improve the state education system, to offer innovative solutions to educational problems, to provide quality education and training, and to train mature personnel. done. Now, in the Development Strategy, which is considered a logical and consistent continuation of this program, great attention is paid to education, science and innovation, as well as a number of important issues in the life of society and the state.

Key words: Innovation, assessment, education, science, culture, strategy, development, perspective, youth, reforms.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, baholash, ta'lim, ilm-fan, madaniyat, strategiya, rivojlanish, istiqbol, yoshlar, islohotlar.

1. Kirish

Har bir davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada ilimli ekani, zamonaviy ko'nikmalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishi, innovatsion bilimlarni

rivojlantira olishi bilan bevosita bogʻliq. Shu bois, taʼlim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida eʼtibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Bugun taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, taʼlim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, Oʻzbekistonda taʼlim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablagʻlar yoʻnaltirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev oʻzining Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatimizning xalqaro baholashdagi ishtirokini kuchaytirishning ahamiyati xususida alohida aytib oʻtdi. Jumladan, mamlakatimiz boholashning jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga hamohang boʻlishi jadal rivojlantirishga, mamlakatda raqobat muhitini oʻstirib, baholash subyektlarini rivojlantirishga xizmat qilishi alohida taʼkidlandi va bu yoʻlda fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini maʼnaviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar hal etadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda har bir sohani takomillashtirish va rivojlantirish uchun turli xil usullar qoʻllaniladi, shuningdek, taʼlim sohasida turli usullar qoʻllaniladi. Shuning uchun barcha darslarida texnologiya vositasalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, har bir darslarda qoʻllaniladigan metodlarning xilma-xilligi oʻquvchining fanga boʻlgan qiziqishini oshiradi. Pedagogik texnologiya vositasi oʻziga xos jihati anʼanaviy taʼlimdan farqli oʻlaroq taʼlim texnologiyasi, oʻquvchilarining mustaqilligini va oʻquv faoliyatini taʼqiqlamasdan taʼlim faoliyatini tashkil etishda hamkorlik qilishni talab qiladi. Ularni oʻz faoliyatiga ongli ravishda yoʻnaltirish samarali tashkil etish orqali oʻquvchilarning fan asoslarini oʻrganishga boʻlgan qiziqishini oshirish, hech qanday faoliyatni buyruqbozlik bilan amalga oshirmaslik, individual ehtiyoj va manfaatlar imkoniyatlarini cheklamagan holda erkin tanlash huquqini berish hisoblanadi. Bunday darslarni oʻtkazishda oʻquvchining ilm-fandan toʻliq bilim olishi, odobxloqli boʻlishi, kasb tanlash isteʼdodini shakllantirish, xalqimizga xos ezgu fazilatlarni egallashi uchun avvalo oʻqituvchi ijodiy mehnat qilishi kerak. Oʻqituvchi oʻquvchiga hushyor va eʼtiborli boʻlishi, uning qiziqish va qobiliyatini hisobga olishi, unga murabbiydek munosabatda boʻlishi kerak. Shundan keyingina darslarda qoʻllaniladigan didaktik oʻyin texnologiyalari oʻquvchilarning bilim faolligini, darslik va qoʻshimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlashlarini faollashtiradi, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantiradi, ularni ongli ravishda kasbga yoʻnaltiradi, maqsadni toʻgʻri olib boradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi. Ko'lna moziy guvohki, dunyoni doimo g'oyalar boshqargan. G'oyalar esa mudom bilim, tafakkur va aql kuchiga suyangan. Bugungi rivojlanish shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g'oyalar uchun kurash ham birmuncha murakkabliklar hamda o'tkir fasohatni talab qilishi tayin. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi Ammo insoniyat o'z tabiatiga ko'ra, baribir bir ezgu g'oyaga muhtojlik sezib yashaydi. Shu ma'noda, bugun yangi O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla — "Uchinchi Renessans" tagmatnida ana shunday ulug' bir ezgulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin. Zero, renessans — uyg'onish demakdir. Ya'ni ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash va shu asnoda asrlarga teng yillarni lahzalarda bosib o'tmoq demakdir. Bu jarayonni boshlab berish, uning poydevorini qo'yish esa kamdan-kam insonlarga nasib etgan. Buning uchun, avvalo, Alloh bergan inoyat, so'ngra millatni sevish, samimiy insonparvarlik tuyg'usi mujassam bo'lmog'i darkor insonda. Va shu o'rinda o'tmishda yurtimiz zaminida bo'lib otgan Ilk Uyg'onish „Birinchi“ va „Ikkinchi“ uyg'onish davrlarini ham eslab o'tmaslikning also iloji yo'q.

4. Tahlil va natijalar. O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham sobit qadam - lik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko'lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo'lgan e'tibor kuchayib ketdi. Shu tufayli ta'lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, o'quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg'armalarida muayyan ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. O'quv faoliyati — bu keng ma'noda inson faoliyatining muayyan maqsadlar yo'nalishida namoyon boshidir. Bu faoliyat faqat insoniyat jamiyatida amalga oshirilishi sababli, u nafaqat har bir insonning, balki butun jamiyatning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoning boy madaniy merosiga ega davlati va aholi o'sib borayotgan yosh O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining poydevori sifatida ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratgan. So'nggi yillarda hukumat tomonidan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv dasturlari standartlarini takomillashtirish va o'qitish metodologiyasida innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan ulkan islohotlar amalga oshirildi. Biroq, O'zbekiston o'z ta'lim tizimini xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarga moslashtirishga intilayotgani sari tashqi baholashlarning roli tobora ortib bormoqda. Ushbu maqola O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro baholash landshaftiga integratsiyalash istiqbollarini o'rganishga qaratilgan. U xalqaro

baholashlarida ishtirok etishning potentsial afzalliklarini, jumladan, talabalar faoliyatini jahon standartlari bilan taqqoslash, yaxshilanishi kerak bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash va dalillarga asoslangan siyosat qarorlarini xabardor qilish imkoniyatini o'rganadi. Bundan tashqari, xalqaro baholash testlari, savollari qabul qilish bilan bog'liq muammolar va mulohazalar, jumladan, madaniy nuanslar, logistika cheklovlari va mahalliy ta'lim ustuvorliklari va qadriyatlariga muvofiqlikni ta'minlash lozimdir.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ta'lim tizimi va ilm fan sohalarida yangi va yuqori natijalarga erishish boshqa sohalar uchun rivojlanishning asosiy eshiklarini ochib beradi. Chunki bugungi kunda sifatli kadrlarni tayyorlash masalasi davlat ahamiyatidagi masalalardan biriga aylangan. Bu nafaqat mamalakatimizda balki jahon miqyosida ham sifatli va yetuk kadrlarning yetishmasligi balki ularni tayyorlash uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni kengaytirish ustuvor vazifa ekanligini anglashimiz zarur. Albatta bu ishlarni ilmni endi tanigan, ilmga muhabbat qo'yadigan yoshda – ya'ni hali go'dakligidayoq amalga oshirmoqchlik zarur.

Baholash savollari, testlarining O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi ta'lim tizimini isloh qilish, o'quvchilar natijalarini yaxshilash va global raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim va'da beradi. Xalqaro baholashlarida ishtirok etish orqali O'zbekiston o'z ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlari haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lib, siyosatchilarga dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va resurslarni yanada samaraliroq taqsimlash imkonini beradi. Bundan tashqari, xalqaro baholash bilan hamkorlik boshqa davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi, ilg'or tajriba almashishga yordam beradi va O'zbekistonning jahon ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 21 aprel. Manba: [http: press-servis.uz](http://press-servis.uz).4.
2. Literacy in the Information Age. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2.
3. Галиская, И. А. Понятие «духовно-нравственное воспитание» в современной педагогической теории и практике [Текст] / И. А. Галиская, И. В. Метлик // Педагогика. – 2009.– №10.– С. 36-45.
4. Словар терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности [Текст] / под ред. А. В. Федорова. – Таганрог : Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та. – 2010. – 63 с.
5. Эволюция медиа. [Электронный ресурс]: Режим доступа: <http://www.journ.msu.ru/about/news/27950/> (Дата обращения: 21.03.2022 г.)

YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIMIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Nigora Mirzayeva - F.f.n. dots.v.b.

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi oliy o‘quv yurtlari o‘quv jarayonini tashkillashtirishda ilmiy va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan hamda ularning uzviyligidan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan. Ishda bugungi globalashuv jarayonida mamlakatimiz oliy ta’lim dargohlarida innovatsion ta’lim texnologiyalarining ilmiy va o‘quv jarayoniga bog‘liq holda tashkillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda oliy ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, innovatsiya, texnologiya, ilmiy, uzviylik, nazariyuslubiy, sifat, tavsiya.

Аннотация: В данной дипломной работе высшие учебные заведения посвящены повышению качества образования за счет использования научных и инновационных образовательных технологий и их интеграции в организацию образовательного процесса. В современных условиях глобализации даны теоретические и методологические основы организации инновационных образовательных технологий в высших учебных заведениях нашей страны в зависимости от научно-образовательного процесса, а также рекомендации по повышению качества высшего образования.

Ключевые слова: образование, инновация, технология, научное, органическое, теоретическое, качество, рекомендация.

Abstract: In this thesis, higher education institutions are dedicated to improving the quality of education through the use of scientific and innovative educational technologies and their integration in the organization of the educational process. In today's process of globalization, the theoretical and methodological foundations of the organization of innovative educational technologies in the higher education institutions of our country, depending on the scientific and educational process, as well as recommendations for improving the quality of higher education are given.

Key words: education, innovation, technology, scientific, organic, theoretical, quality, recommendation.

1. Kirish

So‘nggi yillarda yurtimizda ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodga munosib ta’lim-tarbiya berish yo‘lidagi izlanishlar o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimiz

prezidenti boshchiligida ta'lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish, uni rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi darajasiga ko'tarish, maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish yo'lida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xabaringiz bor, bugungi kunda O'zbekiston bir qator xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib kelmoqda. 2021 yilda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqoti, 2022 yilda 15 yoshdagi o'quvchilarning matematika, o'qish, tabiiy fanlar va kreativ fikrlash bo'yicha maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini baholovchi PISA xalqaro tadqiqoti xalqaro talablar asosida tashkil etildi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, ushbu tadqiqotlar ishtirokchi mamlakatlarning milliy baholash tizimlaridan tubdan farq qiladi. Ya'ni turli mamlakatlarda milliy ta'lim tizimida milliy jihatlar, geografik joylashuv va boshqa omillarni inobatga olgan holda o'qitish va baholashda turli yondashuvlardan foydalaniladi. Tabiiyki, xalqaro baholash natijalarini to'g'ridan to'g'ri milliy baholashlar bilan solishtirish - bu turli o'lchovlarni bir xil holatga keltirishga qiyoslash, yoinki taqqoslashlar asosida xulosalar chiqarish noo'rin hisoblanadi.

O'quvchilarni maktab ta'limida, kundalik yoki ma'lum davriylikda (choraklik, yillik) baholash jarayonida muallim tomonidan turli yondashuvlar asosida baholash dunyo tajribasi hisoblanadi. O'quvchining fanni o'zlashtirishi, u duch kelayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etishi, kelgusida o'qiyotgan faniga qiziqishini orttirish maqsadida muallimlar tomonidan ba'zan «motivatsiya» beruvchi o'quvchining mavjud bilimiga nisbatan yuqoriroq baholash, kelgusida ushbu o'quvchining yana-da kuchliroq intilishiga imkon yaratadi.

Xalqaro baholash dasturlarida esa, barcha ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilari bir xil mezonlar asosida baholanadi. Shu o'rinda yuqoridagi fikrimizning davomi sifatida aytish lozimki, xalqaro baholash dasturlaridagi tajribalar milliy darajadagi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda dunyo tajribasi asosida o'qitish va baholash tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Singapur, Koreya, Xitoy, Finlyandiya va boshqa xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar, ushbu dasturlarda ishtirok etib, milliy ta'lim tizimi, o'quvchilar bilimini baholash, ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish borasida ko'plab islohotlarni amalga oshirgan, bugungi kunda boshqa mamlakatlar e'tiborini qozongan mamlakatlar hisoblanadi.

YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade: “O‘zbekiston bugun tarix chorrahasida, ta’lim rivojida yangi marralarni zabt etishga intilmoqda. O‘zbekiston hukumati xalqning barqaror rivojlanishi va farovonligi uchun sifatli ta’lim muhimligini anglagan holda, sohada islohotlar amalga oshirish uchun katta sa’y-harakatlarni amalga oshirdi. Bu islohotlar xalqaro tashkilotlarning mustahkam hamkorlik va ko‘magini talab qiladi va biz bu islohotlarni amalga oshirishda ishtirok etayotganimizdan mamnunmiz.”- deb ta’kidlab o‘tdi.

Xalqaro tadqiqotlar har 3-5 yillik davriylikda dunyo mamlakatlarida bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. 2019 yil noyabr oyida Inson kapitali indeksini aniqlashga doir tadqiqot, 2021 yilda Ta’limdagi uzilishlarni baholashga oid REDS hamda PIRLS tadqiqotlari, 2022 yilda PISA, 2023 yilda esa TIMSS tadqiqoti tashkil etildi. Ushbu izlanishlarda o‘quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy va o‘qish savodxonligi, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashga qaratilgan test topshiriqlari, shuningdek, ta’lim olishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar o‘tkazildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ustuvor maqsadlardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, jarayonlar Vestat, Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assosiatsiyasi tashkilotlarining vakillari tomonidan kuzatib borildi.

Uzoq muddatli sa’y-harakatlar natijasida O‘zbekistonning ta’limga oid natijalari tarixda ilk marotaba xalqaro solishtirma tadqiqotlarning hisobotlarida namoyon bo‘ldi. REDS va “Ta’limdagi yo‘qotishlarni baholash” tadqiqotlari muayyan vaqt davomidagi uzilishlarning ta’lim tizimiga ta’sirini tahlil qilish imkonini bergan bo‘lsa, PIRLS xalqaro tadqiqotining natijalari boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatlari haqida chaqiriqlarni keltirib chiqardi.

Natijalarga nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekiston, Jahon bankining Inson kapitali indeksida 0.62 indeks ko‘rsatkichini qayd etdi. Bu esa, keyinchalik davriy ravishda inson kapitali rivojlanishidagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, xalqaro solishtirma tahlillar qilish imkonini beradi.

“Jahon banki O‘zbekistondagi ta’lim sohasidagi islohotlarini qo‘llab-quvvatlashdan mamnun. Bank ko‘magida mamlakat so‘nggi yillarda birinchi marta xalqaro baholash (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS)da qatnashib kelmoqda”, - dedi Jahon bankining Markaziy Osiyodagi Inson taraqqiyoti dasturi rahbari Tazin Fasih xonim. “Bank maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligi bilan doimiy hamkorlikka sodiq qoladi. Biz hukumatga PIRLS va PISA natijalariga asoslangan harakatlar rejalarini ishlab chiqishda va ushbu xalqaro baholashlarning keyingi bosqichida ishtirok etishni davom ettirishida yordam berishga tayyormiz. Ushbu baholashlar bizga ta’lim

siyosati samaradorligini baholash hamda o'quv jarayonlari va o'quvchilarning yutuqlarini yaxshilashga qaratilgan ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi."

Ushbu tadbirlar O'zbekistonda ta'limdagi islohotlar haqida xalqaro hamjamiyatning xabardorligini oshirish va mamlakatning dunyo miqyosda nufuzini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi.

Shunday ekan, O'zbekistondagi ta'lim muhiti, o'quvchilarning fanlardan yutuqlarini baholashda xalqaro baholash dasturlari mezonlari bilan o'lchash emas balki, orttirilgan tajribalar asosida milliy baholash tizimini takomillashtirishga ko'proq e'tibor qaratishimiz muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 11.05.2022 PF-134 son.
2. Zaripova M.D. Scientific and theoretical bases for assessing the quality of staff training in the system of higher education //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 48-59.
3. Zaripova M.D. Oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 14. – C. 772-780.
4. Yuldoshev Y., Boqiev R., Zokirova F. Informatika o'qitish metodikasi. O'rta maxsys, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun qo'llanma. – T.: Talqin, 2005.
5. O.Xoshimov. Kompyuterli va rakamli texnologiyalari. T-2009 "YAngi asr avlodi"
6. <https://lex.uz/docs/60086632>.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMI TAMOYILLARI VA QONUNIYATLARI

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi 122- guruh talabasi

Ergasheva Maxsuma Qurbonmurod qizi

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi 122- guruh talabasi

To‘ychiyeva Muxlisa Majid qizi

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta’lim tizimi har bir mamlakatning ta’lim siyosatining muhim qismidir. Bu tizim odamlarning ilk ta’lim tajribasini belgilab beradigan va ularning kelajakdagi bilim olish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy bosqichdir. Boshlang‘ich ta’lim tizimining asosiy tamoyillari va qonuniyatlari, shuningdek, uning maqsadlari, metodlari va o‘qitish jarayoni ko‘plab tadqiqotlar va amaliyotlar orqali o‘rganilgan. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimining tamoyillari va qonuniyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tamoyillar, qonuniyatlar, ta’lim, bilim, individual yondashuv, metodlar, tadqiqotlar, uzluksizlik.

Аннотация: Система начального образования является важной частью образовательной политики каждой страны. Эта система является ключевым этапом, определяющим первый образовательный опыт людей и влияющим на их будущие процессы обучения. Основные принципы и законы системы начального образования, а также ее цели, методы и процесс обучения изучались посредством многих исследований и практик. В данной статье представлена информация о принципах и законах системы начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, принципы, законы, образование, знания, индивидуальный подход, методы, исследование, преемственность.

Abstract: Primary education system is an important part of education policy of every country. This system is a key stage that defines people's first educational experience and influences their future learning processes. The main principles and laws of the primary education system, as well as its goals, methods and teaching process have been studied through many studies and practices. This article provides information about the principles and laws of the primary education system.

Key words: primary education, principles, laws, education, knowledge, individual approach, methods, research, continuity.

Boshlang‘ich ta’lim tizimining tamoyillari ta’lim jarayonining asosiy prinsiplarini belgilaydi. Bu tamoyillar ta’limning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarini

shakllantiradi. Ularning ichida insoniylik, faoliyat, individual yondashuv, davomiylik va amaliyotga asoslanganlik kabi tamoyillar mavjud. Insoniylik tamoyili ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu tamoyilga asosan, har bir o'quvchi o'ziga xos va o'ziga xos qobiliyatlari bilan ajralib turadi, shuning uchun o'qitish jarayoni har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Faoliyat tamoyili ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, o'quvchilar o'z bilimlarini faqatgina o'qituvchidan emas, balki o'z faoliyati orqali ham o'zlashtiradilar. Ta'lim jarayonida o'quvchilar muammolarni hal qilish, tajribalar o'tkazish va o'z fikrlarini ifoda etish orqali bilim oladilar. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Individual yondashuv tamoyili har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni ta'minlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda o'quv jarayonini tashkil etishlari zarur. O'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish, ularning o'z-o'zini anglashiga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z maqsadlariga erishishiga yordam beradi. Davomiylik tamoyili ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, boshlang'ich ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini davom ettirish zarur. O'quvchilar boshlang'ich ta'limda olingan bilimlarni keyingi ta'lim bosqichlarida qo'llay olishlari uchun ta'lim jarayoni uzluksiz bo'lishi kerak. Amaliyotga asoslanganlik tamoyili o'quvchilarning o'rganayotgan bilimlarini amalda qo'llashlarini ta'minlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, o'quvchilar o'rganayotgan nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rishlari, turli vaziyatlarda qo'llashlari va o'z tajribalarini oshirishlari kerak. Amaliyotga asoslangan ta'lim o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga va ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.[1]

Boshlang'ich ta'lim tizimining qonuniyatlari ta'lim jarayonining tabiiy qonuniyatlarini belgilaydi. Bu qonuniyatlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ularning ichida o'qitish jarayonining tabiiyligi, o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda o'qitish, o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va ta'limning ijtimoiy ahamiyati kabi qonuniyatlar mavjud. O'qitish jarayonining tabiiyligi qonuniyati ta'lim jarayonining tabiiy ravishda o'tishini ta'minlaydi. Bu qonuniyatga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarga bilimlarni berishda tabiiy usullar va vositalardan foydalanishlari kerak. O'quvchilar o'z tajribalariga asoslanib, o'rganayotgan materialni o'zlashtirishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishi zarur.[2]

O'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda o'qitish qonuniyati ta'lim jarayonini har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil

etishni nazarda tutadi. Bu qonuniyatga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishlari kerak. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z-o'zini anglashlariga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlariga va o'z maqsadlariga erishishlariga yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish qonuniyati ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashni nazarda tutadi. Bu qonuniyatga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilishlarini, hamkorlik qilishlarini va bir-birlaridan o'rganishlarini ta'minlashlari kerak. Ijtimoiy munosabatlar o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.[3]

Ta'limning ijtimoiy ahamiyati qonuniyati ta'lim jarayonining ijtimoiy kontekstini belgilaydi. Bu qonuniyatga ko'ra, ta'lim jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim tizimi, ayniqsa, jamiyatda o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni orqali o'quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki o'z shaxsiyatlarini shakllantiradilar va jamiyatning faol a'zolari bo'lib yetishadilar. Umuman olganda, boshlang'ich ta'lim tizimi tamoyillari va qonuniyatlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Bu tamoyillar va qonuniyatlar o'qituvchilarga o'quvchilar bilan samarali ishlash, ularning ehtiyojlarini inobatga olish va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'lim tizimi, shuningdek, kelajakda o'quvchilarning bilim olish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi va ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim tizimining tamoyillari va qonuniyatlarini chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bu jarayon, albatta, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir qator tadbirlarni talab etadi. Ta'lim jarayonida yangi metodlar va yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda yangiliklarni izlash va tadqiq qilish zarur. [4]

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim tizimi tamoyillari va qonuniyatlari ta'lim jarayonining asosiy poydevorini tashkil etadi. Bu tamoyillar va qonuniyatlar o'quvchilarning o'z-o'zini anglashlariga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishlariga va jamiyatda faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Ta'lim jarayonida ushbu tamoyillarni inobatga olish, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, M. (2020). Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. Toshkent: O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish markazi.
2. Qodirov, A. (2021). Ta'lim tizimidagi zamonaviy yondashuvlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
3. Isroilova, N. (2022). Boshlang'ich ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
4. Murodov, S. (2023). Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
5. Rahmonov, F. (2021). O'zbekistonning boshlang'ich ta'limi: muammolar va yechimlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
6. Tashkent, A. (2022). Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuvlar. Namangan: Namangan davlat universiteti.
7. Karimova, D. (2023). Pedagogik innovatsiyalar va boshlang'ich ta'lim. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ГУЛИСТОН ТУМАНИ МАКТАБЛАРИНИНГ КАСАЛЛАНИШ ТАҲЛИЛИ

Нодирбек Исломбекович Юсуфов

Хайитов Жавоҳир Баҳодирович

Салохиддинов Фахриддин Бахриддинович

Тошкент тиббиёт академияси

Ушбу тадиқот давомида назорат остига Сирдарё вилоятининг Гулистон туманидаги 2, 15 ва 30-сонли умумтаълим мактабларида таълим олаётган 2021 йилда 1830 нафар, 2022 йилда 1836 нафар ва 2023 йилда 1926 нафар мактаб ўқувчилари олиниб, уларнинг 3 йиллик тиббий кўрик натижалари Халқаро касалликлар таснифи ХКТ-10 (1993) асосида таҳлил қилинди. Тиббий кўрик жараёни сифатли ўтказилишини таъминлаш учун педиатр, гематолог, эндокринолог, невропатолог, отоларинголог, офтальмолог ва хирург-ортопед каби тор мутахассислар жалб этилган. 2021 йилда мактаб ўқувчилари орасида энг кўп тарқалган касалликларига (IV синф), тиш кариеси ва эндемик буқоқ, (III) темир танқислик камқонлик касаллиги, (VII) нафас олиш тизими ва кўриш тизими аллергияси ва миопия (XIII) тана ҳолатининг издан чиқиши эгаллаган бўлса, 2022 йилда IV; XII; III; VII ва XIII синф касалликлари эгалланган бўлса, 2023 йилда эса (IV, III, XII, XIII ва VII синф касалликлари эгаллаганлиги кўриниб турибди. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда мактаб ичи омилларини гигиеник талабларга мослаштириш ва ўқувчилар саломатлик ҳолатини даврий назорат қилиш талаб қилинади.

Калит сўзлар. мактаб ўқувчилари, мактаб ичи омиллари, касалланиш ҳолати ва олдини олиш чора- тадбирлари.

Муаммонинг долзарблиги. Замонавий мактабларнинг асосий вазифларидан бири давлатимиз келажаги учун юқори малакали мутахассислар билан таъминлаш базасини яратишдан иборат бўлиб, шу билан биргаликда ўқувчилар организмнинг гормоник ривожланиши, жисмоний ва ақлий ривожланишнинг мутоносиблиги ва юқори ишлаш қобилиятини таъминлашдан иборат.

Замонавий мактаб ўсиб келаётган соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш ва таълим бериш, мактаб ичи омилларини таъсирини камайтириш, таълимнинг турли компонентларини тўғри ташкиллаштириш, асосий компонентларнинг ўқувчилар саломатлик ҳолатини издан чиқишини олдини олиш ва сурункали касалликларни камайтиришдан иборат [1;2;6; 9;10].

Мактаб ўқувчиларининг кун тартибининг издан чиқиши нафақат ўқув жараёнини издан чиқиши, балким, улар орасида касалланиш даражасини ортишига шароит яратганлиги қатор муаллифларнинг ишларида қайт қилинган [1; 4;5;8;9;10].

Тадқиқотнинг мақсади мактаб ичи омилларининг ўсувчи организмга таъсири ва унинг натижасида ривожланадиган касалланиш даражасини гигиеник таҳлил қилишдан иборат.

Тадқиқотнинг материал ва усуллари. Тадқиқот ишлари Сирдарё вилоятининг Гулистон туманидаги 2, 15 ва 30-сонли умумтаълим мактабларида амалга оширилди.

Болаларнинг саломатлик ҳолатини гуруҳлари ажратишда С.М.Громбах, В.Р.Кучма ва Г.И.Шайхова томонидан тавсия этилган 1, 2, 3, 4 ва 5 гуруҳлари асосида баҳоланди.

Мактаб ўқувчилари умумий сони 2021 йилда 2 мактабда 675 нафарни, 15 мактабда 835 нафарни, 30 мактабда 320 нафарни; умумий мактаб ўқувчилари сони 1830 нафарни ташкил қилган бўлса, 2022 йилда 2 мактабда 681нафарни, 15 мактабда (840 нафарни) 30 (315 нафарни) ни ташкил қилиб умумий ўқувчилар сони 1836 нафарни ташкил қилган. 2023 йилда эса 2 мактабда 695 нафарни, 15 мактабда (846 нафарни) 30 (385 нафар) умумий мактаб ўқувчиларининг сони ушбу ўқув йилида эса 1926 нафарни ташкил қилди.

Мактаб ўқувчиларнинг профилактик тиббий кўрик натижалари ҳамда мурожаатлар бўйича касалликлар таҳлили Халқаро касалликлар таснифи ХКТ-10 (1993) асосида амалга оширилган.

Тиббий кўрик жараёни сифатли ўтказилишини таъминлаш учун педиатр, гематолог, эндокринолог, невропатолог, отоларинголог, офтальмолог ва хирург-ортопед каби тор мутахассислар жалб этилган.

Мактаб ўқувчилари саломатлик ҳолатини баҳолаш (026-ҳисоб шакли) картаси ҳамда ўқувчилар ривожланишининг картаси (112-ҳисоб шакли) натижалари асосида баҳоланган.

Илмий натижалар сифати ва аниқлигини таъминлаш учун ўртача уч ўқув йилидаги касалланишлар (ўқув йили боши (сентябр–октябрь) ва охири (май–июн)), профилактик кўриклар маълумотлари асосида баҳоланган ва ҳар бир ўқувчининг саломатлик гуруҳлари аниқланган ва олинган натижалар уларнинг шахсий ривожланиш карталарида қайт қилинган.

Олинган натижаларнинг таҳлили белгиланган статистик таҳлиллар асосида амалга оширилди.

Олинган натижаларнинг таҳлили. Мактаб ичи омилларининг мактаб ўқувчиларнинг саломатлик ҳолати ва ишлаш қобилиятига таъсирини гигиеник

таҳлил қилиш учун тиббий кўрик натижаларининг маълумотлари асосида амалга оширилди.

Олинган натижаларнинг таҳлили қилиш учун мактаб ўқувчиларнинг саломатлик ҳолатини баҳолаш ва мактабдаги касалланиш ҳолатини таҳлилин аналга оширишда биз томондан 2021 ва 2023 йиллар давомида амалга оширилган тиббий кўриклари натижалари асосида амалга оширилди.

Мактаб ўқувчиларнинг тиббий кўрик натижалари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Сирдарё вилояти Гулистон туман мактабларида йиллар кесимида тиббий кўрикда аниқланган касалликлар натижалари (2021 йил натижалар асосида)

№	Касалликларнинг таснифи	2	15
IV	Эндокрин тизими касалликлари, овқатланиш тартибсизлиги ва моддалар алмашинуви бузилишлари	223,63±19,36	221,92±18,35
III	Қон ва қон яратувчи органлар касалликлари ва иммун механизмни жалб этувчи айрим бузилишлар	122,74±12,56	119,24±12,11
VII	Кўз ва унинг кўшимча аппарати касалликлари	101,03±12,47	86,68±10,63
X	Нафас олиш аъзолари касалликлари	95,96±9,77	94,73±8,26
XIII	Суяк-мушак тизими ва қўшувчи тўқима касалликлари	93,9±11,47	88,07±11,03
I	Баъзи инфекцион ва паразитар касалликлар	59,93±9,82	51,12±8,8
XII	Тери ва тери ости тўқима касалликлари	49,66±8,99	47,92±8,54
VI	Нерв тизими касалликлари	37,67±7,88	38,34±7,67
XI	Овқат ҳазм қилиш касалликлари	23,7±6,81	21,18±4,2
XIV	Сийдик таносил тизими касалликлари	10,27±4,17	7,99±3,56
IX	Қон айланиш тизими касалликлари	5,14±2,96	3,19±2,26
VIII	Қулоқ ва сўрғичсимон ўсма касалликлари	5,14±2,96	1,6±1,6
XVII	Туғма аномалиялари, деформациялар ва хромосом бузилишлар	3,27±0,9	3,11±1,16
	жами	832,04	785,09

1-жадвалдан кўриниб турибдики, умумий текширилган мактаб ўқувчилари орасида энг кўп тарқалганлар нисбатини эндокрин тизими касалликлари, овқатланиш тартибсизлиги ва моддалар алмашинуви бузилишлари (IV) касалликларига гуруҳига киритилган бўлиб, ушбу гуруҳдаги тиш кариеси

назорат остига олинган 1-сон мактаб ўқувчилари орасида $223,63 \pm 19,36$ ни ташкил қилган бўлса, шаҳардаги 17-мактаб ўқувчилари орасида эса $221,92 \pm 18,35$ ни ташкил қилган. Кейинги навбатдаги энг кўп тарқалган касалликларни қон ва қон яратувчи органлар касалликлари ва иммун механизмни жалб этувчи айрим бузилишлар (III) $122,74 \pm 12,56$ ва $119,24 \pm 12,11$ ни ташкил қилган бўлса, кейинги ўрнинини кўз ва унинг қўшимча аппарати касалликлари (VII) $101,03 \pm 12,47$ ва $86,68 \pm 10,63$ ни ташкил қилган. Назорат остига олинган мактаб ўқувчилар орасида тўртинчи ўринини нафас олиш аъзолари касалликларининг тарқалганлик даражаси (X) $95,96 \pm 9,77$ ни ташкил бўлса, 17 мактабда эса $94,73 \pm 8,26$ ни ташкил қилган бўлса ва ранг кўрсаткичи бўйича бешинчи ўрини суяк мушак тизими ва қўшимча тўқима касалликлари (XIII) $93,9 \pm 11,47$ ни ва $88,07 \pm 11,03$ ни ташкил қилган.

Олинган натижаларнинг таҳлилидан кўриниб турибдики, кейинги ўринларни тери ва тери ости тўқима касалликлари ва ундан кейинги ўринларни эса юқумли ва паразитар касалликлари эгалланганлиги кўриниб турибди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Баранов А. А., Альбицкий В. Ю. Состояние здоровья детей России, приоритеты его сохранения и укрепления. //Казанский медицинский журнал. 2018; т.99, 4: 698-703.
2. Баранов А. А., Намазова-Баранова Л. С., Альбицкий В. Ю., Терлецкая Р. Н. Состояние здоровья детей современной России (Серия «Социальная педиатрия», выпуск 20). М.: «Педиатр». 2018. 120 С.
3. Маматқулов, Б., & Абдурахимов, Б. А. (2020). Тоғ қон саноати ишчиларининг саломатлиги ва хавф омилларини бошқаришга тизимли ёндашив. Тиббиётда янги кун, 4(32), 162-165.
4. Маматқулов, Б., Авезова, Г. С., Абдурахимов, Б. А., & Адилова, З. У. (2019). Тоғ қон саноатидаги ишчилар касалланиши, улар саломатлигига ишлаб чиқариш омилларининг таъсири. Тиббиётда янги кун, 4(28), 191-195.
5. Askarov, O. O., Abdurakhimov, B. A., & Janani, V. (2023). RESULTS AND SURVEYS ABOUT AWARENESS OF THE MITRAL VALVE PROLAPSE.
6. Mamatkulov, Z. S. S. B. M., & Abdurakhimov, B. A. (2022). Features of Morbidity of Workers in the Copper Industry.

ГУЛИСТОН ШАҲАР МАКТАБЛАРИДА ЙИЛЛАР КЕСИМИДА ТИББИЙ КЎРИҚДА АНИҚЛАНГАН КАСАЛЛИКЛАР ТАҲЛИЛИ

Нодирбек Исломбекович Юсуфов
Хайитов Жавоҳир Баходирович
Салоҳиддинов Фаҳриддин Баҳриддинович
Тошкент тиббиёт академияси

Аннотация. Олиб борилган профилактик ишлар 2021 йилга нисбатан 2022 йилда айрим касалликларнинг ўқувчилар орасида кескин пасайиши ва уларнинг ишлаш қобилиятининг самарадорлигини ортишига шароит яратган.

Йиллар кесимидаги касалланиш ҳолатининг гигиеник таҳлили ва унга таъсир қилувчи омилларнинг ўрни ва аҳамиятини гигиеник таҳлили касалланиш ҳолати ва айрим касалликларнинг кореляцион боғлилиги билан изоҳланади.

Калит сўзлар: касаллиниш, профилактик ишлар, саломатлик.

Маҳаллий санитария эпидемиология осойишталиги ва жамоат саломатлиги хизмати ходимларининг тезкор амалга ошириган профилактик ишларнинг самарадорлигини баҳолаш мақсадида 3 йиллик касаллиниш ҳолатини таҳлили қилишни олдимизга мақсад қилиб олдик.

Мактаб ўқувчиларнинг саломатлик ҳолати ишлаш қобилиятига таъсир қилувчи омилларнинг таъсирини гигиеник таҳлили натижасида нафас олиш тизими, аллергия касалликлари, тана ҳолатининг ўзгариши, кўриш тизими таъсирини баҳолашдан иборатдир.

Мактаб ўқувчиларнинг орасида 3 йиллик касалликларнинг тарқалганлик даражасининг гигиеник таҳлилидан кўриниб турибдики, мактаб ўқувчилар орасида кескин юқори даражасида тарқалган касалликлар синфига (IV гуруҳ касалликларидан тиш кариеси ва эндемик буқоқ касаллиги ташкил қилди. III-синф касалликлари орасида темир таниқислик камқонлик касаллиги ташкил қилган бўлса, XII синф касалликлари орасида аллергия касалликлар ва хуснбузар эгаллаган бўлса, XIII-синф касалликларида қоматнинг бузилиш ва VII синф касалликларида нафас олиш тизим органи касалликлари эгалланган ва ушбу тизими касалликларнинг ортиши асосан мактаб ичи омиллари билан кескин боғлиқдир.

1-жадвал

Гулистон шаҳар мактабларида йиллар кесимида тиббий кўрикда аниқланган касалликлар натижалари (2022 йил натижалар асосида)

№	Касалликлар таснифи	2	15	30
IV	эндокрин тизими касалликлари, овқатланиш тартибсизлиги ва моддалар алмашинуви бузилишлари	215,79±18,56	211,5±18,51	202,78±18,59
XII	тери ва тери ости тўқима касалликлари	114,85±11,11	108,62±9,46	116,21±12,77
III	қон ва қон яратувчи органлар касалликлари ва иммун механизмни жалб этувчи айрим бузилишлар	103,67±12,17	92,65±11,59	94,93±11,86
VII	кўз ва унинг қўшимча аппарати касалликлари	98,88±11,92	81,47±10,93	88,38±11,48
X	нафас олиш аъзолари касалликлари	71,79±10,34	76,71±9,06	62,37±9,01
XIII	суяк-мушак тизими ва қўшувчи тўқима касалликлари	71,77±10,31	76,68±10,63	57,28±9,4
I	баъзи инфекцион ва паразитар касалликлар	60,61±9,53	57,51±9,3	54,01±9,14
VI	нерв тизими касалликлари	25,52±6,3	28,75±6,68	27,82±6,65
XI	овқат ҳазм қилиш касалликлари	17,54±5,24	23,96±6,11	26,19±6,46
XIV	сийдик таносил тизими касалликлари	12,76±4,48	11,18±4,2	14,73±4,87
IX	қон айланиш тизими касалликлари	6,38±3,18	4,79±2,76	4,91±2,83
VIII	қулоқ ва сўргичсимон ўсма касалликлари	6,38±3,18	1,6±1,6	4,91±2,83
XVII	Туғма аномалиялари, деформациялар ва хромосом бузилишлар	3,37±1,11	3,27±1,16	3,4±1,19
	Жами	809,31	778,69	757,92

2-жадвалдан кўриниб турибдики, умумий текширилган мактаб ўқувчилари орасида энг кўп тарқалганлар нисбатини яна эндокрин тизими касалликлари, овқатланиш тартибсизлиги ва моддалар алмашинуви бузилишлари (IV) касалликлари қайт қилинган ва мактаблар кесимида 215,79±18,56, 211,5±18,51 ва 202,78±18,59 ни ташкил қилган бўлса, тери ва тери ости тўқима касалликлари (XII) эгаллаб, ушбу гуруҳдаги аллергия касалликларнинг сони кескин юқоридир, учинчи ўрни ушбу йилда қон ва қон яратувчи органлар касалликлари ва иммун механизмни жалб этувчи айрим бузилишлар (III), кейинги ўрнини кўз ва унинг қўшимча аппарати касалликлари (VII) ва бешинчи ўрни нафас олиш тизими касалликлари (X) эгалланган. Олинган натижаларнинг таҳлилидан кўриниб

турибдики, кейинги ўринларни нафас олиш тизими ва юқумли паразитар касалликлари эгалланган.

Мактаб ўқувчилар орасида 2023 йилда ташкиллаштирилган тиббий кўриклар натижалари 3-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Гулистон шаҳар мактабларида йиллар кесимида тиббий кўриқда аниқланган касалликлар натижалари (2023 йил натижалар асосида)

№	Касалликлар таснифи	2	15	30
IV	эндокрин тизими касалликлари, овқатланиш тартибсизлиги ва моддалар алмашинуви бузилишлари	192,72±19,36	189,14±17,65	185,88±16,34
III	Қон ва қон яратувчи органлар касалликлари ва иммун механизмни жалб этувчи айрим бузилишлар	99,15±12,36	79,22±9,73	100,66±10,95
XII	тери ва тери ости тўқима касалликлари	96,01±8,2	75,32±8,2	80,80±8,2
XIII	Суяк-мушак тизими ва қўшувчи тўқима касалликлари	73,76±11,45	67,53±9,04	55,63±8,34
VII	Кўз ва унинг қўшимча аппарати касалликлари	73,36±11,15	57,14±8,36	62,25±8,79
X	Нафас олиш аъзолари касалликлари	67,61±7,87	61,17±6,26	64,44±6,64
I	Баъзи инфекцион ва паразитар касалликлар	47,86±8,83	35,06±6,63	38,41±6,99
VI	Нерв тизими касалликлари	39,06±6,94	30,78±5,14	32,52±5,4
XI	Овқат ҳазм қилиш касалликлари	17,09±5,36	15,69±3,87	14,62±3,73
XIV	Сийдик таносил тизими касалликлари	18,55±3,81	15,9±2,25	14,32±1,32
IX	Қон айланиш тизими касалликлари	6,22±2,41	6,26±1,83	6,11±1,32
VIII	Қулоқ ва сўрғичсимон ўсма касалликлари	6,42±2,41	6,11±1,3	5,65±1,87
XVII	Туғма аномалиялари, деформациялар ва хромосом бузилишлар	4,11±1,11	3,57±1,16	3,63±1,19
	жами	741,92	642,89	664,92

3-жадвалдан кўриниб турибдики, умумий текширилган мактаб ўқувчилари орасида энг кўп тарқалган касалликлар нисбати (IV), (III), (XII), (XIII) ва (VII) синф касалликлари кетма-кетлиги ўринларни эгалланганлиги кўриниб турибди.

Олинган натижаларнинг таҳлиллари асосида қуйидаги хулосаларга тўхталдик:

Биринчидан мактаб ичи омиллариининг издан чиқанлиги натижасида мактаб ўқувчиларнинг орасида мактаб шароитида фаст фуд ва қандолат маҳсулотларининг ортиқча истеъмол натижасида эндокрин тизими касалликлари, овқатланиш тартибсизлиги ва моддалар алмашинуви бузилишлари (IV) касалликларидан тиш кариеси ва эндемик буққон касаллиги тарқалганлик даражаси йиллар кесимида энг кўп тарқалган;

иккинчидан мактаб ўқувчилари орасида қон ва қон яратувчи органлар касалликлари ва иммун механизмни жалб этувчи айрим бузилишлар (III) темир таниқслик камқонлик касаллигини юқорилиги қайт қилинган;

учинчидан тери ва тери ости тўқима касалликлари (XII) чанг аллергияси ва озиқ-овқат маҳсулотларининг аллергия касалликлари касалликларнинг сони ҳам кескин юқори даражада сақланиб қолган.

тўртинчидан суяк-мушак тизими ва қўшувчи тўқима касалликлари (XIII) синф касалликларидан мактаб ўқувчиларнинг қоматининг бузилиш қайт қилинган;

бешинчидан нафас олиш тизими кўз ва унинг қўшимча аппарати касалликлари (VII) кўриш тизимининг аллергия касалликлари ва миопиянинг паст ва ўрта даражаси юқорилиги қайт қилинган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Баранов А. А., Альбицкий В. Ю. Состояние здоровья детей России, приоритеты его сохранения и укрепления. //Казанский медицинский журнал. 2018; т.99, 4: 698-703.
2. Bakhodirovich, K. J. (2023). ORGANIZING RATIONAL FOOD FOR CHILDREN ENGAGED IN SPORT TYPE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 811-813.
3. Хайитов, Ж. Б., Бурибоев, Э. М., & Ниязова, О. А. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФАКТИЧЕСКОГО ПИТАНИЯ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ СПОРТСМЕНОВ. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 449-454.
4. Abdurakhimov, B. (2023). A SYSTEMATIC APPROACH TO THE MANAGEMENT OF WORKING CONDITIONS, HEALTH STATUS AND RISK FACTORS OF THE WORKERS OF COPPER PRODUCTION ENTERPRISES.
5. Абдурахимов, А. Б. (2024). ИЗУЧЕНИЕ УСЛОВИЙ ТРУДА И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВРЕДНЫХ ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВА НА МЕДЕПЛАВИЛЬНЫХ И ОБОГАТИТЕЛЬНЫХ ЗАВОДАХ.
6. Abdurahimov, B. A. (2023). THE SPECIFIC ASPECTS OF TECHNOLOGICAL PROCESS IN COPPER AND MOLYBDENUM CONCENTRATE PRODUCING FACTORIES (Doctoral dissertation).
7. Islamovna, S. G., & Bakhodirovich, K. J. (2019). Hygienic assessment of actual food of school age children in chess sports. European science, (2 (44)), 76-78.
8. Эрматов Н. Ж. Гигиенические факторы, влияющие на показатели здоровья детей и подростков //Патология. – 2010. – №. 1. – С. 9.

ГУЛИСТОН ШАҲАР МАКТАБ СИНФХОНАЛАРИНИНГ ИЧКИ МУҲИТИНИ МИКРОИҚЛИМ ОМИЛЛАРИНИНГ ГИГИЕНИК ТАҲЛИЛИ

*Нодирбек Ислombeкович Юсуфов
Хайитов Жавоҳир Баходирович
Салоҳиддинов Фаҳриддин Баҳриддинович
Тошкент тиббиёт академияси*

Резюме. Мактаб ўқувчиларига мактаб ичи омиллари микроиқлим ва физик омиллар таъсирини гигиеник таҳлил қилишда Сирдарё вилояти Гулистон шаҳридаги 1,17-18 мактабларда тадқиқотлар олиб борилди. Бошланғич синфхоналарининг микроиқлим кўрсаткичлари Тиббиёт академияси ва Корея университети ҳамкорлигидаги илмий марказ лаборатория ускуналарида ҳавонинг ҳарорати, ёритилганлик даражаси, ҳавонинг намлиги, ҳавонинг ҳаракат тезлиги, ҳаводаги чангнинг миқдори, ҳаводаги карбонад ангидрид, формальдегид миқдори баҳоланди. Олинган маълумотлар статистик таҳлил қилинди ва СанПиН №0341-16 «Санитарно-эпидемиологические требования к условиям и организации обучения в общеобразовательных школах» меъёрий кўрсаткичлари билан солиштирилди. Ҳаво ҳарорати меъёридан 2–4 градусга пастлиги, ҳавонинг чангланганлик даражаси ПМ–2,5 бўйича ўртача 35,2 $\mu\text{g}/\text{m}^3$ ни ташкил қилиб меъёрдан 2,35 мартага юқорилиги, ПМ–10 бўйича эса 6,14 мартага ортиқчалиги аниқланди. Ҳавонинг таркибидаги карбонат ангидрид миқдори 0,6%ни (1,0–1,5%), формальдегид миқдори 0,2 ни ташкил қилиб , меъёрга мос келади.

Калит сўзлар. Мактаб ўқувчилари, касалланиш, саломатлик ҳолати, микроиқлим омиллари

Муаммонинг долзарблиги. Мактаб ўқувчиларининг саломатлик ҳолати сезиларли даражада мактаб ичи омиллари таъсирига боғлиқ бўлади. Ҳозирги кунда таълим муассасаларнинг ички муҳитини гигиеник баҳолаш мажмуаси ва “мактаб ичи ва даври касалликлари” деб номланган қатор патологиялар бўйича ўқувчиларни саломатлик ҳолатига таъсир этувчи хавф омилларини ўрганиш мазкур тадқиқотлар асосини ташкил этди. Синфхоналарида ёритилганлик даражаси 23,6% меъёрий кўрсаткичларга мос келмайди. Аниқланган муҳит омиллари болаларнинг саломатлик ҳолатига салбий таъсир кўрсатади. Ёритилишнинг меъёрида эмаслиги биринчи синфнинг 13,2% ўқувчилари орасида, 4-5 синф ўқувчиларининг–15,6%да, 15 ёшдаги ўқувчилар орасида эса–

10,3%да кўриш ўткирлигининг бузилишлари аниқланган (). Аниқланган нохуш муҳит омиллари ва ўқувчиларни саломатлик кўрсаткичларини пасайиш даражаси уларни зудлик билан бартараф этишни, мактаб ўқувчиларини соғломлаштиришни қайта кўриб чиқиш, гигиеник тиббий назорат асосида янги саломатликни сақловчи технологияларни жорий этишни талаб этади (Полякова А.Н., 2013.). 2005 йилда Ж.Раднаабазар томонидан аниқланган кўрсаткичлар шуни кўрсатадики, касалликлар орасида ҳар 1000 нафар болага кўз нуқсонларининг учраши 54,3ни, эшитиш ва нутқдаги нуқсонлар—17,6ни, асаб тизим касалликлари—5,5ни, ва бошқа патологиялар—8,9ни ташкил қилган (Ж.Раднаабазар, 2005). Мактаб ўқувчиларининг саломатлигини муҳофаза қилиш масаларида тадқиқотчиларнинг диққат эътибори, организмни у ёки бу касалликка учрашини сезиларли даражада оширувчи ҳавф омилларини аниқлашга қаратилмоқда. Болалар кун давомидаги вақтининг катта қисмини таълим муассасасаларида ўтказди, шу сабабли таълим муҳитини реабилитацион-соғломлаштирувчи ҳамда оқартув муассасасига айлантириш зарурияти юзага келади.

Ишнинг мақсади. Совуқ иқлим шароитидаги мактаб ўқувчиларига мактаб ичи омиллари микроиқлим ва физик омилларни гигиеник таҳлил қилишдан иборат.

Тадқиқотнинг материал ва усуллари. Тадқиқот ишлари Сирдарё вилояти Гулистон шаҳридаги 1-умумтаълим мактабида олиб борилди. Бошланғич синфхоналарининг микроиқлим омиллари ва физик омилларини ўлчов ишлари Тошкент тиббиёт академияси ва Корея университети ҳамкорлигидаги илмий марказ лаборатория ускуналари ёрдамида баҳоланади. Синфхоналари ҳавосидаги GT-331 асбоби ёрдамида ҳавода чангнинг миқдори, ҳаводаги карбонад ангидрид миқдорини Термо-гигроСО₂метрда, атмосфера ҳавосидаги формальдегид даражасини аниқлашда РРМ Формальдиметр ёрдамида баҳоланди.

Олинган маълумотлар статистик таҳлил қилинди ва СанПиН №0341–16 «Санитарно-эпидемиологические требования к условиям и организации обучения в общеобразовательных школах» меъёрий кўрсаткичлари билан солиштирилди.

Олинган натижаларнинг таҳлили. Сирдарё вилояти Гулистон шаҳридаги 1-умумтаълим мактаби бошланғич синфхоналарида қиш–баҳор мавсумида ҳаво ҳарорати меъёридан 2–4 градусга пастлиги аниқланди. Ҳавонинг чангланганлик даражаси ПМ–2,5 бўйича ўртача 35,2 $\mu\text{g}/\text{m}^3$ ни ташкил қилиб (меъёрда 15 $\mu\text{g}/\text{m}^3$) 2,35 мартага юқорилиги кўрсатган бўлса, ПМ–10 бўйича баҳоланганда ўртача 307, $\mu\text{g}/\text{m}^3$ ни ташкил қилди(меъёрда 50 $\mu\text{g}/\text{m}^3$)ни ташкил қилди, яъни, 6,14

мартага ортиқчалигини кўрсатиб турибди. Хавонинг таркибидаги карбонат ангидрид миқдори 0,6%ни (1,0–1,5%), формальдегид миқдори 0,2 ни ташқил қилиб, меъёрга мос келади.

Олинган натижалардан кўриниб турибдики, синфхоналарида хавонинг хароратини кўтариш ва меъёрга тенглаштириш, чанг миқдорини камайтириш ва унинг оқибатида юзага келадиган бактериал ифлосланишни олдини олишга қаратилган санитар-гигиеник ва профилактик ишларни амалга ошириш зарур.

Мактаб ўқувчилари орасида профилактик ишлар ташкиллаштирилмаса ўқувчилари орасида турли соматик касалликларнинг сони кескин ортиши кузатилади, уларнинг саломатлик ҳолатида қатор ўзгаришлар юзага келиши мумкин.

Микроиқлим омилларни баҳолашда хонанинг харорати, намлиги, хавонинг ҳаракат тезлиги, хавонинг таркибида карбонат ангидрид газининг миқдори, бионинг барча хоналарнинг ёритилиши ва шовқин каби асосий кўрсаткичларнинг мактаб ўқувчиларнинг саломатлик ҳолати, касалланиш даражаси ва жисмоний ривожланишга таъсирини гигиеник асослашга қаратилган гигиеник тавсияларни ишлаб чиқишдан иборат.

Ушбу масалаларни ҳал қилиш бизнинг олдимизда турган асосий вазифалардан биридир.

Назорат остига олинган мактаблардаги микроиқлим параметрлари, яъни хароратнинг ўзига хос бўлган хусусиятлари ва уларнинг ўқувчиларнинг ишлаш қобилияти ва ўқув жараёнини ташкиллаштиришга таъсири ва унинг гигиеник талабларга мос келишини таҳлил қилишни мақсад қилиб олдик. Олинган натижалар

Сирдарё вилояти Гулистон шаҳридаги умумтаълим мактабларидаги синф хоналарнинг шовқин даражаси

№	1		17		18	
Синф хоналар	Дарс бошида	Дарс охирида	Дарс бошида	Дарс охирида	Дарс бошида	Дарс охирида
Бошланғич синф	57,7±1,8	54,3±1,44	53,5±1,29	51,5±0,86	71,5±1,41	61,5±1,05
Бошланғич синф	44,1±6,55	42,2±1,45	69,2±1,3	67,2±0,87	57,4±1,43	47,2±1,07
Адабиёт хонаси	57,6±10,0	54,6±4,2	57,6±3,78	51,6±2,52	54±4,15	51,6±3,11
Кимё хонаси	46,1±0,61	42,1±8,06	46,1±7,25	42,1±4,83	54,5±7,97	42,1±5,97
География хонаси	54,3±4,26	51,3±3,62	54,3±3,25	51,3±2,17	53±3,57	51,3±2,67
Кутубхона	51,5±7,35	41,5±3,59	51,5±3,23	43,5±2,15	51±3,55	43,5±2,66

Инглиз тили ҳонаси	47,4±1,2	36,2±4,38	57,4±3,94	53,4±2,62	56±4,33	53,4±3,24
Математика ҳонаси	46,8±2,4	39,7±4,82	56,8±2,33	52,8±2,89	47,3±2,56	52,8±1,92
ЧЁТ ҳонаси	46,2±3,5	39,4±4,63	56,2±3,16	46,2±2,77	60±3,47	46,2±2,6
Она тили ҳонаси	36,6±4,2	31,2±4,16	41,6±3,74	35,6±2,49	42±4,11	35,6±3,08
Тарих ҳонаси	42,4±2,6	36,3±3,19	52,4±2,87	46,4±1,91	58±3,15	46,4±2,36
СПОРТ ЗАЛ	68,1±3,8	58,9±2,42	78,1±2,17	68,1±1,45	76,3±2,38	68,1±1,78
Рус-тили ҳонаси	56,5±1,6	52,5±1,14	58,5±1,02	48,2±0,68	62±1,12	48,2±0,84
Биология ҳонаси	47,2±2,2	41,6±2,18	47,5±1,96	42,6±1,3	45,7±2,15	42,3±1,61
Информатика ҳонаси	46,7±1,44	44,4±1,8	46,8±3,94	44,7±1,6	51,1±4,33	48,2±3,24
Физика ҳонаси	48,8±1,45	43,6±2,4	45,8±4,33	42,7±1,8	49,2±4,76	42,3±3,57

Хулоса қилиб шуни таъкидлашимиз жоизки, мактаб синфхонларида шаммолатилиши ва нам тозалаш ишларининг амалга оширилмаганлиги, хароратнинг пасайиши, намликнинг камайиши ёки кўтарлиши, чанг миқдорининг ортиши, нафақат уларнинг ишлаш қобилиятини пасайиши, балким, турли нафас олиш тизими касалликларининг ривожланишига шароит яратади. Бу борада текшириш ишлари давом эттирилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Пономарева Л. А. Формирование основ здорового образа жизни в общеобразовательных школах // Проблемы биологии и медицины. - 2005. - №3. – С. 134-136
2. Bakhodirovich, K. J. (2023). ORGANIZING RATIONAL FOOD FOR CHILDREN ENGAGED IN CPORT TYPE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 811-813.
3. Хайитов, Ж. Б., Бурибоев, Э. М., & Ниязова, О. А. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФАКТИЧЕСКОГО ПИТАНИЯ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ СПОРТСМЕНОВ. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 449-454.
4. Abdurakhimov, B. (2023). A SYSTEMATIC APPROACH TO THE MANAGEMENT OF WORKING CONDITIONS, HEALTH STATUS AND RISK FACTORS OF THE WORKERS OF COPPER PRODUCTION ENTERPRISES.

5. Абдурахимов, А. Б. (2024). ИЗУЧЕНИЕ УСЛОВИЙ ТРУДА И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВРЕДНЫХ ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВА НА МЕДЕПЛАВИЛЬНЫХ И ОБОГАТИТЕЛЬНЫХ ЗАВОДАХ.
6. Abdurahimov, B. A. (2023). THE SPECIFIC ASPECTS OF TECHNOLOGICAL PROCESS IN COPPER AND MOLYBDENUM CONCENTRATE PRODUCING FACTORIES (Doctoral dissertation).
7. Islamovna, S. G., & Bakhodirovich, K. J. (2019). Hygienic assessment of actual food of school age children in chess sports. European science, (2 (44)), 76-78.
8. Семенищенкова Т. А. Гигиенические аспекты формирования преневротических отклонений у старших школьников // Гиг. и сан. - 2003. - №4. – С. 34-37.
9. Н.Ж. Эрматов, Н.И.Юсуфов Иссиқ иқлим шароитидаги синфхоналарнинг ички муҳитини гигиеник таҳлили // Международная научно практическая конференция Интеграция в мир и связь наук. Баку, 2022. - №1. – С. 36-39.

BO'SH VAQTDAN UNUMLI FOYDALANISHNING TASNIFI

Xudoyberdiyeva Fotima Abdulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili ta'limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,

Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

fxudoyberdiyeva192@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'sh vaqtni unumli tashkil etish va undan samarali foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Mamlakatimiz aholisining deyarli 30 % dan ko'prog'ini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlarimizning o'qish va ishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ularni turli foydali kasb-hunarlarga o'rgatish, jamiyatimizni yuksaltirishning eng asosiy manbaidir. Shuningdek, bo'sh vaqtni rejalashtirish va uni ijobiy hamda maqsadli yo'naltirishning asosiy tushunchalari ta'kidlab o'tiladi. Maqola bo'sh vaqtni to'g'ri boshqarish orqali shaxsiy rivojlanish, ijodkorlik, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek maqolada bo'sh vaqtni unumli sarflashning mohiyati usullari va foydalari tahlil qilinib, zamonaviy hayot sharoitida uning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: bo'sh vaqt, foydali mashg'ulotlar, dedlayn tushunchasi, texnologik rivojlanish, Islom dinida - vaqt tushunchasi, g'animat, ijtimoiy tarmoq

Kirish. Bo'sh vaqt har bir insonning shaxsiy rivojlanishi va farovon hayot kechirishida muhim o'rin tutadi. Uning maqsadga muvofiq va unumli tashkil etilishi shaxsning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bo'sh vaqt inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning to'g'ri tashkil etilishi shaxsiy va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ish, o'qish yoki boshqa kundalik majburiyatlardan keyingi vaqt insonning qiziqishlarini rivojlantirish, dam olish va o'zini anglash uchun imkoniyat yaratadi. Bo'sh vaqtni unumli foydalanish ko'nikmasi nafaqat shaxsning maqsadlariga erishishida, balki uning ijodiy fikrlashi, aqliy va jismoniy salomatligini saqlashda ham katta rol o'ynaydi.

Zamonaviy dunyoda insonlarning bo'sh vaqtni qanday sarflashi ularning turmush sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Texnologik rivojlanish va digital vositalarning keng tarqalishi natijasida bo'sh vaqtni to'g'ri rejalashtirish masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Odamlar ko'pincha bo'sh vaqtini tasodifiy yoki foydasiz faoliyatlarga sarflashlari tufayli resurslarni yo'qotishadi va ruhiy charchoqni his qilishadi. Bo'sh vaqtni maqsadli tashkil etish orqali nafaqat shaxsiy taraqqiyotga

erishish, balki jamiyat uchun ham foydali natijalarga erishish mumkinligi ko'rsatib o'tiladi.

Bo'sh vaqtdan unumli foydalanishning turli toifalarini tushunish odamlarga o'z qiziqishlari va maqsadlariga mos keladigan faoliyatni tanlashga yordam beradi. Ushbu bilim odamlarga bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazish haqida ongli qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Bo'sh vaqtlarida samarali faoliyat bilan shug'ullanish ko'plab afzalliklarga ega. Birinchidan, bu odamlarga yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga va bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, samarali faoliyat qoniqish va muvaffaqiyat tuyg'usini ta'minlaydi, o'ziga ishonch va o'zini o'zi qadrlashni oshiradi, Vanihojat, bo'sh vaqtlarida samarali faoliyat bilan shug'ullanish stressni kamaytirish va maqsad va qoniqish hissini ta'minlash orqali ruhiy farovonlikni yaxshilashi mumkin.

Metod va materiallar. Vaqt insonni chegaralovchi vosita emas, muvaffaqiyat yo'lidagi to'siq bu o'zimizdir. "Inson hayotidagi vaqt nima, uning mohiyati nimada?" degan savollarga donolar shunday javob beradi: "Vaqt - go'yo hayot kiyimi to'qiladigan iplar bo'lib, uning pishiq va nafisligiga qarab hayot aziz hamda bebaho bo'ladi. Islom ta'limoti yalqovlik, loqaydlik, kabi illatlardan uzoqda bo'lishimizga amr qiladi va har kuni erta turishga, xayrli amallarni qilishga hamda yoshlik, sihat-salomatlik, bo'sh vaqtni g'animat bilishga chorlaydi. Bo'sh vaqtimizdan unumli foydalanishda vaqtni samarali boshqarish juda muhimdir. Bu maksimal samaradorlikni ta'minlash uchun aniq maqsadlar va ustuvorliklarni belgilashni o'z ichiga oladi. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni tasniflash odamlarga o'z vaqtlarini oqilona taqsimlashga yordam beradi. Bu yangi ko'nikmalarni o'rganish, sevimli mashg'ulotlariga intilish va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish kabi faoliyatni o'z ichiga olishi mumkin. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanishda vaqtni boshqarish muhimligini tushunib, odamlar o'zlarining kundalik hayotlarida yaxshi ish va hayot muvozanatiga va umumiy qoniqish hissiga erishishlari mumkin. Yana bir yondashuv - ish kuni qanday tuzilganiga o'xshash bo'sh vaqt uchun jadval yoki tartibni yaratish. Bu odamlarga tartibni saqlashga yordam beradi va vaqtlarini samarali va samarali ishlatishlarini ta'minlaydi. Hayotni sevsang, vaqtni boy berma, chunki vaqtdan hayot yaraladi, degan ekan faylasuflardan biri. Inson uchun eng qimmatli narsa vaqt va bu ayni haqiqatdir.

Muhokama va natijalar. Hozirgi zamonda yoshlar o'rtasida balki katta yoshlilar o'rtasida bo'sh vaqtdan kerakli maqsadda foydalanmasdan, uni bekorchilik xarom o'yinlar va shu kabi bir qator narsalarga vaqtini sarf etishi, bu achinarli holat. So'ngi paytlarda onlayn qimor o'yinlari ayrim toifadagi insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday o'yinlar natijasida nafaqat moliyaviy ta'sirga ham tushib qolish holatlari ko'p uchramoqda. Milliy urf-odatlarimiz va mentalitetimizga, shuningdek, diniy qarashlarimizga yot bo'lgan qimor o'yinlarini noqonuniy ravishda tashkil etish holatlari, ayniqsa, onlayn tarzda ommalashib, o'smir va yoshlarni o'z

domiga tortayotgani achinarli holatlardan biridir. Hozirgi kunda bu onlayn qimor o'yini yoshlarimizning turmush tarziga va ongiga sezilarli tarzda ta'sir qilib kelmoqda. Aslida bu muammolarning ko'pini kelib chiqish sababi, bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlay olmasligida. Har bir inson erta tongda turar ekan: "Men bugun nima qilishim kerak", "Mening bugungi kunlik rejaralarim qanaqa bo'lib o'tadi", "Nima qilsam bugungi kunim har doimgidanda ajoyib bo'lib o'tadi" degan savvollar bilan boshlaydi tongini. Aslida kun tartibi haddan tashqari tig'iz bo'lgan odamlar ham o'zlari uchun bir necha soat vaqt ajratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aytishlaricha, global jaddalashish paytida bo'sh vaqt tushunchasi qimmatbaho zahira tushunchasi bilan tenglashib qolmoqda.

Vaqt shunchalar tezkorlik bilan o'tib boryaptiki, tasavvur qila olmaysiz - tongda bir soat vaqtingiz majlis uchun, yana bir soat yo'ldagi tirbandliklar, kunning 1/3 qismi ishda o'tadi. Do'stlaringiz va oilangiz bilan taomlanasiz, farzandingizning bog'cha yoki maktabdagi majlisiga borib kelasiz - qarabsizki, kun oxirlab qoladi. Bilsangiz taym-menejment bilimlari bizning zamonamizda o'ta ommalashib ketgani bejizga emas. Biroq ushbu ko'nikmani o'zlashtirib olish uchun ham sizdan biroz vaqt talab etiladi.

Har bir vazifani bajarish uchun ma'lum bir vaqt belgilang. Natija: 1 soat vaqt tejaladi, hech e'tibor berganmisiz, vaqtingiz tig'iz bo'lib turgan bir paytida odatiy vazifalarni doimgidan tezroq bajarasiz. Dedlayn tushunchasi ajoyib narsa - u o'zingizni nazorat ostida ushlab turish uchun yordam beradi. Har bir vazifa uchun ma'lum vaqtni belgilab oling, shu tariqa bir ishni ko'proq, bir ishni esa kamroq vaqt davomida bajarish odatidan ham qutulasiz. Dugonaningiz bilan ko'rishmoqchi bo'lsangiz, uni biror ko'rgazmaga taklif qiling. Mashinangiz bilan tirbandlikda qolib ketsangiz, audiokitoblar tinglang, ish bo'yicha belgilangan uchrashuv davomida tushlik qilib olishga ham ulguring. Bu bir o'q bilan ikki quyonni urish demakdir!

Ijtimoiy tarmoqlarda yashamang! Natija: 1-5 soat vaqt tejraladi. Ijtimoiy tarmoq - zamonaviy jamiyatning ajralmas bir qismiga aylanib bo'lgan. Boisi har kuni telefoningizni tekshirib keyin ishga o'tlanasiz, barcha sevimli akkauntlaringizni ko'zdan kechirib uyquga ketasiz, tushlik paytida ham do'stlaringiz bilan tarmoqlar orqali suhbat qurishni unutmayasiz. Bu borada ma'lum bir chegara bo'lishi kerak (misol uchun ijtimoiy tarmoqlarga kun davomida faqat 3 marta nazar tashlashga harakat qiling.) Ammo bu ishning uddasidan chiqar olmasangiz, mazmuni bir xil bo'lgan kanallardan faqat bittasinigina qoldirib, qolganlarini o'chiring, jiddiy ishlar bilan shug'ullanayotganingizda ijtimoiy tarmoqlar haqida butunlay unuting.

Reja tuzing. Natija: 30 daqiqa tejraladi. Barcha ishlarni kichik yon daftarga qayd etib borish juda foydali bo'lib, kelgusidagi vazifalaringizni aniqlab olish uchun ham yordam beradi. Shunisi aniqki, rejadagi ishlarning barchasini to'liq bajarar olmasangiz ham, jarayon miyadagi o'ylash faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish, begona va ortiqcha narsalarga chalg'imaslik uchun yordam beradi. "Tinchlik" rejimi. 1soat vaqt tejraladi. Odatda birga ishlaydigan hamkasblaringiz sizni jiddiy ishlardan muntazam ravishda chalg'itaveradilar. Ulardan bir necha soat davomida bezovta qilmasliklari haqida so'rang. Shu tariqa ishlaringizni tezroq bajarib olishingiz va o'zingiz uchun biroz vaqt ajratishingiz mumkin. Mazkur rejim ishga tushirilgan paytda telefonni ham o'chirib qo'yish tavsiya etiladi. Televizorni o'chiring. Televizor qarshisida o'tirib olgan narsalarga qilish va taomlanish vaqtni samarasiz usulda sarflanishiga olib keladi. Birinchidan sevimli qahramonlaringiz hayotiga mahliyo bo'lib turgan paytda miyangiz to'yganlik haqidagi signalni qabul qila olmaydi. Shu tariqa qancha taom iste'mol qilganingizni ham bilmay qolasiz. Bu afsuski ovqatlanish rejimini ham buzilishiga olib keladi. Ikkinchidan qahramonlar o'z muammolarini hal qilayotgan paytda sizning 10 daqiqalik hordiq onlaringiz ko'proqqa ham cho'zilishi mumkin. Aniqroq aytganda televizorda ko'rayotgan serial, badiiy film, telenovellalarning voqealar rivoji qay tarzda tus olishligi sizni qiziqtirgan holda vaqtingizni ko'pini shu va shunga o'xshash narsalarga sarf qilganingizni ham bilmay qolasiz.

Vaqt shunchalik ahamiyatli, musulmonning vaqt oldida vazifalari bor. Musulmon kishi ana shu vazifalarni tushunib ado etmog'i shart. Ular esa quyidagilar:

1. Vaqtdan imkon qadar unumli foydalanmoq. Bebaho mol-davlatini behad avaylaydigan inson aslida bebaho vaqtiga bundanda e'tiborliroq bo'lmog'i, uni faqat xayrli o'rinlarda xayrli maqsadlarga ishlatishi lozim edi. Salafi solihlar vaqtlariga juda e'tiborli edilar. Chunki ular vaqt qadrini yaxshi anglardilar. Ulug' imomlar har bir vaqtni foydali ilm, yaxshi amal, nafsga qarshi kurash yoki boshqalarga foyda yetkazish bilan o'tkazib oxirat g'amini yerdilar. Diniy va dunyoviy ishlarni batartib ado etmoq musulmon kishining vaqti oldidagi vazifalaridandir. Ana shunda ishlar bir-biriga halal bermaydi. Muhim va nomuhim amallar o'z o'rnini topadi. Solihlardan biri aytadi:

«Bandaning (o'tgan) vaqtlari to'rt turli bo'ladi, beshinchisi yo'qdir: ne'matda, kulfatda, itoatda va ma'siyatda. Vaqtning hamma holatida ham zimmangda Allohning ibodatidan ulush bordir. Demak, kimning vaqti toatda o'tgan bo'lsa, uning yo'li Alloh tarafidan unga berilgan marhamatga, ya'ni Alloh uni hidoyatlab, ibodatga muvaffaq qilib qo'yganiga shohid bo'lishdir. Kimning vaqti ne'matda o'tgan bo'lsa, uning yo'li shukr qilishdir. Kimning vaqti ma'siyatda o'tgan bo'lsa, uning yo'li tavba va istig'fordir. Kimning vaqti kulfat (sinov)da o'tgan bo'lsa, uning yo'li rozilik va sabrdir». Bo'sh vaqtni g'animat bilish. Nabiyy sollallohu alayhi vasallam marhamat qilib, dedilar: «Ikki buyuk ne'mat borki, ko'p odamlar ular borasida aldanib, chuv tushib qoladilar. Ular sihat-salomatlik va bo'sh vaqtdir». Ushbu muborak hadisda salomatlik bilan vaqt ne'matining ahamiyati juda go'zal shaklda, o'ta balog'atli tarzda bayon qilingan.

Demak, oltindan qimmat bebaho vaqtlarimiz, kunlarimiz, soatlarimiz va daqiqalarimiz hamda har bir kirayotgan va chiqayotgan nafaslarimiz hisob-kitobli ekanini aslo unutmaylik.

Alloh taolo barchamizga inson uchun berilgan bebaho umr va oltindan ham qimmatli vaqtni foydali va savobli ishlarni amalga oshirishda, umrning har bir daqiqasi buyuk fursat va g'animat ekanini doimo esda tutib sayu-harakat qilishda yoromadkor bo'lsin.

Xulosa. Oltindan qadrlil va javhardan qimmatli bir narsa bo'lsa, u ham bo'lsa vaqtdir. Vaqt bizning har turli ishni qilishga kuchimiz yetadigan fursatdir. Bir soatning bekor o'tgani ixtiyorimizda bo'lgan fursatning zoye bo'lganini bildiradi. Holbuki, shu fursat ichida foydali ishlarga ixtiyorimiz bor edi. Fursatni g'animat bilgan odam vaqtidan unumli foydalana oladi. Vaqt qadrini bilgan o'zini havoyi nafsdan tiya oladi. Bo'sh vaqtning qadrini bilgan odam buyuk bo'lishga haqlidir. Aqlsizlikning eng yomon ko'rinishi-bo'sh vaqtini bekor o'tkazishdir.

Jamiyatimizdagi barcha insonlar, ular kim va qanday mavqega ega bo'lmasinlar, kelajagimiz bo'lgan yoshlarimizni oltindan qimmat bo'lgan ne'matdan unumli foydalanishlari lozimligini tushuntirishimiz kerak.

1. Yoshi ulug'larimiz, muhtaram ota-onalar farzandlari ta'lim-tarbiyasiga beparvo bo'lmasliklari, vaqtlarini to'g'ri sarflashga o'rgatishlari kerak. Chunki, bugungi kunimiz va porloq kelajagimiz, ana shunday salohiyatli farzandlar qo'lidadir.

2. Yoshlar hozirgi bo'sh vaqtlarini kerakli, unumli, foydali narsalarga qaratishlari kelajakda hech narsadan pand yemaydilar. Ko'proq kitob o'qishlari, ilm izlashlari, o'z ustilarida ko'proq ishlashlari, qay sohada oqsayotgan bo'lsalar shu bo'yicha, ko'proq ishlashlari va tajriba ortirishlari mumkin bo'ladi. Bizga berilgan vaqt hech qachon yana qayta ortga qaytarilmaydi. Shunday ekan, bizga berilgan bu vaqtdan unumli foydalanib qolishimiz kerak.

Ushbu xulosadan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish
2. Ko'proq o'z ustingizda ishleng
3. Bizga berilgan bu vaqt, yana qayta ortga qaytarilmasliklarini ham eslatib o'tmoqchimiz.

REFERENCES

1. <https://www.naqshband.uz>
2. <https://sammuslim.uz/articles/actual/oltindan-ham-qimmatli-vaqtni-foydali-va-savobli-ishlarni-amalga-oshirishda-sarflaylik>
3. @VAQTQADRI
4. <https://odam.uz/Qiziqarli/bosh-vaqtim-yoq-deysizmi-adashasiz>
5. <https://sciencebox.uz>

ABU MANSUR MOTURIDIY HAQIDA

Maxsimova Madinabonu Maxtum qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

Universiteti ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası

Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

maxsimovamadina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilohiyotchi olim Abu Mansur Moturidiyning hayot yo'llari, u haqida buyuk shaxslar keltirgan gaplari, yozgan asarlari va asarlarining asosiy mazmun-mohiyati nimaga qaratilganligi haqida qisqacha keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: Abu Mansur Moturidiy, moturidiylik, fiqh, mutakallimin, jomboy, ilohiyotshunos, kalom, munozara, tafsir, Toshko'prozoda.

Kirish: Barcha xalqlarda bo'lgani kabi bizning xalqimiz ham o'zining bir necha yillik tarixiga ega. Ushbu tarixga bir nazar soladigan bo'lsak, ko'plab allomalarimiz va ulardan qolgan buyuk meroslarimizni ko'rishimiz mumkin. Buyuk olimlardan biri bu Abu Mansur Moturidiy - X asrda yashab o'tgan buyuk islom ilohiyotchisi va faylasufi bo'lib, uning ijtimoiy qarashlari islom olamida katta ahamiyatga ega. Moturidiy (Abu Mansur al-Moturidiy; Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy) (853-yil Samarqand – 944-yil Samarqand) – imom fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi. „Imom al-hida“, „Imom al-Mutakallimin“ („Hidoyat yo'li imomi“, „Mutakallimlar imomi“) nomlari bilan ulug'langan. Moturid qishlog'ida (hozirgi Jomboy tumanida) tavallud topib, to umrining oxirigacha shu yerda yashagan, bu yerda katta bog' ham barpo etgan.

Milodiy IX asrda Somoniylar sulolasi davrida dunyoga kelgan buyuk mutakallim, aqid va kalom ilmining sultoni Abu Mansur Moturidiy ham shu yurtning ko'hna Samarqand diyorida voyaga yetib, diniy va dunyoviy ilm ravnaqi uchun o'zining munosib xissasini qo'shishga muvaffaq bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, millionlab musulmonlar qalbiga muborak islom dinining hayotbaxsh g'oyalarini singdirishda buyuk vatandoshimiz imom Abu Mansur Moturidiy hazratlari va ul zot asos solgan „Moturidiylik maktabi“ga mansub allomalarning xizmatlari benihoya kattadir.¹

¹. Jozilov U. „Abu Mansur Al-Moturidiyning hayoti va ma'naviy merosi“

Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies
Journal // -173-b

Moturidiy Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida va mahalliy hanafiy faqihlardan ta'lim oladi, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad ibn al-Husayn al-Iyodiy, Nusayr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy unga ustozlik qilishdi. Keyinchalik u ustozlari kabi o'zi o'rgangan bilimlardan fiqh va kalom ilmlaridan dars berdi.

Metod va materiallar: Kuzatishlarimiz natijasida ko'rishimiz mumkinki, har bir buyuk allomalarimizning eng mashhur bo'lgan asarlari mavjud. Al-Moturidiyning kalom borasidagi eng asosiy asari "Kitob at-Tavhid" hisoblanib, manbalarda uning xuddi shu asari ilk kalom ta'limotini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi deb ataladi.² Moturidiyning asosiy asarlari „Kitob at-Tavhid“ („Yakkaxudolik haqidagi kitob“), „Ta'vilat ahl as-sunna“dir („Sunniylik an'analari sharhi“). „Kitob at-Tavhid“ bilish nazariyasi bayon qilingan musulmon ilohiyotshunosligining birinchi asari hisoblanadi. Kitobning kalom ilmi ta'rifi berilgan muqaddimasida bilimning 3 manbai: hissiy (sezgi) a'zolari vositasida, naql – rivoyatlar vositasida va aql-idrok vositasida axborotlar olish mumkinligi haqida gapiriladi. Moturidiy sof din doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini ta'kidlaydi. Kitobda o'sha davrdagi adashgan fiqaralar qarashlarining haqiqatdan yiroq ekanligi tahlil etilgan. Moturidiy „Din yo'lidagi barcha adashuvlarning sababi – riyokor kimsalarga ko'r-ko'rona ergashishdadir“, deb ta'kidlagan edi.³

Moturidiyning ta'limoti keyinchalik "Moturidiya" maktabi nomi bilan mashhur bo'ldi va hanafiy mazhabining asosiy aqidaviy yo'nalishiga aylandi.

Uning asarlarini 4 turga bo'lishimiz mumkin. Ular:

1. Kalom va munozara san'ati bo'yicha ishlar.
2. Usul ustida ishlaydi.
3. Tafsir⁴, va Qur'on ilmlari bo'yicha ishlar.
4. Buyruq (vasaya) va Allohga yuzlanish (munajah) bo'yicha ishlaydi⁵

Moturidiy ilohiyotchi olim sifatida muhim aqidaviy masalalar – juz'iy ixtiyor, e'tiqod, oxirat hayoti kabilarni qamrab oluvchi risolalar bitdi. „Ma'xaz ash Shari'a“ („Shariat asoslari sarasi“), „Kitob al-usul“ („Diniy ta'limot asoslari kitobi“), „Kitob al-jadal“ („Dialektika haqidagi kitob“) kabi asarlari shular jumlasidandir. Moturidiy Abu Hanifa qarashlarini tushuntirib berib, uni rivojlantirdi. Abul Hasan al-Ash'ariy (873—

². Norxujayev L. Samarova A. . "Al-Motrudiyning hayot yo'li"; INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 20-b

³. <https://uz.wikipedia.org>

⁴. Tafsir arabchadan "sharh", "tushuntirib berish", "izoh"

⁵. https://uz.wikipedia.org/wiki/Moturidiy#cite_ref-info-islam_4-0

935) ishlab chiqqan Islom aqidasi asoslarini takomillashtirib, uni sunniylik e'tiqodiga kirib qolgan noto'g'ri, g'ayri sahih aqidalardan tozaladi. Moturidiy qarashlari o'z davrida mintaqaning madaniy va ilmiy ravnaqiga sabab bo'lgan. Chunki Moturidiy din asoslarini mantiqan tushuntirgan, tanlov huquqi va ijtimoiy hamjihatlikni qaror topdirish g'oyalarini rivojlantirgan. Moturidiy jami 15 ga yaqin asar taklif etgan. Uning kalomga oid 7 ta va fiqhga oid 2 ta asari bo'lib, ular saqlanib qolmagan. Moturidiyning bizgacha yetib kelgan asarlari qisman tadqiq qilingan. Uning Qur'on tafsiriga bag'ishlangan „Ta'vilot al-Qur'on“ asari va uning uzviy davomi hisoblanmish „Irshad al-mubtadiyin fi tajvidi Kalami Robbil 'alamin“ („Qur'on o'qishga kirishganlar uchun qo'llanma“) kitobi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Abu Mansur al-Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha yetib kelmagan, yetib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi⁶

Mulohaza va natijalar. Jamiyat haqidagi qarashlarida Abu Mansur Moturidiy jamiyatni Alloh tomonidan o'rnatilgan tartib sifatida ko'radi. Uning fikricha, jamiyat insonlarning o'zaro munosabatlari va hamkorligiga asoslangan bo'lib, unda har bir shaxs o'z o'rniga ega. Moturidiy ta'kidlaydiki, jamiyat a'zolari o'rtasida adolat, tenglik va o'zaro hurmat bo'lishi kerak.

Moturidiy jamiyatning asosiy maqsadi insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqlarini himoya qilish hamda yaxshilik va ezgulikni targ'ib qilishdan iborat deb hisoblaydi. U jamiyatda ilm-fan, madaniyat va axloqning rivojlanishiga katta e'tibor qaratadi.

Davlat boshqaruvidagi qarashlarida esa Abu Mansur Moturidiy davlat boshqaruvini jamiyat hayotining muhim qismi deb hisoblaydi. Uning fikricha, davlat rahbari (xalifa yoki imom) Allohning yerdagi vakili bo'lib, u adolatli boshqaruv va shariat qonunlarini amalga oshirish uchun mas'uldir. Moturidiy ta'kidlaydiki, hukmdor xalq manfaatlarini ko'zlab ish yuritishi va zulm qilmasligi kerak.

Moturidiy davlat boshqaruvida shuro (maslahat) tizimiga katta ahamiyat beradi. U hukmdorning o'z atrofida gilar bilan maslahatlashib ish yuritishini, xalqning fikrlarini inobatga olishini tavsiya etadi. Shuningdek, Moturidiy davlat xizmatchilarining halol, adolatli va bilimdon bo'lishini muhim deb hisoblaydi. Bulardan tashqari Abu Mansur Moturidiy insonning huquqlari va burchlarini islom ta'limoti asosida tushuntiradi. Uning fikricha, har bir inson Alloh tomonidan yaratilgan bo'lib, muayyan huquqlarga ega. Bu huquqlar orasida hayot, erkinlik, mulk va diniy e'tiqod erkinligi kabi asosiy

⁶.Pardayev A. "Abu Mansur Moturidiyning Hayoti va Ilmiy faoliyati" So'ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi Respublika Ilmiy-Uslubiy Jurnal

huquqlar mavjud. Moturidiy ta'kidlaydiki, jamiyat va davlat bu huquqlarni himoya qilishi kerak.

Mashhur turk olimi Toshko'prozodaning ta'kidlashicha: "Ahli-sunna val jamoada kalom ilmi raislari 2 kishi bo'lib, ulardan biri Hanafiy, ikkinchisi Shofi'iydir. Hanafiy Abu Mansur al-Moturidiy, Shofi'iy esa Abul Hasan Ash'ariydir".⁷

Turli manbaalarda ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Bunday manbaalardan birida Al Moturidiy islom olamida juda nozik hisoblangan "Kitob Tahvid" –asari bizning davrimizgacha yetib kelgan va u 1970-yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan. U islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqhga va kalomga oid asar yozadi. Bu al-Moturidiyning "Ta'vilot ahli sunna" yoki boshqa bir nomi "Ta'vilot al-Qur'on" deb nomlangan. Bu asar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi.⁸

Xulosa. Moturidiyning ijtimoiy qarashlari uning asarlarida to'g'ridan- to'g'ri bayon etilmagan bo'lsa ham, uning yuqorida keltirib o'tilgan asarlari, kalom va fiqh sohasidagi ilmiy faoliyatida ijtimoiy qarashlarini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o'tilganlardan ko'plab ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Har bir buyuk olimlarning asarlari, nazariyalari va ularning qilgan buyuk ishlarida insonlar o'zlari uchun turli xulosalarga kelishi mumkin. Ularning ilmiy adabiy meroslarini o'rganish va ulardan ibrat olish yosh avlodning burchlaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayev A. "Abu Mansur Moturidiyning Hayoti va Ilmiy faoliyati" So'ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi Respublika Ilmiy-Uslubiy Jurnal
2. Baydayev D.X. "Abu Mansur Al-Moturidiy-Kalom Ilmining Ulug' Vakili"; Международный научный журнал «Научный Фокус» № 8(100), часть 1
3. Jozilov U. "Abu Mansur Al-Moturidiyning hayoti va ma'naviy merosi" Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Journal. 179-bet
4. Norxujayev L. Samarova A. "Al-Motrudiyning hayot yo'li"; Innovative Developments And Research In Education International scientific-online conference. 21-bet

Axborot manbaalari

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Moturidiy#cite_ref-info-islam_4-0

⁷. Baydayev D.X. "Abu Mansur Al-Moturidiy-Kalom Ilmining Ulug' Vakili"; Международный научный журнал «Научный Фокус» No 8(100), часть 1

⁸. Pardayev A. "Abu Mansur Moturidiyning hayoti va ilmiy faoliyati" ;So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali; 246-bet

DAVLAT VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUAMMOLAR

Baxrillayeva Mohichehra*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası sotsiologiyasi**2-bosqich talabasi**mahichehrasss@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada asosan davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chiqiladi. Davlat butun jamiyatning ijtimoiy instituti bo'lib, uning faoliyatini ta'minlaydigan ko'plab funksiyalarni bajaradi. Uning asosiy maqsadi ijtimoiy ishlarni boshqarish, tartib va jamoat xavfsizligini ta'minlashdir. Davlatning paydo bo'lishi bilan uning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarining murakkab va ziddiyatli tarixi boshlanadi. Jamiyatni tashkil etish shakli va boshqaruv tizimi sifatida davlat butun jamiyat manfaatlarini ko'zlab funksiyalarni bajaradi, unda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qiladi, inqirozli vaziyatlarni bartaraf etadi. Davlat jamiyat taraqqiyoti mahsuli va uni boshqaruvchi asosiy tizimdir. Davlat ma'lum bir institut sifatida jamiyat asosida vujudga keladi va asosan uning xarakteri bilan belgilanadi. Davlat tomonidan tashkil etilgan jamiyat o'z mavjudligi uchun printsiptial jihatdan yangi imkoniyatlarga ega bo'ldi: ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar, fan va axloqiy tamoyillarning rivojlanishi.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, institut, siyosat, itimoiy soha, Makiavelli, Veber, fuqarolik jamiyati, axloq, oila.

Kirish. Davlat — jamiyatning oliy siyosiy instituti bo'lib, shu jamiyat yashayotgan mamlakat fuqarolari manfaatini himoya qilish uchun o'rnatiladi. Davlatlar mamlakat chegaralarini himoya qiladi, boshqa mamlakatlar bilan aloqada bo'ladi, qonunchilik bilan shug'ullanadi. Mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilib, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma hisoblanadi. Davlat jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi.

Davlat to'g'risidagi nazariya huquqshunoslikning muhim sohasi hisoblanadi. Davlat va uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, mohiyat va vazifalari haqida turlicha fikrlar mavjud. Davlat hokimiyati hamda huquqiy hayot hodisalari barcha zamonlarda alohida dolzarblik kasb etib kelgan. Davlat to'g'risidagi ilk tushuncha va qarashlar miloddan avvalgi taxminan 4-3-ming yilliklarda Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoyda paydo bo'lgan. Ular asosan diniy-mifologik xarakterda edi. Avesto ta'limotiga ko'ra, hokimiyat, haqiqat, adolatlilik 3 axloqiy-huquqiy asosga: ezgu fikr,

ezgu soʻz, ezgu amalga tayanadi. Davlatning vazifasi yovuzlikka qarshi yaxshilik, tinchlik va insonlarning baxtli-saodatli hayotini taʼminlashdir. Islom dini taʼlimoti boʻyicha, Allohning oʻzi oliy qonun sohibi. Uning talablari, koʻrsatmalari paygʻambarlar orqali insonlarga yetkaziladi. Davlat boshliqlari — podsholar, xonlar Xudoning yerdagi soyasi, vakili hisoblanadi.¹ Gʻarbiy huquqiy nazariyalarda davlat butun jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan sinfiy, ijtimoiy ziddiyatlarni murosaga keltiradigan sinflar ustidagi tuzilma, qurol deb taʼriflanadi. Davlat mohiyatining asosiy jihati hokimiyat va uning kimga tegishliligi masalasidir.

Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- ❖ Oʻziga xos ommaviy hokimiyatining – davlat hokimiyatining mavjudligi, yaʼni hokimiyat va boshqaruv apparatining majburlash apparatining borligi.
- ❖ Aholining hududlar boʻyicha uyushganligi. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan maʼmuriy- hududiy birliklarda yashashini bildiradi.
- ❖ Suverenitete, yaʼni ichki va tashqi siyosatni oʻtkazishda mustaqil boʻlish.
- ❖ Huquqiy ijodkorligi, yaʼni davlat hududida yashovchi barcha kishilar rioya etadigan qonunlarni chiqarishga qodirlik.
- ❖ Aholidan davlat apparati saqlash hamda aholining kam taʼminlangan qismiga yordam berishga sarflanadigan soliqlarni toʻplash.
- ❖ Umuminsoniy funksiyalarni (vazifalarni) bajarish, yaʼni hududni qoʻriqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, umumiy farovonlik maqsadlarini amalga oshirish.

Davlat jamiyat taraqqiyoti mahsuli va uni boshqaruvchi asosiy tizimdir. Davlat maʼlum bir institut sifatida jamiyat asosida vujudga keladi va asosan uning xarakteri bilan belgilanadi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa qonuniyatlar natijasida vujudga kelgan davlat uning asosiy siyosiy tizimiga aylandi. Engels “Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” asarida bunga quyidagi xususiyatni beradi: “... davlat hech qanday holatda jamiyatga tashqaridan yuklangan kuchni ifodalamaydi... Davlat mahsulotdir. jamiyatning maʼlum bir rivojlanish bosqichida... bu kuch jamiyatdan kelib chiqqan, lekin oʻzini undan yuqori qoʻyib, undan tobora uzoqlashib borayotgan davlatdir”²

Jamiyat (arabcha umumiy) – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar oʻrtasida amal qiladigan koʻplab munosabatlar majmuasi, oʻzida moddiylik va maʼnaviylikni, obʼektivlik va subʼektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradigan tushuncha. Jamiyat gʻoyat murakkab ijtimoiy tizim boʻlib, u

¹ <https://uz.wikipedia.org/>

² Engels, F. Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi. Lyuis G. Morganning tadqiqotlari bilan bogʻliq holda. – M., 1978. – B. 190.

odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va hokazo munosabatlarning, tarixan tarkib topgan oila, jamoa, millat, din, davlat, axloq va hokazolarning majmuidir. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish ham, ulardan birini muhim, boshqasini nomuhim deb hisoblash ham birday xato, uning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalari bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Ularni boshqarish va takomillashtirishda davlat tashkilotlari va kishilarning o'z-o'zini boshqarish organlari muhim rol o'ynaydi. Insoniyatning ulug' mutafakkirlari doimiy o'zgarish va rivojlanishda bo'lgan jamiyatning tub mohiyatini bilishga, insonning jamiyatdagi o'rni va rolini belgilashga, taraqqiyot mantig'ini anglashga harakat qilganlar. Qadimgi davrda jamiyat mohiyati mifologik, diniy ta'limotlar orqali izohlangan. Jamiyat mohiyatini ilmiy-falsafiy bilish, uning yaxlit ilmiy manzarasini yaratish insoniyat ma'naviy taraqqiyotining buyuk yutug'i bo'ldi. Ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilan jamiyat mohiyatini ilmiy asosda o'rganish imkoniyati vujudga kelgan. Vatanimizdan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy³ singari ulug' mutafakkirlar jamiyatning paydo bo'lishi, mohiyati va istiqbollari to'g'risida ilg'or ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Bu borada Forobiyning fozil jamiyatni barpo etish to'g'risidagi g'oyalari, Ibn Sinoning jamiyatning paydo bo'lishi kishilarning birdamlikka bo'lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanini, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat taraqqiyotining asosi ekani haqidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati - bu davlat hokimiyatining tutqichlariga yaqin bo'lmagan fuqarolar yig'indisi ; davlat, davlat va tijorat tuzilmalari doirasidan tashqaridagi ijtimoiy munosabatlar majmui ; erkin fuqarolar va ixtiyoriy ravishda tashkil etilgan notijorat birlashmalari va tashkilotlarining bevosita aralashuvi va davlat organlari tomonidan o'zboshimchalik bilan tartibga solinishidan, shuningdek, boshqa tashqi farqlardan himoyalangan o'zini namoyon qilish sohasi.

Metod va materiallar. Jamiyatdan tashqarida hech kim yo'q. Inson har doim boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlar va aloqalarda bo'ladi. U boshqa odamlardan butunlay ajratilgan holda yashasa ham, u yoki bu tarzda ular bilan bog'lanadi. Jamiyat va davlat tushunchalari kelib chiqishi jihatidan ham, ko'lami jihatidan ham bir-biriga mos kelmaydi. Jamiyatning shakllanishi yuz minglab yillar davom etgan va u nihoyat taxminan 35-40 ming yil oldin shakllangan. Davlat taxminan olti ming yil oldin paydo bo'lgan. Jamiyat o'ttiz ming yildan ortiq vaqt davomida davlatsiz mavjud bo'ldi. Davlat ijtimoiy tabaqalar bilan bir qatorda, yozilmagan huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga sola olmagan paytda vujudga kelgan. Yozilmagan

³ <https://oyina.uz/>

qonun o'rniga yozma qonun paydo bo'ladi. Jamiyat to'rtta yirik sohani o'z ichiga oladi: iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy va siyosiy. Davlat siyosiy sohaga kiradi va uning o'zagi hisoblanadi. Davlat jamiyatdan vujudga kelib, jamiyatdan yuqori turadigan va ayni paytda u bilan o'zaro munosabatda bo'lgan mustaqil organga aylandi. Shuning uchun davlat va jamiyat tushunchalari ko'pincha sinonim hisoblangan. Masalan, Arastu davlat genezisini tahlil qilar ekan, "bir necha qishloqlardan tashkil topgan jamiyat butunlay tugallangan davlat bo'lib, u, aytish mumkinki, o'zini-o'zi to'liq ta'minlovchi holatga yetgan va hayot ehtiyojlari uchun vujudga kelgan, biroq bu davlatning o'zini-o'zi to'liq ta'minlovchi davlatdir. yaxshi hayotga erishish uchun mavjuddir."⁴

Davlat jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida vujudga kelganligi sababli u bilan o'zaro ta'sir qilmay qolmaydi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu o'zaro ta'sir juda murakkab bo'lib, jamiyat rivojlanishining murakkab va qarama-qarshi jarayonlarini aks ettiradi. Gap shundaki, shaxslar jamiyatda o'z manfaatlarini ko'zlab yashaydi va harakat qiladi, bu umumiy manfaatlarga doim ham to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, jamiyatda o'z manfaatlariga ega bo'lgan turli sinflar mavjud. Jamiyat (ya'ni jamiyat) halok bo'lmasligi uchun esa barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi siyosiy organ zarur. Bunday tartibga soluvchi sifatida davlat ishlaydi. Albatta, jamiyat bilan o'zaro aloqasiz ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ijtimoiy sohada jamiyat va davlatning o'zaro ta'siri, birinchi navbatda, jamiyatning muhtoj a'zolariga davlat tomonidan muayyan yordam ko'rsatilishida namoyon bo'ladi. Bu yordam turli shakllarda taqdim etiladi: pensiyalar, ularni muntazam indeksatsiya qilish, nafaqaxo'rlar va nogironlar uchun imtiyozlar, bepul ta'lim va bepul dori-darmonlar, bepul uy-joy yoki ijtimoiy uy-joy bilan ta'minlash va hokazo.

Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar doimo qarama-qarshi bo'lib kelgan. Barcha qarama-qarshiliklarning asosiy sababi shundaki, jamiyat ijtimoiy shaxs sifatida axloqqa, davlat esa siyosiy tizim sifatida manfaatlarga murojaat qiladi. Axloq va siyosat o'rtasidagi ziddiyat shundan kelib chiqadi. Siyosat va axloqning uyg'unligi haqida hali ham qizg'in bahs-munozaralar davom etayotgani bejiz emas. Bu savol birinchi marta N.Makiavelli tomonidan ochiq ko'tarildi. Italiyalik olim o'zining mashhur "Shahzoda" asarida va boshqa ko'plab asarlarida davlat turlari, boshqaruv shakllari, umuman davlat qurilishi masalalarini ko'rsatib bergan. Shu munosabat bilan suverenning siyosiy harakatlari diqqat markazida bo'ldi. U muammolarni o'ziga xos tarzda taqdim etadi, ko'p jihatdan boshqa mutafakkirlardan farq qiladi va uning qarashlari tanqidiy e'tiborni jalb qilishini tushunadi. Shunday bo'lsa-da, Makiavelli,

⁴ Aristotel. Asarlar: 4 jildda - M., 1984. - T. 4. - B. 378.

o‘zi aytganidek, xayoliy emas, balki haqiqiy haqiqatga ergashishga qaror qildi, chunki “odamlar qanday yashashi va qanday yashashi kerakligi o‘rtasidagi masofa shunchalik kattaki, kim haqiqatdan voz kechsa, o‘zi harakat qiladi. yaxshilik uchun emas, balki o‘z zarariga.” Bundan kelib chiqadiki, suveren hokimiyatni saqlab qolishni istasa, yaxshilikdan chetga chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishi va ehtiyojga qarab bu mahoratdan foydalanishi kerak”.⁵

Muhokama va natijalar. Makiavelli siyosat va axloq bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, suveren uchun axloq emas, balki uning hokimiyatini mustahkamlaydigan, o‘z fuqarolarining hurmatini, dushmanlarining nafratini uyg‘otadigan va umuman davlatni mustahkamlashga xizmat qiladigan siyosat muhim deb hisoblaydi.

Veber siyosat va axloqni birlashtirmoqchi bo‘lganlar bilan bahslashadi. Siyosat, deb yozadi u, zo‘ravonlik bilan bog‘liq va axloqiy nuqtai nazardan, zo‘ravonlikni qabul qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun zo‘ravonlikdan voz kechish siyosati olib borilishi kerak. Veber bu fikrga mutlaqo qo‘shilmaydi. Siyosatchi, deydi Veber, yovuzlikka zo‘ravonlik bilan qarshi turishi kerak, aks holda u yovuzlikning g‘alabasi uchun javobgar bo‘ladi. Demak, masala siyosatchining axloqiy tamoyillarga amal qilishi kerakligida emas, balki siyosatchi muhim siyosiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan fazilatlarga egami yoki yo‘qligida. Axloqiy pozitsiyalar siyosatchining siyosiy voqelikka muvofiq harakat qilishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak, deb qat’iy ishongan Veber. U ko‘pincha o‘zlarining axloqiy qoidalarini buzadigan axloqchilarni masxara qiladi. “Maqsadlar orqali vositalarni muqaddaslashga kelsak, bu erda umuman ishontirish etikasi muvaffaqiyatsizlikka uchraganga o‘xshaydi. Albatta, mantiqan u faqat axloqiy jihatdan xavfli vositalardan foydalanadigan barcha xatti-harakatlarni rad etish qobiliyatiga ega. To‘g‘ri, haqiqiy dunyoda biz qayta-qayta e’tiqod etikasi tarafdori to‘satdan chilik payg‘ambarga aylanib ketadigan misollar bilan duch kelamiz, masalan, hozirgi paytda “zo‘ravonlikka qarshi sevgi” ni targ‘ib qilayotganlar, keyingi lahzalarni chaqiradi. Zo‘ravonlik uchun - barchaning halokatiga olib keladigan so‘nggi zo‘ravonlik uchun, xuddi bizning harbiylarimiz har bir hujumda askarlarga aytganidek: bu hujum oxirgisi, u g‘alabaga va shuning uchun tinchlikka olib keladi. E’tiqod axloqini tan olgan kishi dunyoning axloqiy mantiqsizligiga dosh bera olmaydi.”

O‘zaro rivojlanish jarayonida davlatning jamiyatdan begonalashuvi sodir bo‘ladi. Jamiyatni onalik substrati sifatida qabul qilib, uning asosida vujudga kelgan davlat unda alohida rol o‘ynay boshlaydi, asta-sekin undan uzoqlashadi, o‘z mavjudligi va rivojlanish tendentsiyalariga ega bo‘ladi.

Davlat va jamiyat munosabatlarida yana bir katta muammo bor. Gap shundaki, o‘zaro rivojlanish jarayonida davlatning jamiyatdan begonalashuvi sodir bo‘ladi.

⁵ Макиавелли Н. Избр. оп. – М., 1982. – В. 345.

Jamiyatni onalik substrati sifatida qabul qilib, uning asosida vujudga kelgan davlat unda alohida rol o'ynay boshlaydi, asta-sekin undan uzoqlashadi, o'z mavjudligi va rivojlanish tendentsiyalariga ega bo'ladi. Marksizm nuqtai nazaridan "burjua davlati" ekspluatator ozchilikning kuchini ifodalaydi. Ushbu tendentsiya tarafdorlari sotsialistik tamoyillar asosida tashkil etilgan davlatning vujudga kelishi begonalashuvning ijtimoiy asoslarini yo'q qiladi, deb hisoblashadi. Garchi begonalashuvni butunlay yo'q qilish mumkin emasligi alohida ta'kidlangan. Bundan kelib chiqadiki, begonalashish muammosini faqat davlatning o'zini yo'q qilish bilan - yaratilgan fuqaroliksiz kommunistik boshqaruv sharoitida hal qilish mumkin. Hozirgi vaqtda jamiyat, Engelsning so'zlariga ko'ra, "butun davlat mashinasini u haqiqiy o'ringa ega bo'ladigan joyga yuboradi: antik buyumlar muzeyiga, aylanma g'ildirak va bronza bolta yoniga".

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlat ham, jamiyat ham ko'p qirrali va tarixan o'zgarib turadigan, ajralmas birlikda mavjud bo'lgan, ammo shunga qaramay bir-biriga nisbatan nisbiy mustaqillikka ega, deymiz. «Davlat» tushunchasi siyosiy tushunchadir, u siyosiy falsafaning o'zagini ifodalaydi; "Jamiyat" tushunchasi kengroq ma'noga ega bo'lib, hayotning barcha sohalarini, shu jumladan siyosiy sohani ham o'z ichiga oladi. Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning turli usullarini, ya'ni: ma'muriy-buyruqbozlik, iqtisodiy, demokratik va boshqalarni kompleks qo'llash orqali ta'minlash mumkin.

Bugungi kunda davom etayotgan globallashuv jarayonlari munosabati bilan jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ular davlat rolini pasaytirishga, uni faqat inson huquqlariga rioya qilish, demokratik tamoyillarni himoya qilish va hokazolar bilan kamaytirishga harakat qilmoqdalar. Lekin davlatga bunday munosabat allaqachon salbiy oqibatlarga olib keladi. Iqtisodiy sohada, masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda, davlatlar milliy iqtisodiyot bilan shug'ullanish imkoniyatidan samarali mahrum, chunki ularning o'zni transmilliy korporatsiyalar tomonidan to'ldirilgan. Natija ma'lum: aholining ko'pchiligining turmush darajasi keskin tushib ketdi. Bu barcha oqibatlarga olib keladigan ijtimoiy kataklizmlarni keltirib chiqaradi. Ma'naviy sohada davlat milliy madaniyatni saqlashga ko'maklashish imkoniyatidan mahrum. Millionlab odamlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi milliy o'ziga xoslikning asta-sekin yo'qolishiga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi muvozanat buzildi. Va agar bu muvozanat tiklanmasa, insoniyat oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarga duch kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/>
2. Aristotel. Asarlar: 4 jildda - M., 1984. - T. 4. - B. 378.
3. Makiavelli, N. Izbr. op. – M., 1982. – B. 345.
4. <https://www.socionauki.ru/>
5. Hegel, G. V. F. Siyosiy asarlar. – M., 1978. – B. 152–153.
6. <https://oyina.uz/>

DIN SOTSIOMADANIY INSTITUT SIFATIDA

Xudoyberdiyeva Gulasal Bahodir qizi

xudoyberdiyevagulasal141@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Maqolada dinning sotsiomadaniy xususiyatlarini o'rganib u haqida muallif o'z qarashlarini bildirib tahlil qilgan. Din qadim zamonlardan beri insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Din ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi, qadriyatlarni shakllantiruvchi va jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: sotsial institut, din, ijtimoiy guruhlar, jamiyat, e'tiqod, iudaizm, buddaviylik, cherkov, ijtimoiy hayot.

- Sabab-oqibat aloqalarini tushunish: Bolalar o'yinlar orqali "agar... bo'lsa..." kabi sabab-oqibat munosabatlarini o'rganadilar. Misol uchun, "Agar bu qog'ozni mo'ylov bilan tutsak, u qattiqlashadi".

- Yig'ish va solishtirish ko'nikmalari: Shakllarni yoki ranglarni yig'ish va taqqoslash bolalarga ob'ektlarni tasniflash va guruhlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Xulosalar chiqarish: O'yinlar bolalarga natijalar va xulosalar chiqarishni o'rgatadi. Misol uchun, bolalar turli o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o'z xulosa va qarorlarini qabul qilishlari kerak bo'ladi.

Didaktik o'yinlar yordamida bolalarni o'qitishning metodikalari quyidagilardan iborat:

- O'yinlar qiziqarli va motivatsion bo'lishi kerak: O'yinlarni boshlashdan oldin bolalar bu faoliyatdan zavq olishlarini ta'minlash muhimdir. Agar o'yin bolaga qiziqarli bo'lsa, u o'rganish jarayonida faol qatnashadi.

- Bolalarning yoshiga moslashtirish: O'yinlar har bir bolaning yoshiga va rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oddiy va sodda o'yinlardan boshlash lozim.

- Nazorat va qo'llab-quvvatlash: Bolalar o'yinlarda mustaqil ishlashlari mumkin, lekin ular doimo o'qituvchi yoki tarbiyachining yordamiga muhtoj bo'lishi mumkin. O'yin davomida bolalar o'z xatolarini tuzatib, to'g'ri xulosalarga kelishadi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular bolalarga turli bilimlarni o'rgatish, mantiqiy tahlil qilish va o'zaro aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinlar yordamida bolalar nafaqat bilim olishadi, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishda ham yutuqlarga erishadilar. Shunday qilib, didaktik o'yinlar o'qitish va tarbiyalash jarayonining ajralmas qismiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Xasanova "Bolalarni maktabga tayyorlash" ma'ruza matni.2018 y.
2. M.Hakimova, M.Ma'rufova "Bolalarni ijtimoiy moslashuvi" 2021 y.
3. Chorlieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
6. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
7. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
8. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.014 Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
9. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma.T.: TDPU, 2017.
10. Yo.Irisbayeva "Bolalarni maktabga tayyorlash" o'quv slubiy qollanma 2019 y.www.mdo.uz – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi sayti. <http://www.lex.uz>– O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.

BO`LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Inagamova Sohiba Mirvosil qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim
psixologiyasi va pedagogikasi" yo'nalishining 4 kurs talabasi*

Tarbiyachining kasbiy sifati uning faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Bolajak tarbiyachilarni kasbiy jihatdan tayyorlashda ularning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari birgalikda rivojlantiriladi. Quyidagi jihatlar bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi:

1. Kasbiy bilim va ko'nikmalar.

Tarbiyachi bo'lish uchun, avvalo, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarda chuqur bilimga ega bo'lish zarur. Bolalar psixologiyasi, pedagogik texnologiyalar, turli metodlar va yondashuvlar haqida bilimlar kasbiy sifatning asosini tashkil etadi. Bo'lajak tarbiyachilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganishlari kerak.

2. Kompyuter va axborot texnologiyalarini bilish.

Zamonaviy tarbiyachilar uchun kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bo'lajak tarbiyachining kasbiy sifatini oshiradi.

3. Shaxsiy xususiyatlar va etika.

Tarbiyachilar yaxshi shaxsiy sifatlar, mas'uliyat, chidamlilik, hamdardlik, hissiy intellektga ega bo'lishlari kerak. Bu sifatlar bolalar bilan ishlashda juda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi o'zini bolalarga yaxshi namuna bo'lishi, har doim do'stona va ijobiy muhit yaratishi kerak.

4. Kommunikatsiya qobiliyatlari.

Tarbiyachining muloqot qobiliyatlari ham muhimdir. U bolalar bilan samarali muloqot qila olish, ularning fikrlarini eshitish va unga muvofiq tarzda javob berish, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali ishlashni o'rganishi kerak.

5. Ijodkorlik va innovatsion yondashuv.

Bo'lajak tarbiyachilar ijodiy fikrlash, yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va ilg'or metodlarni qo'llashga qodir bo'lishi kerak. Ijodkorlik pedagogik jarayonlarni qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi.

6. Boshqaruv va tashkilotchilik qobiliyatlari.

Tarbiyachi bolalar bilan tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Bolalar o'rtasida adolatni ta'minlash, ularning shaxsiy xususiyatlariga qarab yondashuvni tanlash, guruh ishlarini tashkil etish va boshqarish o'rganiladigan muhim ko'nikmalardandir.

7. Xulq-atvor va axloqiy normalarga rioya qilish.

Tarbiyachi kasbiy axloqiy me'yorlarni o'z faoliyatida qo'llashi kerak. Bu uning professional qobiliyatini mustahkamlaydi va tarbiyalanuvchilarga yaxshi namuna bo'lishiga yordam beradi.

8. Doimiy ravishda o'zini rivojlantirish.

Tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatlarini samarali amalga oshirishi uchun doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilab, yangi bilimlar va ko'nikmalarni egallashlari zarur. O'quv dasturlarida o'quvchilarni kasbiy sifatlar asosida rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

9. Bolalar bilan samarali ishlash metodlari.

Tarbiyachilar bolalar bilan ishlashda turli pedagogik yondashuvlarni bilishlari kerak. Bu usullar bolalarning o'qish, o'rganish va rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

10. Pedagogik jarayonda tahlil va baholash qobiliyatlari.

Tarbiyachi pedagogik jarayonlarni tahlil qilish va baholashga qodir bo'lishi kerak. Bolalar rivojlanishini kuzatish va baholash, o'z faoliyatining samaradorligini o'lchash va muammolarni hal etishda innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, ularning professionalligi va malakasini oshirishga yordam beradi. Pedagogik sifatlar nafaqat bolalar tarbiyasida, balki jamiyatda ham ijobiy o'zgarishlar yaratish uchun muhim hisoblanadi. Kasbiy sifatlar bolajak pedagoglar uchun doimiy rivojlanish, o'rganish va tajriba orttirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mo'minov S. "O'zbek muloqot hulqining ijtimoiy insoniy xususiyatlari" Avtoreferat. 2000 y.
2. Uzoqov X., G'oziyev E., Oripova A. "Bolalar jismoniy tarbiyasi" O'quv qo'llanma 2000 y.
3. Chorlieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).

4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
6. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
7. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
8. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.014 Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИДА КУЧ СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Бўтаев Исроил Назирович

ИИВ Малака ошириш институти Касбий тайёргарлик факултети

Жанговар ва жисмоний тайёргарлик цикли катта ўқитувчиси

e-mail: akrom.mir1988@gmail.com

Аннотация: Куч сифатларининг йўналтирилган ривожланиши фақат мушаклар максимал таранглашгандагина юз беради. Шунинг учун куч тайёргарлиги услубиятининг асосий муаммоси, машғулотлар жараёнида мушаклар кучланишининг энг юқори даражасини таъминлашдир.

Калит сўзлар: жисмоний сифатлар, куч, юклама, мушак кучи, динамика, максимал уринишлар, кучланиш, такрорий-чегаравий.

METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF STRENGTH QUALITIES IN PHYSICAL EDUCATION TRAINING

Butaev Isroil Nazirovich

Institute of Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs of the

Republic of Uzbekistan Faculty of Professional Training senior

teacher of the cycle of Combat and physical training

e-mail: akrom.mir1988@gmail.com

Annotation: directed development of power qualities occurs only when the muscles are maximally tense. Therefore, the main problem of strength training methodology is to ensure the highest level of muscle tension in the training process.

Keywords: physical qualities, strength, load, muscle strength, dynamics, maximum attempts, tension, repetitions-boundary.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СИЛОВЫХ КАЧЕСТВ В ПРОЦЕССЕ ЗАНЯТИЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ

Бутаев Исроил Назирович

Институт повышения квалификации МВД Республики Узбекистан

Факультет профессиональной подготовки

старший преподаватель цикла Боевой и физической подготовки

e-mail: akrom.mir1988@gmail.com

Аннотация: направленное развитие силовых качеств происходит только тогда, когда мышцы максимально напряжены. Поэтому основной задачей методики силовых тренировок является обеспечение максимально высокого уровня мышечного напряжения в тренировочном процессе.

Ключевые слова: физические качества, сила, нагрузка, мышечная сила, динамика, максимальные попытки, напряжение, повторения-граница.

Услужбий жихатдан максимал кучланишлар ҳосил қилишнинг турли йўллари бор: ўта оғир юкларни бир неча марта кўтариш, катта бўлмаган оғирликдаги юкларни кўп марталаб кўтариш; мушаклар доимий чўзилган ҳолда, ташқи қаршилиқларни енгил ва ҳ.к. Келтирилган мушак кучланишларини ҳосил қилишнинг куйидаги усуллари мавжуд:

1. Максимал уринишлар усули
2. Чегаравий бўлмаган уринишлар усули
3. Изометрик уринишлар усули
4. Изокинетик уринишлар усули
5. Динамик уринишлар усули
6. “Жадал” усул

Таъкидлаб ўтиш керакки, усулларнинг бундай номланиши куч машғулотлари назарияси ва амалиётида кенг тарқалган. Уларнинг яхши томони қисқалигида. Лекин илмий нуқтаи-назардан кучни ривожлантириш усулларини бундай номлаш жуда ҳам тўғри эмас, чунки, масалан, максимал изотермик ва изокинетик уринишлар усуллари, қайтарма машқлар синфига ҳам киради. Мушакларнинг динамик қисқариши нафақат динамик уринишлар усулига, бошқа кўплаб усуллар учун ҳам хосдир.

Максимал уринишлар усули. Мазкур усул машғулотларни субмаксимал, максимал ва ўта максимал оғирликлар билан ўтказишга асосланган. Ҳар бир машқ бир неча марта такрорланади. Бир уринишда чегаравий ва ўта юқори қаршилиқни енгган, яъни оғирлик 100% ва ундан кўп бўлган ҳолда машқларни такрорлашлар сони 1-2, кўпи билан 3 марта бўлиши мумкин. Уринишлар сони 2-3, уринишдаги қайтаришлар орасида дам олиш 3-4 дақиқа, уринишлар орасида 2 дан 5 дақиқача. Чегарага яқин қаршилиқлар билан машқларни бажаришда (максималдан 90-95% оғирлик билан) бир уринишдаги ҳаракатлар қайтарилиши сони 5-6, уринишлар сони 2-5. Машқларни қайтариш орасидаги дам олиш вақти 4-6 дақиқа ва уринишлар орасида 2-5 дақиқа ҳаракатлар суръати - эркин, тезлик - энг камдан максималгача. Амалиётда бу усулнинг турли йўллари бор, уларнинг асосида оғирликларни оширишнинг турли усуллари ётади.

Шуни назарда тутиш керакки, чегаравий юкламалар ҳаракатлар техникасини назорат қилишни қийинлаштиради, жароҳат олиш айниқса, болаларда ва бошловчиларда кўп шуғулланиб юбориш хавфини кучайтиради. Шунинг учун, у олий малакали спортчиларнинг машғулотларида асосий, лекин ягона бўлмаган усулдир. У ҳафтасига 2-3 марта қўлланилади. Катта вазнлар, баъзи ҳолларда 7-14 кунда бир марта ишлатилади. 100%дан ортиқ юклар билан машқлар шериклар ёрдамида ёки махсус мосламаларни қўллаш йўли билан ўтказилади. 16 ёшгача бўлган болаларга бундай усулни қўллаш тавсия этилмайди.

Қайтарма максимал уринишлар усули максимал динамик кучни мушаклар ҳажмини сезиларли кўпайтирмасдан ошириш учун асосий ҳисобланади. Уни қўллаш учун спортчи олдиндан тайёргарлик кўрган бўлиши лозим. Ушбу усул ўсмирларнинг куч даражасини баҳолаш учун ўтказиладиган назорат синовлари асосида ётиши мумкин. Назорат учун машқлар, масалан, полдан штангани тортиш; горизонтал ётган ҳолда штанга кўтариш; елкада штанга билан ўтириб туриш.

Такрорий чегаравий бўлмаган уринишлар усули. Маъноси чегаравий бўлмаган ташқи қаршиликни то қаттиқ чарчагунча ёки “охиригача” такрорлаш.

Ҳар бир ёндашувда машқлар танаффуссиз бажарилади. Бир машғулотда 2-6 серия бажарилади. Бир серияда 2-4 ёндашув. Машғулотлар орасидаги танаффус 2-8 дақиқа, сериялар орасидаги 3-5 дақиқа машғулотлар давомида ташқи қаршиликлар катталиги максималдан 40-80% ни ташкил қилади. Ҳаракатлар тезлиги катта эмас. Катта оғирлик билан қайтаришлар сони кам бўлганда, асосан, максимал куч ривожланади ёки бир вақтнинг ўзида кучнинг кўпайиши ва мушаклар ҳажмининг ортиши юз беради. Ва аксинча, қайтаришлар сони кўп бўлиб, оғирлик миқдори кам бўлганда асосан, чидамлилиқ сифати ортиб боради.

Бу усулни қўллаганда машғулот самарасига машқларни такрорлашнинг ҳар бир серияси якунида эришилади. Сўнгги такрорлашларда ишлаётган ҳаракат бирликлари миқдори максимумгача етади, уларнинг синхронлиги кузатилади, физиологик жараён худди катта қаршиликларни енгаётгандай бўлади.

“Охиригача” усулининг учта асосий йўли мавжуд:

1. Машқлар бир машғулотда “охиригача” бажарилади, ёндашувлар сони ҳам “охиригача” эмас.
2. Бир неча уринишларда машқлар “охиригача” бажарилади, ёндашувлар сони “охиригача” эмас.
3. Машқлар ҳар бир уринишда “охиригача” бажарилади, ёндашувлар сони “охиригача”. “Охиригача” усулида ишлаш энергетик жиҳатдан кам унумли бўлсада, амалиётда кенг қўлланилади. У ҳаракатлар техникасини яхшироқ

назорат қилиш, жароҳатлардан сақланиш, мушаклар гипертрофиясига кўмаклашиш имконини беради.

Изотермик уринишлар усули. Қисқа муддатли, максимал кучланишларни бажариш билан ифодаланади. Изотермик кучланишлар давомийлиги одатда 5-10 с. Кучланиш катталиги максимумдан 40-50% бўлиши мумкин ва статик куч мажмуалари, турли мушак гуруҳлари кучини ривожлантиришга йўналтирилган 5-10 машқдан иборат бўлиши керак. Ҳар бир машқ 3-5 марта, 30-60 с танаффус билан бажарилади. Навбатдаги машқларни бажаришдан олдин дам олиш 1-3 дақиқа Изотермик машқларни машғулотга ҳафтасига 4 мартагача қўшиш мумкин, уларга 10-15 дақиқа ажратилса кифоя. Мажмуавий машқлар ўзгармаган ҳолда тахминан 4-6 ҳафта қўлланилиши мумкин, сўнгра у баъзи бошланғич ҳолатларнинг ўзгариши ҳисобига янгиланади.

Изотермик машқларни бажаришда тана ҳолатини ёки бўғимларнинг бурчак катталиги жиддий аҳамиятга эга. Елка олди букувчиларининг бўғимларининг катта бурчагида машғулот куч ўсишини кам таъминлайди, лекин машқ қилинмаётган бўғимларга яхши таъсир кўрсатади. Изотермик кучланиш бўғим бурчаги 900 да, 1200 ва 1500 га нисбатан, гавдани эгувчиларнинг ўсишига катта таъсир кўрсатади.

Изокинетик уринишлар усули. Бу усулнинг ўзига хослиги у қўлланилганда ташқи қаршилиқ катталиги эмас, ҳаракатнинг доимий тезлиги катталиги берилишидир. Машқлар махсус тренажерларда бажарилади, улар турли тезликларда ҳаракат қилишга имкон беради. Масалан, кроль ёки брасс билан сузишда қулочлаб эшишнинг бутун амплитудаси бўйича. Бу мушакларнинг бутун ҳаракат давомида оқилона юклама билан ишлашига имкон беради.

Изокинетик усулда замонавий тренажерларда бажариладиган куч машқлари бўғимларнинг ҳаракат тезлигини 1 сонияда 0 дан 200 тагача ўзгартириш имконини беради. Шунинг учун бу усул куч қобилятларининг ҳар хил турларини – “суст”, “тез”, “портлаш” кучини ривожлантириш учун ишлатилади. Усул сузиш, енгил атлетика, спорт ўйинларида - оёқ ва қўллар билан зарбалар, копток ирғитиш ва шу кабиларда куч тайёргарлиги жараёнида кенг қўлланилади. Мазкур усулдан фойдаланилганда бадан қиздириш машқлари шарт эмас ва шу билан оғирликлар ёрдамидаги машғулотлардан фарқланади.

Машқларни бажариш вақтида одам ўзининг натижаларини монитор ёки бошқа восита орқали кўриб туради, шу аснода ўзи билан ўзи ёки бошқа шахслар билан беллашиши мумкин.

Динамик уриниш усули. Максимал тезлик ёки суръатда катта бўлмаган оғирликлар билан (30% гача) машқлар бажарилади. У тезлик куч қобилятларини – “портлаш” кучини ривожлантириш учун қўлланилади. Бир

ёндашувда такрорлашлар сони 15-25 марта. Машқлар 3-6 серия билан бажарилади, улар орасидаги танаффус 5 - 8 дақиқа.

Оғирлик вазни шундай бўлиши керакки, у ҳаракат техника-сининг бузилишига сабаб бўлмасин ва ҳаракатни бажариш вақтида тезликни пасайтирмасин. Масалан, ватерполчиларда отиш кучини ривожлантириш учун 2 кг ли медицинбол қўлланилганда, энг яхши натижалар кўрсатилди, найза улоқтирувчиларда 3 кг.

“Жадал” усул мушак гуруҳларини пастга тушаётган юкдан ёки тана оғирлигинининг кинетик энергиясидан фойдаланган ҳолда жадал рағбатлантиришга асосланган.

Бу усул асосан, турли мушак гуруҳларининг “амортизация” ва “портлаш” кучини ривожлантириш учун ҳам қўлланилади. Мисол тариқасида оёқларнинг “портлаш” кучини ривожлантириш учун чуқурга сакраб тушиш ва сакраб чиқиш машқини келтириш мумкин. Амортизация ва ундан кейинги ердан итарилиш худди бир бутундай бажарилиши керак.

Максимал кучни ривожлантириш. Максимал куч – асаб мушак тизимига мушаклар максимал қисқарганда берилиши мумкин бўлган энг катта куч. Максимал кучни ривожлантириш асосида иккита усул ётади: максимал уринишлар усули ва такрорий - серияли усул.

Куч тайёргарлигининг назарияси ва амалиётида максимал уринишлар усулининг бир неча йўли мавжуд.

1-йўл. Машқлар, максималдан 90-95% оғирлик билан, бир ёндашувда 2-3 марта бажарилади. Бир машғулотда ёндашувлар орасида 3-5 дақиқа хордиқ билан 2-4 марта бажарилади. Бу жуда самарадор машқни мушаклар ишининг икки тартибда бажариш мумкин. Биринчи тартибда, ёндашувда барча ҳаракатлар такрорлашлар орасида мушакларни бўшаштирмасдан бажарилади. Масалан, штанга билан ўтириб туриш бўйича ёндашувни бажариш вақтида штанга доимо елкаларда бўлади ва мушаклар табиийки, таранглашган ҳолатда бўлади. Иккинчи тартибда, ёндашувда ҳар бир машқ орасида қисқа муддатга, бир неча сония мушакларни бўшаштириш билан боғлиқ. Бунинг учун, машқ амалларини бажариб бўлгандан кейин, юкдан холис бўлиб (штангани жойига қўйиб), “ишчи” мушакларни силтаб бўшаштириш ва дарҳол навбат-даги ҳаракатни бажаришга киришиш лозим. Иккала тартиб ҳам жуда самарали. Иккинчи тартиб “портлаш” кучини ва мушакларни бўшаштириш (дам олдириш) лаёқати фаол намоён бўлишини такомиллаштиришни таъминлайди.

2-йўл. Машғулотлар давомида маълум миқдорда ёндашувларни бажариш керак, улардан:

- 1) оғирлик вазни максималдан 90% - 3 марта;

- 2) вазн 95% - 1 марта;
- 3) вазн 97% - 1 марта;
- 4) 100% плюс 1 - 2 кг - 1 марта.

Иккала машқда ҳам ёндашувлар орасида фаол ҳордиқ учун 2 - 3 с. бўшаштирувчи машқлар билан танаффус қилиш керак. Охирги машқни спортчи 100% плюс 1-2 кг юклама билан бажара олмаслиги эҳтимоли бор, бунда бу ёндашувни олдингиларни қайтариш билан алмаштириш мақсадга мувофиқ.

3-йўл. Машғулот давомида 4-5 ёндашувнинг ҳар бирида бир марта 100% вазн билан машқ амалга оширилади. Танаффуслар давомийлиги навбатдаги ёндашувни бажаришга тайёрлик билан аниқланади.

Такрор - серияли уринишлар усули максимал уринишлар усулидан шу жиҳати билан фарқланадики, бунда ўсишни таъминлайдиган асосий машғулоти омили бўлиб, оқилона ва субмаксимал оғирликлар билан ишлаш чегаравий давомийлиги хизмат қилади. Усул ёндашув ва такрорлашлар ҳажмининг кўплиги ва улар орасида танаффуслар йўқлиги билан ажралиб туради. Машқларда барча ҳаракат амаллари сусти суръатда, такрорлашлар орасида мушакларни бўшаштирмасдан бажарилиши керак. Сериялар маълум миқдорда такрорланувчи бир неча ёндашувлардан иборат.

Тезлик кучини ривожлантиришда муваффақиятга эришишнинг муҳим шарти машқни такрорлаш олдида мушакларни бўшаштиришдир. Тезлик кучини ривожлантиришнинг энг кўп тарқалган ва содда воситаси сакрашдир. Уларни қўллаш жараёнида асосий технологик такомиллаштириш тезлиги ва ҳаракат қувватини оширмасликка интилиш. Максимал тезлик ва портлаш кучини ривожлантиришда икки муҳим шартни ёдда тутиш лозим. Биринчиси - ҳар бир шуғулланувчи ўзининг бошланғич жисмоний ва, хусусан, тезлик-куч тайёргарлигини эътиборга олиши лозим ва шундан келиб чиққан ҳолда, маълум таъсирга эга машқларни танлаши керак. Шунинг назарда тутиш лозимки, агар машқларнинг таъсир кучи катта бўлса, организмга зарар етиши, кам бўлса, умуман самара бермаслиги мумкин. Иккинчиси - мушаклар юқори тезликли, таъсирчан, портлаш юкламаларидан кейин, ўзига хос чарчашдан ҳалос бўлиши, янги юкламаларга тезкорлик билан тайёрланиши керак. Бунинг учун доимо ва мақсадли равишда эгиловчанликка машқлар бажариш керак, турли тортилишлар, чўзилиш, айланма ҳаракатлар билан танаффусларни тўлдириш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Платонов В.П. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев, 1997.

2. Теория и методика физического воспитания: Учебник под ред. Т.Ю. Круцевич. 2 том. – Киев: Олимпийская литература, 2003. – 424 б.
3. Теория и методика физической культуры. Учебник под ред. проф. Ю.Ф.Курамшина. 2-е изд., испр. – М.: Советский спорт, 2004. – 464 б.
4. Теория спорта /Под ред. В.Н.Платонова. – Киев, 1987. – 422 б
5. Mirzakulov Akrom Gafurzhonovich,.(2022). DYNAMIC ALTERATIONS IN THE STRUCTURE OF PHYSICAL TRAINING OF CADETS OF THE ACADEMY OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(04), 124–128. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-04-22>
6. Mirzakulov Akrom Gafurjanovich. (2024). CROSSFIT AS AN INNOVATIVE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION OF CADETS OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE ACADEMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *PEDAGOGS*, 58(2), 200–204. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/1374>
7. Mirzakulov Akrom Gafurjanovich. (2024). THE USE OF CROSSFIT IN THE PHYSICAL TRAINING OF LAW ENFORCEMENT OFFICERS. *PEDAGOGS*, 58(2), 205–207. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/1375>

СПОРТДА ПРОГНОЗЛАШТИРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК ВА НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Абдирахимов Амириддин Абдирахимович

ИИВ Малака ошириш институти

Ахборот технологиялар цикли ўқитувчиси

e-mail: amr.herezen28@gmail.com

Аннотация: Ҳозирги замонда прогнозлаштиришнинг илмий муаммолари жамиятимизнинг ҳар бир соҳасида шунингдек, жисмоний тарбия ва спортда ҳам жуда муҳимдир. Прогнозлаштириш муаммоларининг спорт соҳасида қўллашнинг муҳимлигини бир қатор муаммолари бор: биринчидан, сиёсий ва ижтимоий томонларини сезиларли даражада ошириш; иккинчидан, малакали спортчиларни спортга тайёрлашнинг янги йўллари излаб топиш ва мамлакатда жисмоний тарбия ҳамда спортни кенг ёйиш; учинчидан: республика мактабларида жисмоний ҳаракатнинг структура ва функцияларини кенгайтириш.

Калим сўзлар: ахборот технологиялари, прогнозлаштириш, спорт, жисмоний тарбия, методология, жисмоний сифатлар.

METHODOLOGICAL AND THEORETICAL ASPECTS OF FORECASTING IN SPORTS

Abdirakhimov Amiriddin Abdirakhimovich

*Institute of Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs of the
Republic of Uzbekistan information technology cycle teacher*

e-mail: amr.herezen28@gmail.com

Annotation: the scientific problems of forecasting in modern times are very important in every area of our society, as well as in physical education and sports. There are a number of problems of the importance of the application of forecasting problems in the field of sports: firstly, to significantly increase the political and social side; secondly, to look for new ways to prepare qualified athletes for sports and to widely spread physical education and sports in the country; and thirdly: to expand the structure and functions of physical.

Keywords: information technology, forecasting, sports, physical education, methodology, physical qualities.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СПОРТЕ

Абдирахимов Амириддин Абдирахимович

Институт повышения квалификации МВД Республики Узбекистан

Преподаватель цикла информационных технологий

e-mail: amr.herezen28@gmail.com

Аннотация: научные проблемы прогнозирования в наше время очень важны во всех сферах жизни нашего общества, а также в физическом воспитании и спорте. Существует ряд проблем, связанных с важностью применения задач прогнозирования в области спорта: во-первых, для значительного усиления политической и социальной составляющей; во-вторых, для поиска новых путей подготовки квалифицированных спортсменов к занятиям спортом и широкого распространения физического воспитания и спорта в стране; и в-третьих: расширить структуру и функции физического.

Ключевые слова: информационные технологии, прогнозирование, спорт, физическое воспитание, методика, физические качества.

Спорт прогнозлаштиришнинг услубияти – табиат ривожланишида диалектик-материалистик концепцияларга асосланади, яъни жамият ва билимга. Спортдаги прогнозлаштиришнинг илмий методологияси дунёдаги қабул қилинган билим фалсафасига суянса, умумий методология тушунчасида умумфан методлари қабул қилинади.

Спортни прогнозлаштириш ривожланишнинг янги босқичларида турибди. Англашимиз бўйича, илмий ва амалий организацияларнинг доираси кенгайиб борган сари, прогнозлаштириши билан шуғулланувчилар эски синалган усулларни ишлаб чиқмоқдалар.

Прогнозлар асосидаги усулларни ҳар бир илмий тадқиқотлар кузатиб боради: Булар анализ ва синтез, дедукция ва индукция, кузатиш, тажриба, системалаштириш ва классификациялаш, олдиндан кўра билиш, гипотеза, аналогия, экстраполяциялардир.

Олдиндан кўра билиш экспертлар баҳосининг асоси бўлиб хизмат қилади. Тажрибали мурббий янги спортчини бир марта кўриб унинг келажакда яхши спортчи бўлиб етишишни сезади.

Олдиндан кўра билиш қобилятига баҳо берганимизда, бу олдинги тажрибаларга асосланган ҳолда, қарор қабул қилишдир. Прогнозлаштириш учун, экспертларнинг методлари кенг қўлланилади. Экстраполяция методи ҳозирги вақтда кенг тарқалмоқда. Масалан, маълум вақт оралиғида катта-кичик

Ўзгаришларнинг маълумотлари қайд қилиб борилади. Спортчи кўтараётган штанга оғирлиги ўзгаришларини қоғозга қийшиқ чизиқлар билан белгилаб борилади. Бу чизиқлар орқали бизни қизиқтираётган спортчи ҳақида, унинг ҳар хил вақтдаги қайд қилинган натижалари ҳақида маълумотлар олишимиз мумкин. Моделлаштириш методи ёрдамида қисқа муддатли, ўрта муддатли, узоқ муддатли прогнозлаштиришнинг турли параметрлар орасидаги муносабатлари ҳисобга олинади. Модел ҳар бир тафсилотларда кўчирма бўлиш керак эмас. У фақат моделлаштиришда маълум мақсадлар учун объект вазифасини бажаради. Моделлар шаклига қараб ҳар хил бўлади: предметли (режалар, макетлар), футбол мураббийси ўйин ўтказишда макетлардан фойдаланади, яъни ўйинчи фишка кўринишида моделлаштирилади ва шундай ҳолатда тактик вариантларни ютиб чиқади.

Жисмоний – бунга мисол қилиб, футбол ўйинини олишимиз мумкин. Олий лиганинг мураббийи рақиб жамоани қандай ўйин тактикасидан фойдаланишни билади ва ўзининг жамоасида бўлажак ўйин тактикасини моделлаштиради. Худди шу тариқа жисмоний ҳаракатланувчи моделдан фойдаланади.

Мантиқли – ҳодисанинг ёки жараённинг мантикий таърифланиши кўзда тутилади.

Математикали – тенгсизлик жараёни тенглаштириш тизими ёрдамида тасвирланади. Математик моделлар ҳисобкитоби компьютер ёрдамисиз жуда меҳнат талаб ишдир. Математик моделдан кибернетик моделнинг фарқи шуки, у компьютер хотирасига жойлаштирилади. Унинг ёрдамида «яшайди, ривожланади ва тажрибалар ўтказади». Компьютердаги кибернетик модел янги ҳамда аниқ маълумотларни тез олишга мўлжалланган воситадир. Ижтимоий прогнозлаштиришнинг услубий ва назарий асослари спортда прогнозни бир қатор босқичлардан иборат тадқиқотлар тизимини кўриб чиқди.

Асосий босқичлар қуйидагилардан иборат:

- маълум услубиятни танлаш прогноз вазифаларининг асосий мақсади;
- прогноз функцияларини тизимидаги дескомпозиция ва синтез чизмаларини тузилиши;
- прогнозни ишончли вариантларини топиш;
- экспертиза прогнознинг асосий варианты;
- прогнозни текшириш ва тўғрилаш.

Бундай тадқиқот тизими, илмий-амалий прогнозлаштиришнинг вазифаларини ечишда ва спортчиларни Олимпиада ўйинларида жаҳон, Европа чемпионатларида юқори натижаларга эришишга имкон яратади.

Навбатдаги асосий йўлланмалар:

- ижтимоий-иқтисодий шароитда прогнозлаштириш, яъни спортчининг қобилиятларини юқори даражада ривожланиши;
- спорт натижаларининг ўсиш прогнози;
- спортчининг ҳар томонлама тайёргарлик даражаси ва шахсий сифатларига прогнозлаштиришнинг талаблари;
- йирик халқаро беллашувларда спорт натижаларига эришишнинг прогнозлаштириш мажмуавий воситаси;
- спортда прогнозлаштиришни мажмуавий ёндашиш тизимида киритишни алоҳида спортчида, жамоада ва спорт турларида қўллаш.

«Олдиндан билиш учун. Ҳаракат қилиш учун олдиндан кўра билиш» – деб шарҳлаган эди режалаштириш ва прогнозлаштиришни ўзаро боғлаб, XIX асрда яшаган фран-цуз файласуфи О.Конт. Россиялик мутахассислар прогнозлаштиришни кўриб чиқиб, режалаштириш тайёргарликнинг муҳим элементларидан бири деб ҳисобладилар. Режалаштириш муҳим қарорнинг натижаси сифатида ва ахборот учун керак бўлган прогнозлаштириш сифатида қабул қилинган. Спорт прогнозлаштириш мутахассислари О.Контнинг айтган сўзларини қайта изоҳлашди: чуқур ва кенг билим олдинда яхши кўра билиш учун керак, олдиндан яхши кўра билиш учун эса тўғри ҳаракат қилиш демакдир. Ҳолис ҳақиқийлик ижтимоий муносабатларда, спорт фаолияти тизимида кўриб чиқилади. Ҳар бир спортчини, жамоани спорт фаолияти бўшлиқ асосида қурилайтгани йўқ, балки бошқа тизимлар фаолияти ва уларнинг ривожланиши туфайли мавжуд.

Спорт фаолияти ва шахс ўртасига таъсир этувчи турли муносабатлар шакли: идеологик, психологик, иқтисодий муносабатлар мавжуддир. Иккинчи жиҳат прогнозлаштиришнинг ёндашиш тизимини бетунлиги ҳисобланади.

Тўртинчи жиҳат ижтимоий прогнозлаштиришнинг мажмуавий характерини илмий асосда олдиндан кўра билиш. Спортдаги прогнозлаштириш фаолияти киши шахсиятини шакллантириб, маънавий, меҳнат ва жисмоний тарбиянинг мажмуасига йўналтиради. Прогнозлаштириш спортчи шахсига, жамоага нисбатан тарбиявий билим бериш тадбирлари мажмуасини ҳисобга олади. Спорт прогнозлаштириш назариясининг мақсади шуки, тадқиқотларнинг истиқболли тармоқлари томонидан йиғилиб қолган ёки кам ишланган билимларини ягона тизимга туширишдир.

Ҳозирги замон илмий адабиётларида «олдиндан кўра билмоқ» сўзининг синонимлари сифатида олдиндан таърифлаш, олдиндан айтмоқ, антипатия, экстрополяция, ўйлаб топмоқ ва прогнозлаштириш каби сўзлар ишлатилади. «Олдиндан кўра билиш» тушунчасини назарий таҳлил қилганимизда, кўпгина аниқликларни киритамиз ва тизимлаштирамиз, яъни бир-бирини тўлдиришини,

бирбирига бўй сунишини кўрамиз. Юқорида келтирилган тушунчаларни бирлаштирган ҳолда, «олдиндан кўра билиш» тушунчаси инсонларнинг олдиндан таърифлаш, олдиндан айтиш, келажакни прогнозлаштириш каби қобилиятлари тушунилади.

Илмий адабиётлардан маълумки, «олдиндан кўра билиш» тизими инсонларни антогенетик ривожланишида урта босқичдан ўтади:

- олдиндан таърифлаш босқичи ёки антиципация;
- олдиндан айтиш босқичи ёки экстрополяция;
- прогнозлаштириш босқичи ёки илмий асосда «олдиндан кўра билиш».

Биринчи босқич – олдиндан таърифлаш ёки антипация. Бу келажакни бир дақиқа кўра билиш сенсомотор коррекция операцияларини муваффақиятларини мақсадга мувофиқ бажариш; Иккинчи босқич – олдиндан айтиш ёки экстрополяция. Бу вақт амплитудасидаги ретроспектив олдиндан кўра билиш, сенсор – ақлий коррекциясини узайтириш, мақсад қилиб қўйилган ҳодисани амалга ошириш. Учинчи босқич – прогнозлаштириш ёки илмий равишда олдиндан кўра билиш. Олимпиада спорт турлари муносабатлар тизимини ҳосил қилувчи омил сифатида, спорт прогнозлаштиришни ҳамма элементларини бирлаштиради.

Спортчиларни тайёрлаш прогрессив характерларга эга бўлиб, бир текис ва уюшган бўлиши керак. Агар спорт прогнози бўлажак мусобақаларни натижасиз бўлишини кўрсатса, дарҳол ишни шундай уюштириш керакки, бундай ривожланиш «секинлаб» натижаларни пасайишини олдини олиш керак.

Агар прогноз натижаларни яхши томонга ўзгараётганидан далолат берса, яна ҳам кўпроқ ютуқларга эришиш учун фаолликни ошириш керак. Бунинг учун эса маълум мақсадлар асосида спорт фаолиятида уюшган тадбирлар ўтказилади. Спорт фаолиятининг прогнози ташкилотлардаги ишларни тўғри уюштириб ва бу ташкилотлар қандай йўналиш орқали кетаётганини назорат қилади. Спорт прогнози мамлакатдаги спорт ривожланишига жавоб берувчи ташкилотларни, мураббийларни, команда раҳбарларини олдида тадбирлар ишлаб чиқишни вазифа қилиб қўяди. Шунингдек, бу вазифаларни бугунги кун талаби билан ечишни ва фақат тактик усул билан эмас балки, амалий усуллар билан барқарор қилишни талаб қилади.

Бошқарув фаолияти табиатан ташкилотчилик фаолияти ҳисобланади ва бу унинг ўзига хос томонларилан биридир. Аниқ ҳаракатни амалга ошириш учун бошқарув-нинг натижавий қарорлари қабул қилинади. Режа бошқарувнинг тузилиш элементи ҳисобланиб, у ўзига илмий асосланган прогнозни киритади. Агар бунинг акси бўлганда эди, спортда режалаштирилган, маълум мақсадни кўзлаган, натижа берувчи ҳаракат бўлмаган бўлар эди.

Бизнинг мамлакатимизда спорт фаолияти ва спорт ривожланиши билан боғлиқ бўлган томонларга катта эътибор берилади. Келажакда аниқ кучлар билан спортчи тайёргарлигига таъсир қилувчи йўналишларни олдинда турган олимпиада сезонида спортчилар шаклланиш жараёнини бошқариш кераклигини вазифа қилиб қўяди. Шундай қилиб, прогнозлаштириш ва режалаштириш бошқарувнинг асосий области бўлиб, спорт фаолиятининг даражасини белгилайди.

Прогноз долзарб режаларни қарорларини қабул қилишда доим зарурдир. Спортда прогнозлаштириш келажакда бажариладиган вазифаларни ҳозирги замон бошқарув қарорлари асосида қабул қилади. Мусобақа олди тайёргарлик босқичи режа натижасини ҳисоблаши қисқа муддатли прогнозда аниқланади. Спортнинг тайёргарлик режасида ўтган йилги тадбирда қўлланган восита ва усуллар бу йилда ҳам қўлланилади.

Вақт ўтиши билан спортда ҳам эволюция юз беради, яъни ҳолатлари, даражаси, тузилиши, характери ўзгариб ижтимоий ҳаётга мослашади. Спорт ривожланишида прогностикани таҳлил қилиш ва ўтказиладиган тадбирни режалаштириш жуда муҳимдир. Спортдаги эволюцияга асосланган ҳолда, спорт фаолиятининг ривожланишидаги муваффақиятли бошқарилаётган прогнозлаштиришни илмий асосланган вариантларини ишлаб чиқишни таклиф қилади. Бунинг учун режа тузиш, бошқарув қарорини қабул қилиш, уюштирилган тадбир ўтказиш керак. Спорт прогнози бу тавсиянома ёки танлаб олинadиган нарсa эмас, балки кўп вариантли илмий асосланган объектив баҳодир. Спортчилар тайёргарлигини режалаштириш мутахассислар олдидаги муҳим вазифалардан биридир ва улар бунга жавобгардирлар. Худди шу ерда спортдаги прогнозлаштириш ва режалаштириш муносабатлари аниқланиб, спорт фаолиятида натижали ишнинг вариантлари танлаб олинади. Шундай қилиб режалаштириш спорт фаолиятида энг яхши йўлларни, тадбирларни, воситаларни, методларни танлабгина қолмасдан балки аввалги ва ҳозирги вақтда аниқланган фойдасиз йўналишларни чиқариб ташлайди.

Олдиндан кўра билиш амалиётида спорт фаолиятининг натижалари фақат прогнозлаштириш билан чегараланиб қолмайди. Бошқарув элементларининг занжири прогнозлаштиришдан фарқ қилиб, бошқарув объектига актив таъсир қилади, яъни режалаштиришда, программалаштиришда, проектлашда, ташкил қилишда, текширувда, коррекция қилишда. Бошқарув, режалаштириш, прогнозлаштириш ўзаро боғлиқ ва бир-бирига тобе бўлиб, бири иккинчисини сиқиб чиқара олмайди.

Прогнозни тўғрилигини аниқлаш жараёни верификация дейилади. Келтирилган ҳар қандай прогнозни қайсидир даражада ноаниқликлари мавжуд.

Келажакда олинган ахборотни ишлатиш учун, уни қай даражада умидлилигини текшириш керак. Прогнозни ишончлилиги ва натижалилиги икки йўл орқали аниқланади: априорли ҳамда апостериорли. Априорли прогнозлаштириш ҳодисани содир бўлгунга қадар текширади. Апостериорли верификация статистик маълумотларга нисбатан, турли прогнозларни реал содир бўлишидан, прогноз методларни натижавийлиги билан мос келишини кўриб чиқади. Апостериорли верификация прогнозлаштириш методини амалга оширишда муҳим рол ўйнайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Верхошанский Ю.В. Спортчининг махсус жисмоний тайёргарлигини асослари /Фан спотга. – М.: Жисмоний тарбия ва спорт, 1988. – 331 б.
2. Иванов Ч.Т. Теоретические основы методики физического воспитания. – М.: “Инсан”, 2000. – 353 с.
3. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти. – Т.: УзДЖТИ, 2001. – 286 с.
4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М., 1991. – 544 б.
5. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. – Киев, 1999.
6. Озолин Н.Г. Современная система спортивной тренировки. – М.: Физкультура и спорт, 1970. – 480 б.
7. Платонов В.П. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев, 1997.
8. Mirzakulov Akrom Gafurzhonovich, (2022). DYNAMIC ALTERATIONS IN THE STRUCTURE OF PHYSICAL TRAINING OF CADETS OF THE ACADEMY OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(04), 124–128. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-04-22>
9. Mirzakulov Akrom Gafurjanovich. (2024). CROSSFIT AS AN INNOVATIVE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION OF CADETS OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE ACADEMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *PEDAGOGS*, 58(2), 200–204. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/1374>
10. Mirzakulov Akrom Gafurjanovich. (2024). THE USE OF CROSSFIT IN THE PHYSICAL TRAINING OF LAW ENFORCEMENT OFFICERS. *PEDAGOGS*, 58(2), 205–207. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/1375>

ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ ВОСИТАЛАРИ

Абдуллаев Зоҳиджон Зокиржон ўғли

ИИВ Малака ошириш институти Касбий тайёргарлик факултети

Жанговар ва жисмоний тайёргарлик цикли ўқитувчиси

e-mail: akrom.mir1988@gmail.com

Аннотация: Жисмоний тарбия назарияси ва методикасида, шунингдек, кейинги йилларда шаклланган спорт турлари назариясида “Жисмоний қобилиятлар”, “Жисмоний сифатлар”, “Ҳаракат қобилиятлари”, “Ҳаракат сифатлари” деган маъно жиҳатдан бир-бирига жуда яқин бўлган тушунчалардан фойдаланилмоқда. Спорт турларига қараб, аниқланган жисмоний қобилиятлар тарбияланиб, зарур жисмоний сифатларга айлантирилади. Жисмоний сифатларнинг эришилган ва зарур бўлган даражаси йиллар давомида, машқ натижасида ушлаб турилади.

Калит сўзлар: жисмоний сифатлар, жисмоний тарбия, ҳаракат, атроф-муҳит, морфологик ва функционал кўрсаткичлар, дам олиш интервали.

THE MAIN TOOLS FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES

Abdullaev Zokhidjan Zokirjanovich

Institute of Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs of the

Republic of Uzbekistan Faculty of Professional Training

teacher of the cycle of Combat and physical training

e-mail: akrom.mir1988@gmail.com

Annotation: in the theory and methodology of physical education, as well as in the theory of sports that were formed in later years, concepts that are very close to each other in meaning are “physical abilities”, “physical qualities”, “motion abilities”, “motion qualities”. Depending on the sports, the identified physical abilities are brought up and transformed into the necessary physical qualities. The achieved and necessary level of physical qualities is maintained over the years, as a result of exercise.

Keywords: physical qualities, physical education, movement, environment, morphological and functional indicators, rest interval.

ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА ДЛЯ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ

Абдуллаев Зоҳиджон Зокиржон ўғли

Институт повышения квалификации МВД Республики Узбекистан

Факультет профессиональной подготовки

преподаватель цикла Боевой и физической подготовки

e-mail: akrom.mir1988@gmail.com

Аннотация: в теории и методике физического воспитания, а также в теории спорта, которые сформировались в более поздние годы, очень близкими друг к другу по смыслу понятиями являются "физические способности", "физические качества", "двигательные способности", "двигательные качества". В зависимости от вида спорта выявленные физические способности развиваются и трансформируются в необходимые физические качества. Достигнутый и необходимый уровень физических качеств поддерживается на протяжении многих лет в результате физических упражнений.

Ключевые слова: физические качества, физическое воспитание, движение, окружающая среда, морфофункциональные показатели, интервал отдыха.

Барча жисмоний сифатларнинг йўналтириб ривожлантирилишига хос қатор қонуниятлар мавжуд. Улар таркибига қуйида-гилар киради:

1. Ҳаракат - жисмоний сифатлар ривожланишининг етакчи омили. Жисмоний сифатларнинг шаклланишида ҳам туғма, ҳам атроф-муҳит омиллари катта аҳамиятга эга. Бироқ тенг шароитларда жисмоний сифатларнинг ривожланишида инсоннинг руҳий-физиологик табиатини такомиллаштиришга қаратилган ҳаракат фаоллиги ҳал қилувчи рол ўйнайди. Шунинг учун ҳам жисмоний машқлар билан шуғулланган кишиларда турли аъзолар ва тизимларнинг морфологик ҳамда функционал кўрсаткичлари, жисмоний тайёргарлиги умуман юқори бўлади. Организмнинг функционал ва морфологик такомиллашуви учун зарур омил сифатида фаолият, машқнинг аҳамиятини биринчи бор Жан Ламарк кўрсатиб берган эди. Ўзининг “Биринчи қонуни” бўлмиш “машқ қонунини” тузар экан, у ёзган эди: “Бирон-бир аъзодан тез - тез ва сусайтирмай фойдаланиш аста-секин шу аъзони мустаҳкамлайди, ривожлантиради, йириклаштиради ва унга қанча муддат фойдаланилса, шунча узоққа етадиган куч ато этади, аъзодан мунтазам фойдаланмаслик эса уни сездирмай заифлаштириб қўяди, таназзулга олиб келади, изчил равишда сифатларни торайтириб, охир-оқибат унинг йўқолиб кетишига сабаб бўлади”.

Шу тариқа Жан Ламарк тирик табиатнинг умумий қонунларидан бирини ифодалаб берди.

II. Жисмоний сифатлар ривожининг ҳаракат фаолияти режимига боғлиқлиги. Жисмоний сифатлар уларнинг намоён бўлишини-гина эмас, уларни бажаришнинг муайян режимдаги талаб қиладиган фаолият жараёнида ривожланади. Режим деганда, бир машғулот ёки машғулотлар тизими доирасида қандайдир жисмоний машқларнинг бажарилиши ва улар орасидаги дам олиш тушунилади. Керакли тартибни ўрнатишда, энг аввало, инсоннинг иш сифатидаги босқичлар тебраниши муҳим аҳамиятга эга. Жисмоний машқларни бажариш жараёнида организмнинг қувват ва функционал захиралари сарфи билан боғлиқ ҳолда ишчанлик сифати даражаси пасаяди.

Дам олиш чоғида (машқ тугатилгач) ишчанлик сифатининг тикланиши юз беради. Инсон организми бу вақтда бир неча ҳолат-ларни: ишчанлик сифати сусайган босқични; ишчанлик сифати тўла тикланган босқични ва, ниҳоят, ўта тикланган, яъни ишчанлик сифати кучайган босқични босиб ўтади. Санаб ўтилган босқичларнинг ҳар бири бошқа шароитлардан ташқари, бажарилган ишнинг хусусиятлари, шиддати ва давомийлигига боғлиқ бўлган муайян узунликка эга бўлади.

III. Жисмоний сифатлар ривожланишининг босқичмабосқиччилиги. Жисмоний сифатларни ривожлантириш динамикасида – бир хил юкламаларни узоқ муддат давомида, кўп маротаба бажаришда – учта, нисбатан мустақил босқични шартли равишда айириб кўрсатиш мумкин:

Биринчи – жисмоний сифатларнинг ривожланиш даражасини ошириш;

Иккинчи – жисмоний сифатларни ривожлантиришда максимал кўрсаткичларга эришиш;

Учинчи - жисмоний сифатларни ривожлантириш кўрсаткичларининг пасайиши.

Биринчи босқичда юклама қўллаш натижасида организмда ҳар томонлама мослаштирувчи ўзгаришлар юз беради, улар ҳаракат фаолияти хусусиятлари билан боғлиқ жисмоний сифатларнинг ўсишига ва функционал имкониятларнинг аста-секин кенгайишига сабаб бўлади.

Иккинчи босқичда мослаштирувчи ўзгаришлар ўсиб боргани сайин стандарт юклама организмда тобора камроқ функционал силжишларга сабаб бўлади. Бу мослаштирувчи жараёнларнинг турғун адаптация босқичига ўтганлигидан дарак берувчи бир белгидир. Тегишли сифатларнинг намоён бўлиши асосида ётувчи тана аъзолари ва тизимларининг имкониятлари жиддий тарзда кенгайиб боради. Уларнинг фаолиятида тежамлилик ва ўзаро

мувофиқлашув кучаяди. Буларнинг барчаси сифатларнинг максимал даражада намоён бўлиши учун шароит яратади.

Учинчи босқичда мазкур юклама организмдаги функционал имкониятларнинг кенгайиши туфайли мослаштирувчи силжишларни юзага келтирмай қўяди, яъни унинг ривожлантирувчи таъсири ё пасаяди, ёки умуман йўқолади. Жисмоний сифатлар ривожини яна давом этиши учун қўлланиладиган юкламаларнинг хусусиятлари ва мазмунини ўзгартириш (бошқа машқлар танлаш, иш шиддатини ошириш, унинг давомийлиги ёки машқларни бажариш шароитларини ўзгартириш), шу тариқа жисмоний сифатлар учун янги, юқорироқ талаблар қўйиш зарур. Бошқача айтганда, сифатлар ривожини гўёки биринчи босқичга ўтказиш керак.

IV. Жисмоний сифатлар ривожининг гетерохронлиги (турли вақтга мансублиги). Ривожланишнинг нотекислиги бир босқичдаги жисмоний сифат кўрсаткичларининг ўсиш даражаси бошқалардагига қараганда, анча жиддий бўлиши мумкинлигини билдиради. Бу унча катта бўлмаган вақт кесмалари (масалан, бир неча ҳафта, ойлик дарслар) учун ҳам, умуман ривожлантириш жараёни учун ҳам (айтайлик, бир неча йиллик машғулотлар учун) тўғри бўла олади. Одатда, жисмоний сифатларнинг энг кўп ўсиши жисмоний машқлар билан шуғулланишнинг бошланғич даврида кузатилади. Бирон - бир сифатнинг ривожланиш даражаси кўтарила борар экан, унинг ўсиш суръати пасаяди. Жисмоний сифатлар ривожини уларнинг ўсиш суръати пасайиши билан боғлиқ экан, зарур силжишларга эришиш учун ривожланишнинг ҳар бир кейинги босқичида тобора кўп вақт керак бўлаверади.

Жисмоний сифатларнинг ривожланиш кўрсаткичлари ўзгаришларида (ўсишида) гетерохронлик (турли вақтга мансублик) ходисаси кузатилади. У алоҳида жисмоний сифатларнинг шиддатли ўса бошлашига мос келадиган лаҳзаларнинг вақт нуқтаи назаридан ўзаро мувофиқ келмаслигида намоён бўлади. Махсус тадқиқотлар ва амалий тажриба шуни кўрсатадики, инсон ҳаётининг муайян ёш даврида сифатлар ривожига таъсир кўрсатадиган қулай имкониятлар мавжуд бўлади, чунки улардан айримларининг ўсиш суръатлари бошқа ёш давларидагига нисбатан анча юқори бўлади. Бу давларни одатда сенситив (ҳиссий) ёки критик деб атайдилар, чунки улар организмнинг ривожланишида алоҳида аҳамиятга эга.

Таъкидлаш зарурки, турли муаллифларнинг илмий-услубий адабиётларида у ёки бу сифат ривожланишининг ҳар хил сенти-тив давлари кўрсатилганлигига дуч келиш мумкин. Бундай тафо-вутларнинг бир неча сабаби бўлади:

1. Бирон-бир сифатни ўлчаш учун бир хил бўлмаган тест-лардан фойдаланиш.

2. Жисмоний сифатлар кўрсаткичларининг ўсиш суръатларини аниқлаш учун турли ёндашув ва формулаларни қўллаш.

3. Текшириш учун танлаб олинган синалувчиларнинг бир хил эмаслиги (текширилаётган кишилар сонининг турличалиги, уларнинг жисмоний ривожланиши, тайёргарлик даражаси, умумий фаолият режими ва бошқаларнинг бир хил эмаслиги).

V. Жисмоний сифатлар ривожланиш кўрсаткичларининг қайтарилувчанлиги. Жисмоний машқлар билан мунтазам шуғулланиш натижасида эришиладиган функционал ва тузилишга хос ўзгариш-лар қайтарилувчан бўлиб, улар тескари ривожланиши ҳам мумкин. Шуғулланишда нисбатан қисқагина узилиш бўлса кифоя, шу заҳоти функционал имкониятлар даражаси пасая бошлайди, тузилишга хос белгилар тескари томонга ривожлана боради ва оқибатда жисмоний сифатларнинг кўрсаткичлари ҳам пасаяди. Биринчи навбатда, тезлик сифатлари, кейинроқ куч ва охирида узоқ муддатли фао-лиятга чидамлилиқ сифатлари сусаяди. Спортчиларни кузатиш шуни кўрсатадики, 5 ой давом этган машғулотларни тўхтатиш ҳара-катлар максимал суръатининг дастлабки даражасига 4-6 ойдан сўнг, мушак кучи максимал суръатининг дастлабки даражасига 18 ойдан сўнг, чидамлилиқнинг худди шундай кўрсаткичига эса 2-3 йилдан сўнг олиб келади.

VI. Жисмоний сифатларнинг кўчиши. Турли жисмоний сифатлар бир-бирлари билан чамбарчас алоқада ривожланади. Бир сифатнинг ривожланиш даражасидаги йўналтирилган ўзгариш бошқасининг ривожланиш даражасида ўзгаришлар содир бўлишига олиб келади. Бу ҳодиса “жисмоний сифатларнинг кўчиши” деб аталади.

